

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI  
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**X.E. Sultanov**

**RANGTASVIR**  
**(Akvarelda natyurmort ishlash)**

**O'quv qo'llanma**



5110800 – “Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi” ta'lif yo'naliishi 1 – kurs  
talabalari uchun

**TOSHKENT-2019**

UDK 910.(092  
BBk 26.9/g13)

Muallif: Sultanov Xaytboy Eraliyevich.

Mas'ul muharrir: tasviriy san'at va mehnat ta`limi kafedrasini professori: B.B. Boymetov.

Taqrizchilar: Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti dotsenti, p.f.n: N.X..Tolipov

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti professori: S.A. Abdullaev.

Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2017 yildagi - sonli yig'ilishi bayonnomasida o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

Qaydnama №

**ISBN 978-9943-4885-4-0**

## **Annotatsiya**

“Rangtasvir” (akvarelda natyurmort ishslash) nomli o’quv qo’llanma pedagogika Oliy ta’lim muassasalarining 5110800 – “Tasviriy san’at va muhandislik grafikasi” ta’lim yo’nalishi 1– kurs talabalari uchun tuzilgan o’quv dasturi asosida yozilgan. Ushbu qo’llanma akvarelda rangtasvir ishslash kursi bo’yicha va rangtasvirning nazariy asoslari bilan bog’liq savollarga oid topshiriqlar bajarishda talabalarga ko’maklashish maqsadida yaratilgan.

Qo’llanmada yoritilgan ko’rsatmalardan foydalanish o’quv vazifalarga qo’yiladigan talablar batafsil ifodalangan rangtasvir bo’yicha o’quv dasturini sinchiklab o’rganish bilan birga olib borilganda nisbatan yaxshi natijalarga erishish mumkin. Ayniqsa bu mustaqil vazifalar bajarishda juda qo’l keladi.

O’quv qo’llanmada rangtasirga tegishli Yevropalik mualliflar kitoblaridagi materiallardan unumli foydalanilgan hamda xorijiy rangtasvir ustalari tajribasi bo’yicha vazifalar kiritilgan.

## **Annotatsiya**

Uchebnoe posobie «Jivopis» (natyurmort v akvarelnoy texnike) napisano s uchetom uchebnoy programmi po jivopisi dlya studentov 1- go kursa spetsialnosti 5110800 – «Izobrazitelnoe ickusstvo i injernaya grafika» v pedagogicheskix visshix uchebnix zavedeniy. TSelyu dannogo posobiya yavlyaetsya okazanie pomoshi studentam v vopolnenii uchebnix zadaniy po kursu akvarelnoy jivopisi i osveshenie voprosov, svyazannix s osnovami teorii jivopisnoy gramoti.

Ispolzovanie studentami rekomendatsiy otositsya k tem zadaniyam, kotorie vopolnyayutsya samostoyatelno.

V posobie produktivno ispolzovano materiali iz knig Evropeyskix avtorov, a takje vvedeno zadanie po opitu zarubejnjix masterov jivopisi.

## **Annotation**

The manual "Painting" (a still life in the water color equipment) is written taking into account the training program on painting for students 1-go a specialty 5110800 course – "Graphic art and engineering graphics" in pedagogical higher educational institutions. The purpose of this grant is assistance to students in performance of educational tasks at the rate of water color painting and illumination of the questions connected with bases of the theory of the picturesque deed.

Use by students of recommendations who are lit in a grant will be the most effective in combination with attentive studying of the training program on painting where requirements to educational tasks are in detail stated. In particular it belongs to those tasks which are performed independently.

In a grant it is productively used materials from books of the european authors, and also the task by experience of foreign masters of painting is entered.

## KIRISH

Ushbu o'quv qo'llanma pedagogika oliy o'quv yurtlari, tasviriy san'at bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Unda akvarel rangtasviri tarixi, akvarelda rangtasvir ishlashning nazariy jihatlari, kerakli ashylar, qo'llaniladigan vositalar hamda ish joyini tashkil etish haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. SHuningdek akvarelda rangtasvir ishlash texnikasi va usullari, akvarel bo'yog'ining o'ziga xos xususiyatlari, naturadan rangtasvir ishlash metodikasi va bajarilgan ishlarni ko'rgazmaga tayyorlash (ramka bilan badiiy bezash) haqida tavsiyalar berilgan. Rangtasvir – o'quv fani sifatida amaliy san'at yo'nalishi mutaxassislik fanlari orasida asosiy o'rinni egallaydi. Tasviriy san'at o'qituvchisi butun faoliyati davomida qalamtasvir va rangtasvir bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalariga tayanib ish olib boradi. U o'zining kuzatishlari asosida biror tasvir yoki buyum yaratish uchun eskizlar bajarishda qalamtasvir va rangtasvirga murojaat qiladi.

Kimki rangtasvirni o'rganmoqchi bo'lsa, u doimiy amaliy mashqlar bajarishi va rangda har xil tajribalar o'tkazib turishi zarur. Ushbu kitob akvarel bo'yog'i va mo'yqalamlar bilan rangtasviri bajarishdagi ilk qiyinchiliklarni bartaraf qilishga yordam beradi.

Rangtasvir mashg'ulotlari orqali yosh rassom-pedagoglar atrof-muhit, borliqni kuzatish, idrok etish, tahlil qilib to'g'ri tasvirlashni o'rganishadi.

Mazkur qo'llanmaning maqsadi boshlang'ich kurs talabalarini akvarelda rangtasvir ishlash texnikasining nazariy va metodik asoslari bilan tanishtirishdan iborat. Ma'lumki, har qanday fanning nazariy tomonlarini o'zlashtirish uning o'ziga xos xususiyatlarini sinchiklab o'rganishni. talab qiladi.

Rangtasvir texnikasining o'ziga xos tomonlari nimadan iborat? Rangtasvir texnikasining boshqa tasviriy san'at turlari, masalan, grafikadan farqi ko'rinish yoki alohida buyum qiyofasini rangda ifodalashdan iborat. YOrug'likning ma'lum ob'ektiv qonun-qoidalari asosida kolorit shakllanadi. Bu qonuniyatlar asosida ongimizda buyumlarning koloritdagi obrazlari paydo bo'ladi. o'zlashtirgandan keyingina talaba akvarel bo'yog'ining o'ziga xos xususiyatlariga tayanib obrazlar yarata oladi. ,

YOrug'-soya, rang-tus, kolorit va uning qonun-qoidalari hamda naturadan rangtasvir ishslash metodikasi haqidagi bilimlar rangtasvir texnikasi va barcha usullarining nazariy asosini tashkil etadi.

Bu nazariy bilimlarning tasviriy san'at o'qituvchisi kasbiy ko'nikmasi va malakalarini shakllantirishda ahamiyati katta. Akvarelda ishlashning har xil texnikalaridan foydalanib tezkor ranglavhalar bajarish imkoniyati ko'p va o'quv mashg'ulotlarida foydalanish uchun juda qulay.

**Rangtasvir** (Akvarelda natyurmort ishslash) deb nomlangan ushbu qo'llanma talabalarning akvarel rangtasviridan o'quv vazifalarini bajarish va rangtasvir ishslashning nazariy asoslariga taaluqli savollariga javob topishlarida talabalarga kerakli manbaa bo'lib xizmat qiladi.

Qo'llanmada yoritilgan ijodiy ishslash uchun berilgan ko'rsatma va yo'l-yo'riqlar talabalarga o'quv vazifalariga qo'yilgan talablar nisbatan kengroq aks etgan o'quv

dasturini sinchiklab o'rganish bilan hamohang olib borilganda, albatta ijobiy natijalarga erishiladi. Bu ko'rsatmalardan asosan mustaqil vazifalar bajarishda ko'proq foydalanish mumkin.

Unda rangtasvir uchuni qo'yilgan naturani oddiydan-murakkabga qarab uzviy bosqichlarda bajarish ko'zda tutiladi. Asosiy diqqat shaklni to'g'ri qurish, yaxlit ko'rish va yoritilish sharoitiga qarab naturaning har xil ko'rinishdagi holatlarini jonli bera olish ko'nikmalarini oshirishga qaratiladi.

Rangtasvir o'quv dasturi bo'yicha 1-kurs talabalari akvarel, guash kabi suvli bo'yoqlarda ishlashni o'rganishlari ko'zda tutilgan. SHuning uchun qo'llanmada rangtasvirda an'anaviy ishslash usullari bilan bir qatorda aralash ishslash usullari ham ko'rib chiqiladi. Rangtasvir ishslash nazariyasi bo'yicha asosan talabalarni badiiy idrok qilish qonuniyatlari, shaklni rangda ifodalash haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtirish nazarda tutilgan. Qo'llanmada rangtasvir fanining o'ziga xos jihatlari, akvarel bo'yog'inining xususiyatlari, o'quv-ijodiy jarayonni tashkil qilish jarayoni keng tahlil qilingan. "Naturani rangtasvirda ifodalash metodikasi" bo'limida natyurmort janrida o'quv vazifalarni bajarish bo'yicha metodik tavsiyanomalar berilgan.

Tasviriy san'atning har xil turlarida badiiy bezash, ishni ko'rgazma va ko'riklargacha tayyorlash haqidagi umumiy qoidalar haqida tasavvurlarini o'stirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarning badiiy bezak ishlaridagi bilimlarini chuqurlashtirish, kasbiy malakalarini oshirish maqsadida ijodiy ishlarga ramka tanlash va uni badiiy bezash haqidagi tavsiyalar ham berilgan. Bu bo'limda talabalar kartinalarni kompozitsion badiiy bezash usullari bilan tanishishlari mumkin.

Qo'llanmaning ilova qismida chet el va milliy rassomlik maktablariga tegishli taniqli rassomlar asarlari hamda "Tasviriy san'at yo'nalishi" talabalarining o'quv ishlaridan namunalar keltirilgan.

Qo'llanmaga badiiy ta'lim jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan akvarel rangtasviri ishslashning har xil usul va texnikalari namunalaridan iborat ijodiy ishlar ko'rgazmali qurol sifatida kiritilgan. SHu paytgacha xorijiy adabiyotlarni o'rganib, uni milliy tasviriy san'at an'analari bilan uyg'unlashtirib o'zbek tilida Pedagogika oliy o'quv yurtlari tasviriy san'at yo'nalishi talabalari uchun yozilgan "rangtasvir" qo'llanmalari mavjud emas edi. Ushbu qo'llanma esa xorijiy tajribalarga katta e'tibor qaratilib, chet el adabiyotlaridan keng foydalanilgan holda yaratildi. Bu bo'lajak rassom-pedagog kasbiy faoliyati uchun zarur bo'lgan akvarelda rangtasvir ishslash texnikasini o'zlashtirishida katta metodik yordam beradi. Bu bilimlarni nazariy va amaliy jihatdan puxta egallash orqali talabada ijodkorlik xislatlari shakllanib haqiqiy pedagogik mahoratga erishishi mumkin.. Yana shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, faqat kitobni o'qish bilan mo'yqalamda ishslash mahorati oshib qolmaydi. Ijodiy mahorat tinimsiz, uzoq vaqt amaliy mashqlar bajarish jarayonida o'sib boradi. Amaliy mashqlar maqsadga yetishning eng to'g'ri yo'li bo'lsa, kitob esa undagi harakatlarni boshqaruvchi yo'l ko'rsatuvchi mayoq hisoblanadi.

## **AKVAREL RANGTASVIRI TARIXI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT**

Akvarelda rangtasvir ishlash uzoq tarix va boy an'analarga ega. 3500 yillar oldin inson kitob yozish va unga rasmlar ishlashni boshladi, bu bilan u akvarel rangtasviriga asos solganligini bilmas edi. YOzishda qo'llanadigan Cuperus-papirus o'simligini topib, misrliklar bunga birinchi qadamni tashlagan edilar. Oxiratda yer yuzida nima qilganligini ollohga ko'rsatishlari uchun bu yaratilgan kitoblarni uning mualliflari bilan ko'mishgan. Bu kitoblarga rasm ishlashda jigarrang uchun tabiiy oxra va siena, qizil rang uchun kinovar, qora rang uchun kuydirilgan iva, oq bo'yoq uchun gips kabi minerallar asosida yaratilgan shaffof bo'yoqlardan foydalanilgan. Bu bo'yoqlar tuxum sarig'i va gummiarabik bilan qo'shib tayyorlanib, suv bilan suyultirilardi. Boshqacha qilib aytganda bu hozirda biz ishlatib kelayotgan akvarel bo'yog'i edi. YUqorida aytib o'tilgan ilk akvareldan hozirgi zamonaviy akvarel bo'yog'i shakli, rangi va janrning asosiy xususiyatlari ancha o'zgarganilagini kuzatish mumkin, lekin bo'yoqning tarkibi o'shaligicha qolgan.<sup>1</sup>

SHuningdek o'sha davrlarda akvarelning YAponiya va Xitoyda ham ishlatilgani ma'lum. Ipakka ishlovchi rassomlar akvarelda ishlashni hayratlanarli yuqori cho'qqiga ko'targanlar. U davrda asosan qaynoq batikni eslatuvchi shirmalarni bezatish uchun ishlatilgan roketlarga ishlash juda keng tarqalgan edi. O'zining jozibadorligi va nafisligi bilan bu ishlar hatto zamonaviy kishilarni ham hayratga soladi. Xitoylarda esa chinniga rangtasvir ishlash o'zining yengil, mo'jizaviy ranglar uyg'unligi bilan akvarel texnikasini yodga soladi.

Rangtasvirda ishlashning bir turi bo'lган shu texnikada bajarilgan asarlar hamda suv bilan ishlatiladigan bo'yoqlar akvarel deb atalib, lotincha aqua – suv (fransuzskogo – aquarelle) ma'noni bildiradi. Bo'yoqni eritishda suvdan foydalanadi va shu sababli nomlanishi ham shundan kelib chiqqan. Akvarel – o'zining shaffofligi bilan boshqa bo'yoqlardan alohida ajralib turadi. Bunga nafaqat qo'llaniladigan materiallar sifati, balki yuqori darajada ishlov berilib maxsus tayyorlangan sifatli bo'yoq kukunlaridan tayyorlanganligi hisobiga erishiladi.

SHaffof bo'yoqlarga oq bo'yoq aralashtirilib tayyorlangan akvarel bo'yog'i yuqorida ta'kidlanganidek antik davrdayoq Qadimgi Misrda, undan tashqari o'rta asrlarda esa Osiyo va Yevropa qit'alarida ishlatilganligi ma'lum. Rassomlarning papirus va guruch po'stloqlariga ishlangan asarları bizgacha yetib kelgan. O'rta asrlarda Yevropa va Rusda cherkov kitoblarini (qo'lyozmalardagi naqshlar, bosh harflarni bo'yashda ishlatilgan) bezashda, keyinchalik minatyura asarlarini ishlashda akvarel bo'yog'idan foydalanilgan.<sup>2</sup>

Taxminan XII asrlarda Forsda paydo bo'lib, butun SHarqqa tarqalgan kitobga minatyura rangtasvirlari ishlash orqali akvarel rangtasviri rivojlana boshladi.

Qadimgi qo'lyozmalarga illyustratsiyalar ishlash minatyura rangtasviri paydo bo'lishiga olib keldi. "Minatyura" atamasi lotin tilida qizil bo'yoq – "minium"

<sup>1</sup> Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-27

<sup>2</sup> Бурчик А.И. "Основы акварельной живописи". Учебное пособие, Гродно, 2014. 2-б.

so'zidan olingan. Turli xalqlarning qadimiy qo'lyozmalariga ishlangan ajoyib minatyura rangtasvirlari bizgacha yetib kelgan.

Dunyo tasviriy san'ati rivojiga mashhur minatyurachi rassomlar o'zlarining bebafo hissalarini qo'shdilar. YOzishni o'rganganlaridan keyin barcha xalqlarda qo'lyozmalarini surat va rangtasvirlar bilan bezash urf bo'la boshlagan. Buyuk davlat arbobi, sarkarda, shoir, san'atni benihoya qadrlovchi unga homiylik qilgan vatandoshimiz Zaxriddin Muhammad Boburga tegishli "Boburnoma" asari ham shunday minatyura rangtasviri bilan bezatilganligini ko'rish mumkin. Samarqand, Buxoro, Hirot, Tabriz, SHeroz va mahalliy hind minatyura maktablarining eng sara an'analari asosida eng iste'dodli musavvirlari tomonidan bajarilgan bu minatyuralari asarni bezab turibdi. Qo'lyozmadagi to'qson oltita minatyura asarlari ustida qirqdan ortiq iste'dodli musavvirlar ishlashgan. Bu buyuk rangtasvir ustalari "Boburnoma"da go'zal va nafis asarlarni dunyo tasviriy san'ati uchun o'lmas me'ros qilib qoldirishdi.

XVII-XVIII asrlarda akvarel ko'pgina san'at turlari: gravyura, eskiz, kartina va freskalarning tarkibiy qismiga aylanib ulgurdi. Akvarel ko'plab grafika va rangtasir materiallari bilan qo'shib aralash texnikada (guash, tempera, pastel bilan) keng qo'llanila boshladi. O'sha davrdagi mashhur rassomlar ichida akvarenga murojaat qilmagan rassomlarni topish juda qiyin edi.

Akvarel - rangtasvir (tusning boyligi, shakl qurilishi va rangda fazoviylik) va grafika (tasvirni ifodalashda qog'ozning ahamiyati) xususiyatlarini o'zaro birlashtiradi. Tasvirga harakat hamda jilvalanish effektini beradigan yuvib va oqizib ishlash – bu akvarenga xos usullar hisoblanadi. Mo'yqalamda ishlanadigan rangtasvir ko'pincha avval qalamda chizib olinadi.

XV – XVII asrlarda akvarel amaliy bezak sifatida gravyura, rangtasvir asari va devoriy suratlarning eskizlarini bo'yash uchun qo'llanilardi. Golland va flamand rassomlari hamda Dyurerning manzaralari bunga misol bo'la oladi. SHu davrda akvarel A. Dyurer va kichik Gans Golbeynlar diqqatini o'ziga tortdi. Birinchi marta shu davrda A. Dyurer tomonidan akvarel bo'yog'ining texnik imkoniyatlari keng ochib berildi. Akvarel bo'yog'ini o'zi qo'lda tayyorlab, unda ajoyib rangtasvir ishlarini yaratdi. Bu vaqtida Dyurer atigi 17-18 yoshda edi. XVIII asrga kelibgina Angliya, keyinchalik Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlarda akvarel mustaqil rangtasvir turi sifatida ko'zga tashlana boshladi. Angliya akvarelning ilk vatani deb hisoblanadi. Angliyaning tinmay o'zgarib turadigan atmosfera sharoiti, o'ziga xos tumanli iqlimiyl tabiat shaffof bo'yoq sifatida akvarel texnikasining rivojlanishiga katta imkoniyat yaratdi.

XVII asrda Angliya akvareli rangtasvir sifatlari osha borib, shaffof bir xil rangli monoxrom usuldan ranglarga boy rangtasvir texnikasiga aylana bordi.

Angliya akvarel maktabini Jon Kozens, Tyorner, Konstabl, Richard Bonington, Tomas Gertin kabi mashhur rassomlar boshqarardi. Ular o'zgaruvchan havo va quyoshdan tushayotgan xira yorug'likda fazoviy perspektivani ifodalash imkonini beruvchi ajoyib akvarel sitexnikani ishlab chiqdilar.<sup>3</sup>

Sof akvarel (oq bo'yoq qo'shilmagan) XV asr boshlaridan keng qo'llanila boshlandi. Ranglarning tozaligi, bo'yoqning shaffofligi, bo'yoqlar orasidan

<sup>3</sup> R.Xalilov Akvarel Izdatelstvo "Navruz". T– 2013. 7-6.

asosning tusi va fakturasi (asosan qog'oz, ba'zida ipak va fil suyagi)ning aks etib turishi – uning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Kuzatilayotgan ko'rinishni akvarelda tezkor tasvirlash imkoniyati mavjudligi, unda fazoviylikni ifodalash qulayligi XVIII asr ikkinchi yarmidan boshlab akvarelning manzara janrida keng qo'llanila boshlanishiga sabab bo'ldi. Akvarelda rangtasvir ijod qilish o'ziga kasb qilgan birinchi rassomlar paydo bo'ldi. Juda ko'p mashhur rassomlar qatorida taniqli Battista Jovanini ham akvarelning xususiyatlaridan mohirona foydalangan. Battista Jovannining chizish usuli qiyin ko'rinsa ham o'rgansa bo'ladijan jihatlari ko'p. Rassomning asarlari yengil chizilgan chiziqlar suvli mo'yqalamda yuvish yo'li bilan birga olib boriladi. Uning chizmatasvirlarini unga yaqin bo'lgan tugallangan mo'jaz rangtasviri bilan solishtirsangiz ajoyib, nafis chiziqlarning o'zidayoq rassom kompozitsiyaning asosiy ilk g'oyasini ifodalab qo'yanining guvohi bo'lasiz.<sup>4</sup>

Boshqa rassomlar tomonidan ham yuvish va pero bilan chiziqlar chizish yo'li bilan akvareldagi ranglar ko'lami umumlashtirilgan, nam qog'ozlarda bir xil tusdagi yorqin bo'lмаган manzaralar bajarilardi. Buyuk Britaniyada (A.i Dj.R.Kozens, T.Gyortin), Fransiyada (J.O.Fragonar, YU.Rober), Rossiyada (F.YA.Alekseev, M.M.Ivanov, S.F.SHedrin, F.M.Matveev va boshqalar).

XIX ikkinchi choragida Italiyada quruq oq qog'ozga qarama-qarshi rang-tuslar, yorug'-soyalar, jarangdor va to'yingan ranglarda bajarilgan ko'p qatlamlı akvarel rangtasviri paydo bo'ldi. Rangtasvir materiali sifatida akvarel – fazoviylik, shaffoflik va noziklik kabi asosiy xususiyatlari bilan ko'plab rassomlarning diqqatini o'ziga jalb qildi. Umumi rangtasvir rivoji ta'sirida akvarel texnikasi asta-sekin boyib, takomillashib tasviriy san'atning mustaqil turiga aylana bordi. O'zining afzalliklari va badiiy qiymati jihatidan moybo'yoqda bajarilgan kartinalardan aslo qolishmaydigan va yuksak darajadagi imkoniyatlarga ega bo'lgan dastgohli akvarel rangtasviri paydo bo'ldi. Dastgohli akvarel bilan bir vaqtda illyustratsiya va me'moriy sohada qo'llaniladigan akvarel texnikasi ham rivojlana bordi.

Rossiyada bu janrda K.P.Bryullov i A.A.Ivanov kabi rassomlar ijod qilishdi. P.F. Sokolovning shaklga katta, yaxlit rang surtmalari berib, o'ziga xos maydalab ishlov berilgan ajoyib portret rangtasvirlari mitti portret ishlash san'atida yangi davrni boshlab berdi. U qog'ozga oq bo'yoqsiz toza ranglarda ishlardi. Rassom akvarelning shaffoflik va fazoviylik kabi asosiy imkoniyatlaridan unumli foydalanardi. Mitti portretlari hayratlanarli darajadagi oddiyligi, ranglar ko'laming jilvadorligi va suratlarning jozibadorligi bilan kishini o'ziga jalb qildi. ("YAshil ko'ylakdag'i ayol portreti", "YOsh zabit portreti")

XIX asrda akvarel rangtasviri sezilarli darajada rivojlandi. Ko'p rassomlar ishlari uchun rangtasvir ishlashdagi erkinlik, tus ko'lamlarining xilma-xilligi va koloristik yechim xarakterli edi. Bu davrda Fransiyada e.Delakrua, O.Dome, P.Gavarni, Germaniyada A.Mensel, Rossiyada I.E Repin, V.I.Surikov, M.A.Vrubel kabi rassomlarning akvarel texnikasida ishlagan ajoyib ishlari ma'lum. Angliya maktabi gullab yashnadi (R.Bonington, Dj.S.Kotmen, I.Kellou, I.Tyorner).

<sup>4</sup> Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-27

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida rus akvarel rangtasviri tarixiga “San’at olami” guruhi a’zolari va ular atrofidagi rassomlar o’zlarining katta ulushlarini qo’shdilar. YUqori kasbiy mahorat va san’atning zamonaviy tilini izlash yo’lidagi umumiy maqsad sari intilish har xil ijodkorlarni birlashtirib turar edi.

Akvarel texnikasida erkin va oddiy ishslash XX asr uchun rassomlari ijodining xarakterli tomoni edi. Ko’pgina rassomlar asarlarida grafika va rangtasvirning qo’shilish holatini kuzatish mumkin. “San’at olami” guruhining A.YA.Golovin, L.S.Bakst, D.N.Kardovskiy, F.A.Malyavin, M.V.Dobujinskiy, K.F.YUon, B.M.Kustodiev, Z.S.Serebryakova kabi ko’pgina a’zolari o’z asarlarida akvarelni oq bo’yoq, guash, tempera, pastel, bronza va boshqa materiallar bilan qo’shib ishslashni ma’qul ko’rishagan. Lekin K.A.Somova, A.N.Benua va A.P.Ostromova-Lebedeva ijodida sof akvarel texnikasining saqlanganini kuzatish mumkin.

G.S.Vereyskiy, V.M.Konashevich, N.A.Tirsa, K.I.Rudakov, N.N.Kupreyanov, V.V.Lebedev, L.A.Bruni, P.V.Miturich, S.V.Gerasimov, A.V.Fonvizin, L.V.Soyfertis kabi rassomlar o’ziga xos yorqin va original ranglarda ishlab rus dastgohli akvarel rangtasviri an’analarini davom ettirib keladilar.<sup>5</sup>

Akvarel texnikasining paydo bo’lishi va rivojlanishi, unda o’ziga xos rangtasvir ishslash tilini topish yo’lida izlanish Respublikamiz rassomlari ijodida ham o’z aksini topdi. Mashhur rassomlarning akvarel ishlari O’zbekistonda rangtasirning bu turi rivojlanishi uchun asos bo’lib xizmat qildi. Vatanimizning takrorlanmas go’zalliklaridan ilhomlangan O’. Tansiqboev, K. CHepakrov, I. YUrovskiy, G. SHavyakov, V. Akulin, G.I. CHiganov, YU.I. Taldikin va boshqa mashhur rassomlar katta mahorat bilan o’zining ko’plab asarlarini yaratdilar. Bu tasviriy san’at ustalari lirik, kishi ruhiyatini ko’taruvchi tabiat go’zalliklari va ona zamin ne’matlarini mo’yqalamning yengil harakatlari bilan akvarelda ajoyib asarlar yaratdilar.

Keksa avlod keyingi avlodga yuksak va ezgu maqsadlar yo’lida san’atga nisbatan o’zlarining chin muhabbatlari, o’zlarining tajriba va ko’nikmalarini me’ros qilib qoldirdilar. Barcha eng yaxshi an’nalarni qabul qilib olgan yosh avlod shaxsiy ijodiy yutuqlari bilan yurtimiz akvarel rangtasviri rivojiga o’zlarining munosib hissalarini qo’shdilar. Oxirgi yillarda o’zbek akvarel rangtasviri ajoyib rassomlar R. CHoriev, M. Sodiqov, G’. Boymatov, V. Apuxtin va boshqa yangi iste’dodlar bilan boyidi.

Rang va texnik sifatlari jihatdan Marat Sodiqovning akvarel asarlari juda yuksak qiymatga ega. Har xil rang quymalaridan foydalanib kompozitsiyalarida o’ziga xos go’zal koloritdagи takrorlanmas asarlar yaratdi. Rang surtmalarining aniqligi, kerakli joyda kuchaytirish, ba’zi joylarda rang jo’shqinligini so’ndirish kabi akvarelning texnik imkoniyatlaridan oqilona foydalanish rassomning yuksak mahoratini belgilab turibdi. Kishi ma’naviy dunyosiga chuqur ta’sir qiluvchi, badiiy g’oyalar bilan sug’orilgan asarlari o’ziga xos mazmuni bilan tomashabinni o’ziga rom etadi.

N.D. Ten, M.N. Nabiev, N.P. Bannikov badiiy-grafika fakulteti pedagog-rassomlari ham akvarel rangtasvirida ijod qilishdi. Akvarel rangtasviri

<sup>5</sup> Бурчик А.И. “Основы акварельной живописи”. Учебное пособие, Гродно, 2014. 3-б.

xususiyatlari o'ziga xosligidan mohirona foydalanib, juda ko'plab shogirdlari, pedagog-rassomlarga ular o'z tajribalarini me'ros qilib qoldirdilar. SHunday ajoyib rangtasvir ustalaridan dars olgan R.SH. Xalilov, M. Djumashevlar ham akvarelning respublikamizdagi rivojiga o'z hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Olam go'zal va jozibador. kishini to'lqinlantiruvchi dunyo ko'rinishlari, uning go'zalliklari, murakkabligi va ko'pqirraligini turli ranglar orqali tomashabinga yetkaza olish – bu san'atning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda akvarelchi rassomlar ham turli usullarda bu vazifaning yechimini topib, akvarelda ajoyib obrazlarni yaratishmoqda.

Akvarel rangtasviri texnikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi haqidagi keltirilgan qisqacha akvarel tarixi rangtasvirning bu turi qanchalik ommaviylashib ketganligini isbotlab turibdi. Kimdir uchun akvarel kartinalarga eskiz ishlashda qo'llaniladigan oddiy material, boshqalar uchun moybo'yoqdan kam ahamiyat kasb etmaydigan, uchinchi guruh rassomlari uchun asosiy ijodiy faoliyat turiga aylanganligining guvohi bo'lamiz. Avloddan-avlodga o'tgan sari akvarelning texnik qo'llanishi va usullari takomillasha borib, uni baholash kriteriyalari aniqlandi, keng texnik vositalar, har xil ishslash usullari va janrlari paydo bo'ldi.

Mashhur rassomlar tomonidan yaratilgan ajoyib asarlar akvarel texnikasida ishslash vositalari va undan foydalanish imkoniyatlari cheksiz ekanligini isbotlab turibli. Buyumlar shakli va fakturasini ifodalashda yetarli darajadagi tajriba, texnikani to'g'ri tanlash va rangtasvir ishslash mahorati orqali yorug'lik va ranglarga boy, g'aroyib obrazlar xilma-xilligiga erishish mumkin.

Akvarel asosan fazoviy ko'rinishlardagi nozik rang va tuslar ko'lамиni ifodalashda katta imkoniyatlarga ega. Kasbiy tayyorgarlikka ega akvarelchi rassom uchun bu bo'yoq texnikasida – o'zgaruvchan atrof muhit, yoritilganlik holati, buyumlar materiali, fazodagi planlilikni berish imkoniyatlari mavjud. SHu bilan birgalikda akvarelchi rassomdan an'anaviy akvarel rangtasviri usul va texnikalarini qo'llash ko'nigmalarini mukammal o'zlashtirish, tasvirlash asoslari, materiallarning o'ziga xos xususiyati va tarkibini o'rganishda sinchkov bo'lishga o'rgatadi. Sirdan qaraganda yengil ko'ringani bilan akvarel rangtasviri boshqa rangtasvir turlariga (guash, tempera, moybo'yoq) nisbatan ma'lum darajada qiyin hisoblanadi. Bunday qiyinchiliklar buzilgan akvarel rangtasviriga tuzatishlar kiritilganda yoki ustidan ishlanganda qog'oz yuzasi buzilishi va qorayib ketishi bilan izohlanadi. "SHuning uchun ishni boshlash oldidan rassom nimani tasvirlashni hohlashi va uni qanday amalga oshirish haqidagi aniq tasavvurga ega bo'lishi kerak", - deb yozadi rus rassomi A.P. Ostroumova-Lebedeva.

Rang qatlamlarining shaffofligidan foydalanib ishlanadigan an'anaviy akademik akvarel ishslash usulini o'rgatishning hozirda aniq metodikasi ishlab chiqilgan va yuqori darajada o'zlashtirilgan. O'tgan asrning ikkinchi yarmida akvarel rangtasvirining tarixiy rivojlanishidagi materiallar, texnik usullar, obrazlar va boy tipik sifatlari, avval foydalanilmagan akvarelning yangi qirralarini ochib berdi.

Akvarelning tipik sifatlari asosan ikki faktor: materiallar (qog'oz, bo'yoq, suv, bo'yoqqa qo'shimcha ashyolar) va muallifning ijodkorlik xususiyatlari orqali aniqlanadi. Tizimdagи birinchi tarkibni avvaldan tahlil qilish, tizimlash, va hatto aniq belgioash ham mumkin (har xil sintetik va tabiiy qo'shimchalardan foydalanib

yaratilayotgan ishning texnik natijalarini avvaldan aniqlasa bo'ladi), ikkinchi faktor butunlay rassomning xarakter xususiyatlari va birinchi navbatda uning improvizatsion qobiliyati va tafakkur kengligiga bog'liq. Badiiy ta'lim amaliyotida bu ikki faktor ajralmasdir.

Akvarel rangtasviri ranglar qatlamining keng diapazondagi shaffoflik (tasvirlash jarayonidagi qog'ozning o'rni) xususiyati va suvli bo'yoqning yoyilishi, harakati, ta'sirchanligi bilan xarakterlanadi. Aynan mana shu sifatlar akvarelning xususiyatini aniqlab beradi. Zamonaviy akvarel rangtasviri rassomdan nafaqat rangtasvirning akademik qonun-qoidalari to'g'risidagi bilimlar, balki rangtasvir ishslash jarayonidagi harakat va tezkor obratzli fikrlashni ham talab qiladi. Akvarelning yoyiluvchanligi natijasida paydo bo'ladigan texnik effektlar muallif tomonidan oldindan aniq belgilanishining iloji yo'q. O'ziga xosligi, betakrorligi, oldindan aytib bo'lmasligi, bu akvarelning eng noyob sifatlari hisoblanadi. Oxirgi natijani ko'zdan qochirmagan holda ishslash, asosiy g'oyani saqlash bilan birga vazifaga tuzatishlar kirita olish akvarelchi rassom uchun eng zarur mahorat sanaladi. Boshqa texnika va materiallardan foydalanib akvareldagi obrazlarni bajarib bo'lmasligi akvarelning qanchalik noyob ekanligi va uning tasviriy san'at morfologiyasi tizimida mustaqil tur sifatida ahamiyati katta ekanligining isboti bo'lib turibdi. Zamonaviy an'analar asosida akvarel rangtasvirining rivojlanishi badiiy ta'limdagi har xil mutaxassislikdagi rassomlar tayyorlanadigan o'quv jarayonlarida qo'llash imkoniyatini kengaytiradi.

Akvarel – maxsus badiiy ta'lim tizimida keng qo'llaniladigan rangtasvir turlaridan biri hisoblanadi. Bu eng avvalo tasvirlash asoslari haqidagi bilimlarni o'zlashtirish, ranglar uyg'unligini yaratish, rang-tusga oid kompozitsiyalar tuzish, uch o'lchamlilik, fazoviylik, materiallik va boshqa ko'rinishlarni ifodalash jarayonida ishlatish uchun nisbatan qulayligi bilan izohlanadi.

## RANGTASVIR ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Rangtasvir bo'yicha amaliy vazifalar san'at bilan uzluksiz bog'langan nazariy ilmiy bilimlarni amalda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi asosiga quriladi. Tasvirlashning nazariy asoslarni tizimli va bosqichma-bosqich o'rganish tasviriy san'atni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Boshlovchi rassom faqat kasbiy mahoratning mustahkam nazariy asosiga tayangan holdagina amaliy ko'nikmalarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishi va ijod bilan shug'ullanishi mumkin.

O'quv jarayonida avvalo tus va rang nisbatlari qonuniyatları va ularni aniqlash metodikasi, hamda rangshunoslik va optika qonunlari, perspektiva va plastik anatomiya, rangtasvir texnikasi va texnologiyasi, idrok qilish va tekislikda hajmni, materiallikni va tasvirlanayotgan buyumlarning fazoviylik sifatlarini ifodalash, tasvirga tus va rang jihatdan yaxlitlik va umumiylilikni bera olish ko'nikmalarini o'zlashtirishlari lozim. Aynan shu malaka va ko'nikmalar rangtasvirni o'rganishning nazariy asoslari mazmunini tashkil etishi zarur.

Dasturda belgilangan kursni o'zlashtirish natijasida boshlovchi rassomlar mustaqil ishlashlari uchun zarur bo'ladigan tasvirlash asoslar bo'yicha mustahkam bilimga ega bo'lishlari talab etiladi.

### **Rangtasvida qalamtasvirning ahamiyati**

Tasviriy san'at mutaxassisligi bo'yicha ta'lim berish qalamtasvir, rangtasvir, kompozitsiya kabi boshqa fanlar bilan parallel ravishda olib boriladi. Agar talabalar avvaldan qalamtasvirdan buyumlarni perspektiv va konstruktiv qurish, tusni mahorat bilan ifodalash, hajmdorlik, buyumlardagi fazoviylik va materiallik sifatlarini hisobga olish va ularning nisbatlarini bera olishni o'rganganlaridan keyin rangtasvirni o'rganish yaxshi natijalar beradi.

Ranlavhalarda plastik shakllarni ifodalash asosiy vazifa bo'lib , uni tushunish esa o'quv akademik qalamtasvirni o'zlashtirish jarayonida shakllanadi. SHuning uchun bunday qalamtasvirlar nafaqat boshlanmasi balki rangtasvirni o'rganishning asosi hisoblanadi.

Haqiqiy rangtasvir – bu tus, rang va suratning o'zaro uyg'unligidir. SHakl to'g'ri topilib, surat perspektiv qurilgandan keyin rangning fazoviy xususiyatlari kuchga kiradi, ular fazoviylikni ham, hajmni ham, materiallikni ham ifodalaydi. Ko'pgina badiiy maktablar tajribasida ta'limning boshlang'ich bosqichlarida avvalo qalamtasvir bo'yicha asosiy tayyorgarlikka ega bo'lishga intilish zarur ekanligi o'z isbotini topgan. Faqat shundagina kelgusidagi rangtasvirni o'rganishlari nisbaan oson kechadi.

O'quv jarayonida rangtasvida ishlashga o'tish uchun qalamtasvirdan har bir boshlovchi rassom egallashi lozim bo'lgan o'sha minimal malakalar belgilab berilgan.

Qalamtasvirdan boshlang'ich kurs ham nazariy bilimlar, ham amaliy malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi savollarga

1. kuzatilayotgan perspektiva elementlari (gorizont chizig'i, gorizontal chiziqlar va yassi buyumlar perspektivasi). Tekisliklari cheklangan buyumlarning konstruktiv va perspektiv qurilishi (kub, prizma, interer va h. k.).

2. Silindrik shaklli buyumlarning perspektiv qurilishi tamoyillari.

3. Geometrik buyumlarning yorug'-soyasi (shar, silindr va kubdagi yorug'-soya ko'lamlari, fazoviy perspektiva elementlari).

4. Qalamtasvida hajm, materiallik va fazoviylikni berish usullari (har xil materiallarning yorug'-soya xususiyatlari, tus nisbatlari, hajm, materiallik va fazoviylikni ifodalashda chiziqlar va shtirixning ahamiyati).

Tasviriy san'atni o'rganish uchun bu barcha elementar savolarga nafaqat nazariy bilim, balki qalamtasvida amaliy qo'llash ko'nikmalarini egallah: yorug'-soya muhitida buyumlarni tasvirlashda nisbatlarni ko'rish, perspektiv qisqarishlarni sezish, qog'oz yuzasida tasvirni konstruktiv qurish va joylashtirish, hajmli shaklni yorug'-soyalar bilan qura olish, qalamda tusni ifodalash. Ayniqsa rang bilan ishlashga o'tishda bularning oxirgisi juda muhim. SHaklni rangda ifodalash rang va tus nisbatlari uyg'unligiga asoslanadi. Hajm, material va fazoviylikni berishda tusning ahamiyatini tushunmaslik ko'pgina rangtasvir vazifalarni bajarishni qiyinlashtirishi mumkin.

## **YOrug'likning rangni idrok etishga ta'siri**

Qalamtasvirni ranglar bilan qo'shib shaklni boyitish rangtasvirning ajoyib xususiyati hisoblanib, rangtasvir ham qalamtasvir singari shaklni qurishning qat'iy qonun-qoidalariga asoslanadi. Rangtasvirni o'rganish – bu shakllarni rangda qurish vositalari va usullarini o'rganish demakdir. Tekislikda atrof muhit bilan bog'liq ravishda buyum shakli rangini ko'ra olish va to'g'ri ifodalash – ta'limning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Rang rassom tushunchasida nimani anglatadi? YOritolayotgan quyosh nuri ta'siriga bog'liq ravishda buyum sirtida aks etib tomashabinda ma'lum bir his uyg'otadigan buyumning bashqi ko'rinishi. Tabiatda barcha buyumlar rangli ko'rinishga ega bo'ladi (osmon – moviy, o'tlar – yashil, qor – oppoq va h.k.) buyumga tegishli tabiiy rang uning tarkibini ifodalaydi. Bunday ranglar buyumning asl rangi yoki lokal rang deb aytildi.

Odatda amaliy ishlayotganda rassom buyumning asl rangi emas, balki ma'lum bir muhitda idrok qilayotgan rangdan foydalanadi. Rangtasvirchi tomonidan idrok qilinayotgan lokal rang va idrok qilinatgan rang bir xilda emas. Boshlovchi rassomlar rangtasvir ishlaganlarida ko'pincha oddiy bo'yoqchilik ishi bo'lib qoladigan buyumning asl rangi bilan bo'yashadi. Buyum shaklini uning asl rangida emas, balki ranglar nisbatini atrof-muhitdag'i yorug'lik ta'sirida o'zgargan ranglarda mahorat bilan tasvirlash mumkin.

Rangtasvir ishlash jarayonida rangni idrok qilishimizda yorug'likning ta'siri kuchli ekanligini unutmasligimiz kerak. YOrug'lik, fazoviylik, atrofdagi ranglar va yorug'lik manbaalari ranglarning o'zgarishiga olib keladigan asosiy faktorlar hisoblanadi. Idrok qilinayotgan ranglarga ta'sir ko'rsatib unda buyum rangidan farq qiluvchi har xil ranglar ko'lamenti hosil qiladi. muhitda idrok qilinadigan ranglar shartli ranglar deb ataladi. U buyum rangiga qaraganda ancha murakkab va harakatchan. Muhitning o'zgarishi buyumlarda kuzatilayotgan ranglarning ham o'zgarishiga olib keladi. Aynan shunday ranglar rangtasvirning asosiy tasvirlash vositasi hisoblanadi.

Naturadan qarab ishlaganda rassomdan tasvirning ranglariga ta'sir ko'rsatishini va uning sabablarini sezish talab qilinadi. Ranglarni nisbatlarda olish metodi – naturadagi obrazni muvaffaqiyatlari yaratishning eng yaxshi usuli hisoblanadi. Bir buyumni ikkinchisi bilan solishtirib, yorug' va soyalardagi rang surtmalar farqini to'g'ri aniqlashtiribgina naturani jonli ifodalashga erishish mumkin.

YOrug'lik rangni idrok qilishning asosiy sharti hisoblanadi. YOrug'likning har xil manbaalari spektr tarkibi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. sun'iy yorug'likda (elektr lampasi) qizil, zarg'aldoq, sariq kabi iliq ranglar kuchli bo'ladi. Unda ko'k ranglar juda oz miqdorda bo'ladi. SHuning uchun bunday yoritilganda ob'ektlar sariq yoki zarg'aldoq tuslarda bo'ladi. dnevnoy chiroqlarda esa aksincha sovuq ko'k yoki pushti ranglar kuchli bo'ladi. yorug'lik sun'iy bo'lganligi uchun shuning uchun sovuq tuslar kuchayib, iliq tusdagi ranglar yo'qoladi. Sun'iy yorug'lik kuzatilayotgan naturada yorug'-soya nisbatlarining butun ko'lamenti bera olmaydi. SHuning uchun o'quv mashg'ulotlarida natyurmort qo'yilmalari tabiiy yorug'likda bajarish talab etiladi.

Quyosh nuri oqish yorug'lik taratadi. Oq rang butun ranglar aks etadigan spektrdag'i barcha ranglarning optik aralashuvi natijasi bo'lsa; yuzaga tushib turgan spektrning barcha ranglarining butunlay so'nishi natijasida qora rang hosil bo'ladi. lekin bu faqat nazariya, amalda esa umuman boshqacha ekanligini ko'ramiz. Palitrada spektrdag'i barcha ranglarni aralashtirganimizda oq rang emas, balki kulrang hosil bo'ladi. xuddi shuningdek biz sof qora rangni ham uchratmaymiz, shunday ekan tabiatda ranglarning butunlay so'nishi yoki aks etishi mumkin emas degan xulos achiqadi. Oq va qora ranglar tarkibi amalda ko'plab rang-tuslardan tashkil topganligini kuzatish mumkin. Natyurmort rangtasviri ishlayotganda buni unutmaslik kerak, chunki oq va qora buyumlarga ishlov berar ekan ko'pincha talabalar oq va qora ranglarni sof holda qo'llab rangtasvirda ko'p xatolarga yo'l qo'yishadi. –

Ushbu ranglar to'g'ridan-to'g'ri tushgan yoki nur qaytishi natijasida qaytib buyumda aks etgan yorug'lik ta'sirida har xil tuslarda bo'ladi va bu holatda boshlovchi rassomning asosiy vazifasi ranglarni to'g'ri idrok etish va tasvirda ifodalashdan iborat bo'ladi.

### **Rangning asosiy xususiyatlari**

Tabiatda har doim ba'zi buyumlar yorug'lik nurini yutadi, ba'zilari esa qaytaradi. Quyosh nurini butunlay qaytargan buyumlar oq yoki kulrang tusda, spektrdag'i nuring batamom so'nishida esa qora rangda qabul qilinadi. Bo'lg'usi rassomlar uchun yana shuni bilib qo'yish foydaliki, yorug' kunda mashq qilgan ko'z rangning 180 tusini, to'qligining 10 pog'onasini farqlay oladi. Tafakkuri kamol topgan inson ko'zi rang tuslardan taxminan 360 tasini farqlay oladi.

Ranglar tusiga ega bo'limgan va bir-biridan faqat och-to'qligi bilan farqlanadigan oq, kulrang va qora ranglar axromatik ranglar deb ataladi. Axromatik ranglar faqat yorqinlik bilan tavsiflanadi. YOrqinlik bo'yicha farqlar ba'zi ranglarning ochroq, ba'zilarining esa to'qroqligidadir. Buyum shakli sirtidagi ranglarning har xil nozik turlanishi, tus o'zgarishlari natijasida ularning hajmini kuzatamiz, bizdan qanday darajadagi uzoqlikda joylashganligini his qilamiz, shu bilan masofa, perspektiva haqida tushunchaga ega bo'lamiz. Buyumlardagi tuslarni ko'rish va ajratish ranglarni aniqlashga qaraganda ancha qiyinroq. Tuslarni yaxshi ajratishga o'rgangan rassom xilma – xil ranglar, ularning och to'qlik darajada turlanishini ko'ra olish, his qilishda qiyalmaydi.

Axromatik ranglar xolis ranglar bo'lishiga qaramasdan rassomning amaliy ishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulardan foydalanish hisobiga rangtasvirda boshqa ranglarning jarangdorligini kuchaytirish yoki pasaytirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Axromatik ranglarga boshqa ranglarni aralashtirib rangtasvirda kerakli to'yinganlik va ochlik darajasiga erishishimiz mumkin. Undan tashqari qora rangni boshqa ranglar bilan aralashtirib yangi ranglar hosil qilish mumkin (m.n: sariq rang aralashtirib yashil rangni hosil qilinadi).

Oq, kulrang va qora ranglardan tashqari - qizil, to'q sariq, sariq, yashil, havo rang (yoki zangori, moviy), ko'k, binafsha (fiolet) ranglar va barcha ularning oraliq rang tuslari xromatik ranglar hisoblanadi. Bu ranglarning yorqinligi axromatik rang bo'lgan kulrangdan boshqachaligi bilan farqlanadi va axromatik ranglarga tegishli

sifatdir. Uni oqishlik bilan adashtirmaslik kerak (narsalar, buyumlarning rang sifatlari).

Agar bir xromatik rangga kulrang qo'shilsa, u xira tortib, och-to'qligi o'zgaradi. Ranglar iliq yoki sovuq ranglar bo'lishi mumkin. Axromatik ranglarga nisbatan aksincha, xromatik ranglar bir-biridan bo'yoqning ranglilik darajasi bilan farq qiladi. SHuningdek natyurmort ishlash jarayonida yana qarama-qarshi ranglarga ham duch kelamiz. Har qanday axromatik rang to'q ranglar orasida ocharib ko'rinsa, och ranglar orasida esa to'qlashib ko'rindi. Bu tus kontrastlari deyiladi. YOnidagi rang ta'sirida rang tusi o'zgarishi rang kontrasti deyiladi. Spektrdag'i ba'zi ranglardagi tus juda to'q, ba'zilari esa juda och ko'rinishda bo'ladi.

Mavjud bo'yoqlar nisbatini ko'p yoki oz miqdorda qo'shib aralashtirish natijasida barcha kerakli tusdagi rang ko'lamlarini hosil qilish mumkin. Bo'yoqlar rangi singari tabiatda uchraydigan har bir rang - rang-tusi, och-to'qligi va to'yinganlik kabi uchta asosiy xususiyatga ega. Ranglarni spektrdag'i qizil, ko'k, sariq kabi bironta rangga nisbatan solishtirish natijasida bu ranglarning **rang-tus** sifati aniqlanadi.

Tusni aniqlashda yo'l qo'yilgan xato noto'g'ri rang berishga olib keladi, shuning uchun tusni to'g'ri idrok qilish rassomning asosiy vazifasi sanaladi. Bundan ham ko'rini turibdiki rang va tus o'zaro bir-biriga bog'liq tushunchalardir. Rassom uchun asar yaratishda shakl bilan birga mazmunni rangda ifodalash ham muhim ahamiyatga ega. SHu bilan birgalikda yaxshi asar yaratish uchun maqsadning o'zi yetarli emas (eng yomon san'at asarlari jiddiy kishilar tomonidan yaratilishini esdan chiqarmaslik lozim). San'atda yaxshi g'oya va jiddiy maqsad bu hali yutuq degani emas. Asar yaratish uchun ular muhim hisoblanmaydi.

G'oyani rangda ifodalash ham eng muhimlardan biridir. Inson bajargan har bir ijodiy ish bu qandaydir darajadagi bir asar. Badiiy asarning o'zi qanday muammo ifodalanganligidan qat'iy nazar "alohida asar" sifatida e'tiborga molik bo'lishi kerak.<sup>6</sup>

**Oqishlik** – bu qoraga nisbatan ushbu rangning oq rangga yaqinlashishi, ochlik darajasi. Masalan, sariq rang va uning rang tusi (ottenkasi) jigar rang, binafsha rang va ko'k ranglarga nisbatan sezilarli darajada oqishroqdir. Oqishlik ranglar to'yinganligiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikda joylashishi (bo'lishi) mumkin (masalan, yorug'lik va to'q-qizil pomidor). Ranglar oqishligi buyumning qaysi fonda qaralishiga ham bog'liq bo'ladi. Oqishligi (yoki yorug'ligi) bo'yicha ko'rinvuvchi ranglarga baho bera olish va ularning farqlarini ko'rsatib bera olish rassomning turli xil grafik texnikalarda qalam bilan rasm chizishida ham, rangtasvirdagi amaliy faoliyatida ham o'ta muhimdir.

**To'yinganlik** – bu xromatik ranglarning o'zidagi yorug'ligi, ochroqligi bo'yicha kul rangdan farqlanib, uning spektr ranglarga yaqinlashuv darajasidir. To'yinganlik etaloni sifatida spektr ranglar qabul qilingan. Tabiatning rangi spektr rangiga qanchalik yaqinlashsa va uning farqi kul rangdan qanchalik kuchliroq bo'lsa, u shunchalik to'yingan hisoblanadi.


<sup>6</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s-18

Tabiatda tashqi muhitning ta'siri natijasida ranglardagi och-to'qlik, rang-tus va to'yinganlik darajasi kabi uch xil belgilari bo'yicha ranglarning o'zgarishini kuzatamiz. Agar ushbu belgilardan atigi bittasini noto'g'ri ifodalash tasvirlanayotgan naturaning ranglar xususiyatining buzilishiga olib keladi.


U yoki bu rang aralashmasini tayyorlash uchun rassom aralashtirilayotgan har bir rang qanday xususiyatga ega ekanligini bilishi zarur.

Agar xromatik rangga har xil och-to'qlikdagi (oq, kulrang, qora) axromatik ranglar qo'shilganda undagi och-to'qlik darajasi bilan birgalikda uning to'yinganlik darajasi ham o'zgaradi. Boshqa rang yoki tuslar aralashtirilmagan bo'yoqlar "sof ranglar" deb tushiniladi. SHuning uchun spektrdagি faqat uchta: qizil, ko'k va sariq ranglarnigina sof ranglar deb atashimiz mumkin.

Uchta asosiy ranglarni optik aralashtirish natijasida oq rang, ulardan ikkisini aralashtirilganda esa boshqa xromatik ranglar (masalan, sariq va ko'k - yashil) hosil bo'ladi. Toza spektr ranglar tizimi ranglar doirasini ifodalaydi. (1-rasm).



**Ranglarning asosiy xususiyatlari:** a – rang-tus, b – to'yinganlik, v- och-to'qlik



**1-rasm.**

Ranglarni bir-biri bilan aralashtirish mexanik va optik ko'rinishda bo'ladi. Bu jarayonda aralashtirilayotgan bo'yoqlar rang-tus, to'yinganlik va och-to'qlik kabi o'z xususiyatlarini o'zgartirishi mumkin.

### **Ranglarni aralashtirish**

Rangtasvirni o'rganishning boshlang'ich bosqichlaridagi rangtasvir nazariyasi va amaliyoti jarayonida eng asosiy muamolardan biri – bu bo'yoqlarni aralashtirib rang tayyorlash hisoblanadi. Ranglarni optik aralashtirishning uchta asosiy qonuni mavjud.


Birinchi qonuni: ranglar doirasidagi qarama-qarshi joylashgan (aylana markaziga nisbatan) har qanday ranglar aralashtirilganda axromatik ranglar hosil bo'ladi. Bunday ranglar ***qo'shimcha ranglar*** deb ataladi. O'zaro qo'shimcha ranglar qizilga – yashil, sariqqa – ko'k va h.k. qat'iy belgilangan

*Ikkinci qonuni: amaliy ahamiyatga ega bo'lib, ranglar doirasidagi bir-biriga yaqin joylashgan ranglarni aralashtirilganda aralashtirilgan ranglar o'rtasida yangi rang hissini beradi. Masalan, qizilning sariq bilan aralashmasi zarg'aldoq, sariqni ko'k bilan aralashtirilganda esa yashil rang hosil bo'ladi. Uchta asosiy (qizil, sariq, ko'k) ranglarni har xil miqdordagi nisbatlarda aralashtirish yo'li bilan optik effektga ega bo'lgan har qanday rangni tayyorlash mumkin.*

*Uchinchi qonun bir xil ranglar bir xil aralashmalarni beradi. Ba'zan tuslari bir xil, lekin to'yinganligi har xil bo'lgan ranglar hamda xromatik va axromatik ranglar aralashtirilganda optik ayiruv effektiga erishish mumkin.*

Rangtasvirda kerakli rangni har xil usullar bilan olish mumkin. Masalan, bo'yoqni aralashtirmay toza holda boshqa ranglar oldiga qo'yib yoki ikki yoki uch xil bo'yoqni aralashtirib ham kerakli rangni hosil qilsa bo'ladi.

Bo'yoqlarni bir-biri bilan mexanik va optik yo'llar bilan ham aralashtirish mumkin. (1-2 jadvalga qarang). Bunday aralashtirish bo'yoqlardagi rang-tus, to'yinganlik va och-to'qlik xususiyatlarini ham o'zgartirib yuboradi.



### **Ranglarni mexanik aralashtirish natijalari.**

Ranglarni optik va mexanik aralashishishda tabiatdagi bo'yoqlar xususiyatiga bog'liq ba'zi farqlari mavjud. Bo'yoqlarni optik va mexanik va mexanik aralashtirish natijasini ko'z oldimizga keltirishimiz uchun quyidagi aylanayotgan diskda sariq va ko'k ranglarning aralashmasi axromatik rang bo'lgan kulrang tusni beradi, aynan shu ranglar birgalikda mexanik aralashtirilganda yashil rang hosil bo'lishiga guvoh bo'lamiz.

Bo'yoqlarni aralashtirishda nafaqat rang xususiyatlari, balki aralashtirishning uch xil tarkibini hisobga olish kerak bo'ladi.

- 1) Mayda rang surtmalarining mozaika usulida qo'llanilishi (ranglarni optik aralashtirish);
- 2) Bo'yoqlarni oddiy palitrada aralashtirish usuli;

3) Bo'yoqlarni bir-birining ustidan bir necha qatlamda qo'yish – lessirovka usuli.

Kimyoviy tarkibi bo'yicha bir turdag'i yoki har turdag'i bo'yoqlar aralashmasi bo'lishi mumkin. Lessirovka, yarim lessirovka yoki korpusli rangtasvir bitta guruh ichidagi bo'lib – bu usullarda ranglar och-to'qlik va rang-tus bo'yicha bosqichma-bosqich bir tekisda beriladi. Lessirovka va korpusli usullarning aralashmasi har xil turdag'i bo'yoqlar turini paydo qiladi; bunda bo'yoq notekis izlar va uzilishlar bilan yopiladi, ulardagi yorug'likka bardoshlik susayadi. YArim lessirovka guruhiiga kiruvchi ranglar lessirovkali va korpusli rangtasvir usullari bilan ham yaxshi kelishadi.

Akvarelda ishlovchi boshlovchi rassom uchun bo'yoq qurigandan keyin rang to'yinganligining ko'p yoki oz darajada yo'qolishi hamda ocharish xususiyatlarini hisobga olishi zarur bo'ladi.

O'tkir va to'yingan ranglar hosil qilishi uchun kuchli rangdorlik xususiyatiga ega bo'yoqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### **Iliq va sovuq ranglar**

Ranglarning iliq va sovuq ranglarga ajratilishi rangtasvirda muhim ahamiyat kasb etadi. Bizning idrokimizda quyosh rangi, olov, issiqlik taftini beruvchi ranglar iliq ranglarga kiradi. Qor, muz, suvni eslatib sovuqlik hissini beruvchi ranglar esa sovuq ranglar deb ataladi.

Ranglar borasida iliq va sovuq ranglar bir-biriga qarama-qarshi ranglar hisoblanadi. Bu ranglar yonma-yon joylashganda o'zaro qarama-qarshilik hissini beradi. Sovq ranglar iliq ranglar o'rtasida jarangdorlik kasb etadi. Sovuq ranglar o'rtasida joylashgan iliq ranglar ham xuddi shunday hissiyor beradi.

Iliq va sovuq ranglar o'rtasidagi bunday munosabatdan rassomlar rangtasvirning jozibadorlik imkoniyati sifatida foydalanishadi. Ranglar qarama-qarshiligiga tayangan holda u yoki bu rangga kerakli tusni berish mumkin. Agar sovuq rangni iliq rang bilan aralashtirilganda u o'zining rang-tusini o'zgatririb iliqroq tusga kiradi. SHu yo'l bilan alohida ranglarni har xil nisbatlarda olib uni kerakli iliq yoki sovuq tuslarda ifodalashimiz mumkin.

Iliq va sovuq ranglar yana bir muhim xususiyatga ega bo'ladi. iliq ranglar sovuq ranglar qurshovida oldinga chiqib kelayoyotganga o'xshaydi. Masalan, ko'k buyumlar biln yonma-yon qo'yilgan qizil buyum oldinga bo'rtib chiqadi. sovuq ranglar aksincha uzoqlashayotgandek tuyuladi. O'quv vazifalarini bajarishda ranglarning bu xususiyatlarini hisobga olishga to'g'ri keladi.


YOrug'-soya, havo perspektivasi, kun holatini ko'rsatish kabi fazoviy nisbatlarni ifodalashda iliq va sovuq ranglarning bunday qarama-qarshi xususiyatlaridan foydalaniladi. Intererdag'i yoyilgan nur ta'sirida o'quv qo'yimasining yorug' qismi sovuq, qarama-qarshilik hosil bo'lishi va atrofdagi reflekslar ta'sirida soya qismi esa iliq tuslarda bo'ladi.

Iliq va sovuq tuslarning o'zaro uyg'unligi rangtasvird uchun muhim koloristik jarangdorlikni ifodalashga xizmat qiladi.


## Kontrastlar

Ish jarayonida rassomga bir rang yoniga qo'yilgan boshqa rang o'zining yorqinligini yo'qotishi yoki yanada yorqinlashishi mumkin. Bu xususiyat kontrastlik deb ataladi.

Kontrastlar ikki xil: axromatik (och-to'qlik) va xromatik (rangdorlik) turlariga bo'linadi. Har bir ko'rsatilgan turlardan o'z navbatida bir vaqtning o'zidagi kontrastlik, o'zaro to'ldiruvchi ranglar kontrasti, to'yinganlik, bosqichli va chegarali yoki chetki kontrastlarga bo'linadi. (2, 3, 4 suratlar).




Axromatik ranglar ko'lami




Axromatik (qora) rangning xromatik rang bilan kontrasti  
2 rasm

Axromatik kontrastlar mazmuni shundan iboratki to'q fondagi och dog' yanada ochroq ko'rindi, och fondagi to'q dog'lar asliga nisbatan yanada to'qroq ko'rindi. Undan tashqari to'q fondagi och dog' asliga nisbatan kattaroq, aksincha to'q dog' och fonda o'z o'lchamidan kichikroq bo'lib tuyuladi. Och dog' qancha kichik bo'lsa uning yorug'ligi shunchalik kuchliroq bo'ladi. Ish jarayonida ortiqcha dog'lardan xoli bo'lishi uchun bu holatni hisobga olishga to'g'ri keladi.

Bir vaqtgagi rang kontrasti ikki xromatik yoki axromatik va xromatik ranglarning bir-biriga ta'siri natijasida ham paydo bo'ladi. Qizil fondagi kulrang dog' yashilsimon ko'rinishga ega bo'lsa, sariq fonda ko'kish, yashil fonda pushti rangda ko'rindi. Faqatgina och-to'qligi o'zgarmay balki rang-tusi va to'yinganligi ham o'zgaradigan, axromatik ranglarda esa rangdor tuslar paydo bo'ladigan kontrast turlari xromatik kontrastlik deb ataladi.



**Och- to'qligi o'zgaradigan axromatik kontrastlar**



**Monoxromatik kontrastlik  
3 rasm**

O'zaro to'ldiruvchi ranglar kontrasti paydo bo'lishi o'ziga xos ko'rinishga ega. Ularni solishtirilganda yangi ranglar paydo bo'lmasdan faqatgina ularning to'yinganligi va yorqinligi yoki och-to'qligingina o'zgaradi.


Axromatik ranglarni xromatik ranglar bilan qarama-qarshi qo'yilganda to'yinganlik kontrastini sezish mumkin. Bu faol ranglar jarangdorligiga erishish imkoniyatini yaratadi.

Bosqichli kontrast qandaydir yorqin dog' yoki rangni uzoq vaqt idrok qilish orqali paydo bo'ladi. Masalan, yorqin qizil dog'ga uzoq tikilib turib, keyin ko'z qarashini oq yuzaga qaratilganda, bir oz vaqt o'tib unda o'sha shakldagi och yashil dog' paydo bo'lganini kuzatish mumkin. Bosqichli kontrastda avval ko'rgan rangimizga qo'shimcha kam to'yingan rang hosil bo'ladi.


Agar uzoq tikilib qarash buyumning tomashabin idrok qilishida ko'zning ko'nikib qolishiga ham olib kelishi mumkin. Ranglarga ko'nikishda yorug'lik xuddi xiralashgandek tuyuladi. eng ko'p vaqt ko'nikib qolish qizil va siyohranglarda, eng ozi sariq va yashil ranglarda yuz beradi. CHegara kontrasti bir joyda joylashagan qarama-qarshi ranglarda yuzaga keladi. YOrug' qismning to'q joyga yaqin joylari undan uzoqlashgan qismiga nisbatan ochroq ko'rinish unga hajmdorlik effektini beradi

Xromatik kontrastda yonma-yon turgan ranglarning chetlari o'zgaradi: qizil rangning yonida turgan sariq rang surtmasining rangi ozroq yashilsimon tusda bo'ladi, lekin u qizildan uzoqlashgan sayin undagi chegara kontrasti effekti pasayadi.

Ranglar hususiyatini bilish va undan to'g'ri foydalanish rangtasvirni o'rganishning muhim jihatni hisoblanadi.



**Rang-tus bo'yicha kontrastlik**



### **Qo'shimcha ranglar kontrasti 4-rasm.**

#### **SHaklni rangda ifodalash**

Buyum rangi uning butun sirtida har doim bir xilda o'zgarmas bo'lmaydi. YOrug' tushib turgan qism, soya, yarim soya va reflekslar asosiy rangning har xil o'zgargan ko'rinishlarida bo'ladi. YOrug'lik nuri ta'siri ostida yorug'lik tushib turgan va soya qismlarida buyum rangi bir necha rang-tus ko'lamlariga ajraladi.

Buyumning yorug'lik tushib turgan qismiga nisbatan ko'p yorug'lik nuri tushib turgani uchun yorqin ko'rinishda bo'lib, uning rangi ushbu yoritish manbai xususiyatiga muvofiq ko'rinishida bo'ladi. Auditoriyaga yoyilib tushayotgan kunduzgi yorug'likda buyumning yoritilgan qismi sovuq tus kasb etadi. Sun'iy va quyosh nuridan taralayotgan yorug'lik buyum sirtida iliq tusda aks etadi. Sovuq tusda yoritilgan ob'ektlarning soya qismi iliq tusda ko'rindi. Undan tashqari unga devor, potolok, yaqin turgan buyumlar dan qaytib aks etayotgan ranglar ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Xususiy soya va tushib turgan soyalar rang-tus xususiyatini uning atrofidagi ranglar belgilaydi.

YArimsoya – yorug'lik va soya o'rtasida joylashadi va ma'lum darajada buyumning asl (lokal) rangini saqlab qoladi. O'tkir kontrast yoritilganda yarimsoyadagi yorug'-soya kontrasti kuchayib uni idrok qilish murakkablashadi. Bu vaqtida u ma'lum darajada to'yinganligini yo'qotib ozgina lokal rang saqlangan holda sezilarli darajada kulrangga yaqinlashadi.

Har qanday buyumning tushib turgan va xususiy soyalar atrofdan tushib turgan reflekslar bilan to'yinadi. Tasvirda rang-tuslari to'g'ri va aniq ifodalangan reflekslar shaklga hajmdorlik berib natyurmortdagi buyumlar o'rtasida o'zaro uyg'unlikni ta'minlaydi. Rangtasvir to'g'ri bajarilishi natijasida kompozitsiyada o'ziga xos shaffoflik, rangdorlik xususiyatlari kuchayadi.

Buyumlarni tasvirlar ekanmiz biz avvalo buyumlar joylashgan fazoviy muhit va ularning shaklini ham ifodalashga urinamiz.

SHakl – bu fazoviylikning ma'lum qismi. Fazoviylikni to'g'ri ifodalash uchun rassomda fazoviy tafakkur va tasavvuri yaxshi rivojlangan bo'lisi zarur.

Tasviriy san'atda shaklini ifodalash muammosi nimadan iborat?

Birinchidan u yoki bu shakl qurilishining o'ziga xos xususiyatlarini ko'ra olish va idrok qilishni o'rganish.

Ikkinchidan ikki o'lchamli tekislikda bu uch o'lchamli shaklini tasvirlashni o'rganish.

Birinchi holat bo'yicha talabandan naturani maqsadli kuzatish, undan asosiysini ajratib olish, buyumning xarakterli xususiyatlari va shaklini qurish qonunlarini yaxshi tushunish va metodik ketma-ketlikda bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi qo'yiladi.

Ikkinci holat bo'yicha esa tasviriy san'at asoslarini o'rganish bilan bog'liq bo'lган ikki o'lchamli tekislikda uch o'lchamli shaklini qurish ko'nikmalarini egallash vazifasi qo'yiladi.

### **3. AKVAREL RANGTASVIRI UCHUN KERAKLI ASHYOLAR**

Mo'yqalam, bo'yoq, qog'oz va suv. Bir qaraganda rangtasvir ishlash uchun juda oddiy tanlovdek ko'rindi. Lekin, ular bilan qanday ajoyib, hayratlanarli, sehrgarlik ishini amalga oshirish mumkin. Asosiysi – ulardan qanday va aniq foydalanishni bilish kerak xolos.

Rangtasvirni amalda o'rganish akvarel bo'yog'ida ishlashdan boshlanadi. O'quv dasturlarida bu bo'yoqda ishlash uchun muhim qism ajratilgan. Talabalar akvarel texnikasida ko'plab oddiydan (geometrik jismlar, maishiy buyumlar, meva va sabzavotlar va h.k.) nisatan murakkab (natyurmort, manzara, portret) kabi har xil vazifalar bajarishadi. SHuningdek mustaqil ijodiy ishlar, bitiruv malakaviy ishlar uchun kompozitsiya eskizlari bajarishda ham akvarel keng qo'llaniladi. Rangtasvirni ishlashni o'rganishning boshlang'ich bosqichlarida akvarelda rangtasvir ishlash mahoratiga ega bo'lasiz.

Bularning barchasi talabalardan akvarel rangtasvirini nisbatan chuqur o'rganish, turli material va texnikalarda ishlash usullarini egallashni talab etadi. Ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish bo'lajak ijodkorlarga o'zlarining ijodiy fikrlarini amaliyatda keng qo'llash, yuqori badiiy qimmatga ega bo'lган ijodiy asarlar yaratishda yordam beradi. Bu bevosita o'quv vazifalari bajarish jarayoniga ham tegishli.

Texnologiya masalalariga befarq qarash, rangtasvir vositalaridan foydalanish kasbiy madaniyatiga yetarli darajada e'tibor bermaslik bo'lajak rassom-pedagoglar tayyorlash sifatini pasaytiradi. Akvarelni o'rganishning boshlang'ich bosqichlarida talabalar o'z mehnatlariga nisbatan kasbiy javobgarlik hissini tuyushi, badiiy vositalar tanlashda talabchan bo'lishi, rangtasvirning barcha qonun-qoidalariga qat'iy amal qilishlari talab etiladi. Fan sifatida birinchi kurs talabalariga

materiallar texnologiyasi bo'yicha texnik yordam ko'rsatish rangtasvirning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Badiiy ashyolar texnologiyasi rang tayyorlash, bo'yoqlar tarkibi va sifati, rangtasvir uchun asoslarni o'rganishga xizmat qiladi.

Akvarel rangtasvirida ishslash uchun kerak bo'ladigan materiallar:

1. Akvarel bo'yog'i, asosiy naborda: 24 ta rang, Belie noch, Sankt-Peterburg, Leningrad (Nevskaya palitra);
2. Qog'oz A3 (~30×42), 300 gr/m<sup>2</sup>. Tavsiya etiladigan ishlab chiqaruvchilar: Fabriano, Canson, Arches,Clairfontaine, Hahnemuhle, Saunders Waterford;
3. Planshet, 40×60;
4. Bo'yoqchilar skotchi 1,5–2 sm;
5. Suv uchun idish;
6. Qog'oz sochiq;
7. Plastik palitra yoki oq chinni tarelka;
8. Pulverizator;
9. HB markali oddiy qalam;
10. O'chirg'ich;
11. Belila (akril yoki guash) yoki oq marker;
12. Dumaloq olmaxon mo'ynasidan mo'yqalam, 8–10;
13. Kolonkali dumaloq mo'yqalam, 1–3, 5–7;
14. Sintetika fleysdan tayyorlangan kuraksimon mo'yqalam, 50;
15. Sintetik dumaloq mo'yqalam 3–5;
16. Sintetik yassi mo'yqalam 7–10;
17. Mo'ynasi uzun sintetik dumaloq mo'yqalam 1–4.

### **Akvarel bo'yoqlari**

Akvarel bo'yoqlari bir necha turlarda ishlab chiqariladi. Badiiy bo'yoqlar ishlab chiqaradigan zavodlar (Rossiyada Sankt-Peterburg, Moskva, Podolsk, Belorussiyada Kalinkovich) akvarelni idishlarda yarim quyuq, tubalarda tarkibida asal aralashmasi bo'lgan pastasimon massa ko'rinishdagi ikki turda ishlab chiqariladi. 9,12,16,24, 30 ta rangdan iborat naborlar ko'rinishida bo'ladi.

Akvarel bo'yog'i yelmili bo'yoqlar sirasiga kiradi. Bu turdag'i bo'yoqlar uchun suv aralashtirish vazifasini o'taydi. Barcha akvarel bo'yoqlari tarkibi rangli kukunsimon pigmentlar, bog'lovchi moddalar va to'ldirgichlardan iborat bo'ladi.

*Pigmentlar organik va mineral, sun'iy va tabiiy ko'rinishlarda bo'ladi. sun'iy organik pigmentlar yuqori darajadagi shaffoflik, yorqinlik, ranglarning o'ziga xosligi, yopuvchanlik xususiyatlariga ega. Ulardan asosan lessirovka uchun bo'yoqlar tayyorlanadi. Korpusnoy bo'yoqlar tarkibi esa tabiiy minerallar va bir necha ingredientlar kimyoviy reaksiyasi natijasida hosil qilingan sun'iy mineral pigmentlardan iborat bo'ladi. Ularga mustahkam kimyoviy tarkib, ranglar yorqinligi, yirik va yopuvchanlik xususiyatlari xos. Rangli pigmentlar o'z tarkibiga ko'ra mayda donachali va yirik donachali kukunlar ko'rinishida bo'ladi.*

SHunga muvofiq suvda eruvchanligi ham bir xilda emas. Mayda donachali pigmentlar yaxshi eriydi, yirik donachali pigmentlar esa erishi qiyin kechadi. YAxshi eriydigan bo'yoqlar nisbatan shaffof bo'lib, qog'ozga bir tekisda yoyiladi va so'rildi.

Agar ish uzoq muddatga mo'ljallangan bo'lsa birinchi navbatda mayda donachali shaffof bo'yoqlar qo'yiladi, korpusli, yopuvchan bo'yoqlar yakuniy bosqichlarida qo'yiladi. YOpuvchan, shaffofligi kam bo'yoqlar qog'oz yuzasida yomon so'rildi. Pigment ko'pincha uning yuzasida qoladi. Ustdidan rang qo'yilganda bu bo'yoqlar namlanib suvli mo'yqalamda yuvilib ketadi. O'rnida dog'lar, chiziqlar va kir joylar hosil bo'ladi.

SHaffof ranglar bilan yopuvchan bo'yoqlar aralashmasi, ayniqsa bo'yoqni bir necha qatlama qo'yilganda shaffof tus bermaydi. Ishda bo'g'iq kir joylar hosil bo'lmasligi uchun bunday rang aralashmalari qog'ozga bir necha qatlamlarda emas, balki rang surtmalarini bor kuchida bir urinishda kerakli miqdorda qo'yiladi.

*Akvarel bo'yoqlarida – gummiarabik va dekstrin kabi o'simliklardan olingen suvda tez eruvchan shaffof yelimlar bog'lovchi vazifasini o'taydi. Gummiarabik – kostochkali mevali daraxtlardan olingen hidsiz va ta'msiz qotuvchan shaffof sok. Qurigandan keyin u suvda tez eriydi. Gummiarabik o'z tarkibiga ko'ra sof kimyoviy mahsulot bo'lmay, balki hech qanday ishlov berishga ehtiyoj bo'lмаган murakkab organik birlashma hisoblanadi. U ranglarni o'zgartirmaydi, qurigandan keyin esa rilib ketmaydigan yupqa shaffof parda hosil qiladi. SHuningdek ustma-ust qo'yilgan bo'yoq qatlamlarini yaxshi biriktiradi.*

Dekstrin – suvda yaxshi eriydigan kraxmal yelimining o'ziga xos turi. Tarkibida dekstrin bo'lgan akvarel bo'yog'i gummiarabik bo'lgan bo'yoqqa nisbatan qog'ozga bir tekisda yoyilish xususiyatiga ega, lekin qurigandan keyin xiralashadi.

SHuningdek akvarel bo'yoqlari tarkibiga yumshoqlik beruvchi glitserin va qand kukuni moddalari plastifikator sifatida qo'shiladi. Glitserin namlikni ushlab bo'yoqni qotib, mo'rt bo'lib qolishdan saqlaydi. Qog'ozda yengi yurishi uchun akvarel bo'yog'iga sirtqi faol modda – mol o'ti ham qo'shiladi. Bu modda suvning tomchi bo'lib yig'ilib qolmasligining oldini oladi. Bo'yoqni mog'or bosib buzilishining oldini olish uchun unga **antiseptik fenol** ham qo'shiladi.

Turlariga ko'ra akvarel bo'yoqlari tarkibida bog'lovchilar har xil bo'ladi. Bog'lovchilar rangtasvirda ishlash texnologiyasi barcha xususiyatlarini belgilab pigmentlarni o'zaro va asos bilan biriktirishga xizmat qiladi. Tarkibdagi bog'lovchilar miqdori foizlarda taxminan quyidagi nisbatlarda bo'ladi:

Gummiarabik	–	30	SHakar yoki asal	–	2
Dekstrin	–	10	Mol o'ti	–	2
Suv	–	40	Fenol	–	0,4
Glitserin	–	15	Qo'shimcha moddalar	–	0,6

Ba'zi akvarel bo'yoqlari tarkibiga to'ldirgichlar qo'shiladi. Bu **blanfiks** kabi oq mineral pigmentlar bo'lib, bu to'ldirgichdan foydaanish bir necha maqsadlarni ko'zlaydi. U yorug'likka bardoshlilik va bo'yoqni mustahkam qilish, rangning ortiqcha o'tkirligini kamaytiradi (havorang FS, izumrud, o'trang va h.k.), bo'yoqlarga ko'proq shaffoflik beradi.

YOpuvchanlik bo'yicha akvarel bo'yoqlari lessirovkali, yarim lessirovkali va korpusli turlarga bo'linadi.

- Lessirovkali bo'yoqlar rangli pigmentlarining mayda donachaligi va shaffofligi bilan farqlanadi. U yaxshi eriydi, rangga boy va yengil ko'rinish berib, cho'kmalar hosil qilmasdan qog'ozga yengil yoyiladi va uning yuzasi bilan mustahkam birikadi. Qo'yilgan rang surtmalari qurigandan keyin qog'ozning oqligi ko'rinish turadigan yupqa qatlampagi shaffof parda hosil qiladi. Avval qo'yilgan qatlam ustidan boshqa ranglar qo'yilganda o'ziga xos rangdor mozaika hissini beradi. Akvarel rangtasviriga o'zgacha badiiy ko'rk beradigan o'z xususiyatiga bo'yicha murakkab va boy rang-tuslar hosil bo'ladi. Soyalar, reflekslar, uzoqdagi fazoviy ko'rinishlar, osmon, suv va shuningdek silliq va yaltiroq buyumlarni (shisha, chinni, metall va h.k.) ifodalashda bu bo'yoqlardan foydalanish tavsiya etiladi. SHu bilan birgalikda lessirovka uchun bo'yoqlarning ba'zi xususiyatlarini ham hisobga olish kerak. Ba'zi bo'yoqlar kuchli yorqinlik xususiyatiga ega (havorang FS, karmin, siyohrang kraplak va b.), shuning uchun ularni aralashtirayotganda alohida e'tibor va ehtiyyotkorlik bilan foydalanish zarur bo'ladi. ba'zi bo'yoqlar esa yorug'likka chidamsiz va qog'ozdan butunlay yuvilmaydigan (olovrang qizil, kraplak qizil, siyohrang, izumrud, havorang FS) xususiyatga ega.

Amalda keng qo'llaniladigan "Sankt-Peterburg", "Belie noch", "CHyornaya reka" kabi akvarel naborlarida tillarang-sariq JK, olovrang, qizil kraplak, sihrang kraplak, karmin, havorang FS, izumrud yashil, maysarang yashil, permanent yashil yoki sarg'ish yashil ranglar lessirovka uchun ranglar hisoblanadi.

- YArim lessirovkali bo'yoqlar lessirovkali va korpusli bo'yoqlar o'rtasi bo'lib, lessirovkali bo'yoqlarga nisbatan sokinroq rang-tusga ega. Akvarel rangtasvirida lessirovkali bo'yoqlar "ish joyi" soya joylarda, korpusli bo'yoqlarniki esa yorug' qismlarda deb gapiriladi. YArim lessirovkali bo'yoqlarni esa yarim soyalarda ishlatish maqsadga muvofiq bo'ladi. Lekin bu ularni boshqa joylarda ishlatish mumkin emas degani emas. YUpqa holda berilganda ularning lessirovkaza oid xususiyatlaridan foydalanish mumkin. Quyuq ranglar berilganda shaffofligini yo'qotib, yopuvchan holatga aylanadi. Har xil ishslash usullari qo'llanilganda, masalan, rang ustidan rang qo'yganda lessirovkali bo'yoqlar bilan ham korpusli bo'yoqlar bilan ham yaxshi aralashadi. SHuningdek bu rangalr bilan nafaqat lessirovka usulida balki korpusli bo'yoqlarga nisbatan qog'oz bilan yaxshi birikishi bababli rang surtmalari qo'yib ham ishslash mumkin. Ularning ko'pchiligi

yorug'likka chidamli bo'lganligi uchun vaqt o'tishi bilan o'zining rangini o'zgartirmaydi.

YArim lessirovkali bo'yoqlar guruhiga och-sarg'ish oxra, tabiiy siena, qizil oxra,kuydirilgan siena, tabiiy umbra, kuydirilgan umbra, mars jigarrang, sepiya, xolis qora ranglar kiradi.

- Korpusli bo'yoqlar rangdor pigment kukunlarining yirikligi, katta solishtirma og'irligi va kuchli yopish xususiyati bilan farqlanadi. Korpusli bo'yoq zarralari yorug'likni qaytarib uning qog'oz yuzasiga yetib borishiga yo'l qo'ymaydi, shuning uchun shaffoflik darajasi past.

Bu bo'yoqlar yorqin bo'lib ranglarga faktura va zichlik baxsh etadi. Lessirovkali va yarim lessirovkali bo'yoqlarga nisbatan qog'oz yuzasi bilan yaxshi birikmaydi va ko'pincha keyingi qo'yilgan rang qatlami bilan aralashib ketadi. Qurigandan keyin bu bo'yoq ustidan lessirovka usulida ishlanganda korpusli bo'yoqlarga ko'p bo'yoqlar aralashtirilsa tozaligi va jozibadorligini yo'qotadi. Ultramarin, temir oksidli och qizil, kadmiy zarg'aldoq ranglar kabi ba'zi bo'yoqlarda pigmentlarning cho'kish xususiyati bor. Sof holda yoki aralashma holda bo'lmasin korpusli bo'yoqlarning ko'pchiligida yorug'likka chidamlilik xususiyati yaxshi ekanligini kuzatish mukin. Ulardan yorqin rang va faktura talab qiladigan yorug' joylar va oldingi planlarni tasvirlashda foydalanish maqsadga muvofiq bo'ldai.

### **Qog'oz**

Qog'oz akvarelda rangtasvir ishlash uchun asos sifatida xizmat qiladi. Qog'oz (italyan tilidan bambaqio - paxta) – bu bir-biriga biriktirib ishlov berilgan o'simlik tolalaridan tayyorlangan yupqa varaq. U kashf qilinguncha yozish uchun asos sifatida papirus, pergament (oqlangan qo'y yoki echki terisi), fil suyagidan yupqa taxtachalar, oqqa bo'yalgan kanopdan to'qilgan matolar qo'llanilardi. Xitoyda eramizdan avvalgi III-II asrlarda yozish uchun ipak matolardan foydalanilgan. U ipak tolalari xom-ashyosi va chiqindilaridan tayyorlanardi. Bu usul zamonaviy qog'oz ishlab chiqrishning boshlanishiga asos bo'lib xizmat qildi.

1150 yilda qog'ozni Ispaniyada chiqara boshlashdi. Keyin Yevropaning Italiya, Fransiya, Angliya, Germaniya kabi boshqa mamlakatlarida qog'oz ishlab chiqarish sanoati tezda tarqalib ketdi.

Rossiyada esa XVI asrdan boshlab bu sanoat kirib keldi. Birinchi qog'oz tegirmoni Moskvadan uzoq bo'lmanan Uche daryosi bo'yida ish boshladidi. XVIII asrgacha xom ashyo sifatida tikuvchilik sanoatidan chiqqan latta va zig'ir qiyqimlaridan foydalanilardi. Zig'ir to'qimalaridan tayyorlangan qog'ozlar o'zining sifatliligi bilan ajralib turardi.

XVII asrda qog'oz ishlab chiqarishda paxta mahsuloti qo'llanila boshlandi. Bu materialdan tayyorlangan mahsulot sifati zig'ir tolasidan olingan qog'izga nisbatan pastroq edi. XIX asrda zig'ir, nashapoya va paxta tolalarini alamashtiruvchi xom ashyo yaratildi. Rossiyada VIII asrdan boshlab birinchi marta qog'oz tarkibiga kimyoviy ishlov berilgan somon va yog'och po'stlog'i qo'shib tayyorlash usuli qo'llanila boshlandi.

Vaqt o'tishi bilan qog'oz tayyorlash texnikasi rivojlana boshladı. 1670 yili gollandlar qog'oz uchun xom ashyolarni maydalaydigan mexanizatsiya o'yab topishdi, 1799 yilda fransuz Lui Rober qog'ozni qo'lda quyishni mashinada qolip olishga almashtirdi.

Hozirgi vaqtida qog'ozning har xil tur va navlari ishlab chiqariladi. Uni tayyorlash uchun zig'ir poyasi, paxta, yog'och to'qimalari, somon va boshqa xom ashyolardan foydalaniladi. Qog'iz ishlab chiqarishda unga oq rangni berish uchun unga mel, gips, kaolin, qo'rg'oshin oqi, oq tuproq kabi har xil to'ldiruvchilar, hamda ultramarin, lazur va boshqa boshqa ranglardan foydalaniladi. Qog'ozga yelim sifatida jelatin, kraxmal, qorin yoki o'simlik yelimlari va har xil kimyoviy ashyolar qo'llaniladi. Bu ingredientlar qo'llanilishi qog'oz sifati va bo'yoq yopuvchanligi xususiyatining kuchayishi hamda rangtasvirning yaxshi saqlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. SHuning uchun akvarelda rangtasvir ishslash uchun yaroqli bo'lmaydi. Akvarel bo'yog'ida rangtasivir ishslash uchun qog'ozni to'g'ri tanlash, uning tipik xususiyatlarini yaxshi shrganib chiqish lozim. Qog'oz chiqarilgan firma etiketkasida mahsulot haqidagi ma'lumotlar (nomi, markasi, formati, navi, korxona nomi va h.k.) ko'rsatib o'tilgan bo'ladi.

Qog'ozning barcha tur va navlari o'zining fizik, mexanik va optik xususiyatlari yelmlanish darajasi, namlikka chidamliligi, rangi, oqligi, silliqligi (fakturasi), suvni shimish va boshqa xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Ho'lllab tortilganda, bosilganda, cho'zilganda yirtilib ketmaslik qog'ozning mexanik qayishqoqlik, egiluvchanlikka tegishli xususiyatlariga kiradi. Qog'oz ishlab chiqarishda yuksak mexanik mustahkamlikka ega bo'lgan tolalardan foydalaniladi. CHunki namlanganda qog'oz hajmi kengayib, qurigandan keyin torayadi. Planshetga tortilanda qog'ozning bu xususiyatlarini hibga olish kerak bo'ladi.

Past sifatli qog'ozlar ishqalanishga chidamsiz bo'lib, tezda salqi bo'lib qoladi. Xatolarni to'g'irlash uchun o'chirg'ich bilan o'chirish va yuvish qog'ozning salqi bo'lishi va ba'zan umuman ishga yaroqsiz bo'lishigs olib keladi. Bunday qog'ozlardan faqat faqat birlamchi eskizlar ishslash uchun foydalanish mumkin. Agar bunday qog'oz planshetga tortib qo'yilgan bo'lsa ko'rinish suratini chizib olgandan keyin ehtiyyotkorlik bilan qog'ozdan qirqib olib oynaga ustma-ust qo'ygan holda boshqa yaxshi sifatli qog'ozga ko'chirib olinadi. Yelimga yaxshi to'yintirilgan yupqa sifatli qog'ozlarda ho'llangandan so'ng to'lqinsimon qatlamlar hosil bo'lishi kuzatiladi. Salqi bo'lganda rangtasvir ishslash qiyinlashadi, lekin boshlovchi rassomlar uchun bunday qog'ozlardan ham foydalanishlari mumkin. Qog'ozning bu xususiyatini o'rgangan holda unga mos kerakli usullarni qo'llash, bu usulda ishslashga ko'nikish zarur bo'ladi.

Oqligi, tusi, yorug'lik o'tkazuvchanligi qog'ozning optik xususiyatiga kiradi.

Akvarel rangtasvirida qog'ozning oqligi juda katta ahamiyatga ega. Qog'ozning oqligi rangtasvirning ichki tomonidan nurning qaytish manbai bo'lib xizmat qiladi. SHuning uchun qog'oz yorug'lik ekranini hisoblanadi, bundan tashqari akvarel palitrasida mavjud bo'limgan oq bo'yoq o'rmini bosib bo'yoqni optik aralashtirish va ochartirishga yordam beradi.

Bo'yoqlar qatlami ostidan yoritib rangtasvirga o'ziga xos soqlik baxsh etadi, bu xususiyati yo'qolishi bilan akvarel o'zining shaffofligi, tozaligini yo'qotib guashni eslatadigan ko'rinishga kelib qoladi. Asosdagi qog'ozda gruntdan kuchli yorug'lik qaytishi orqali akvarel rangtasvsiri uchun muhim bo'lgan bo'yoqning shaffoflik darajasiga erishiladi. SHuning uchun bo'yoq surkalgandan keyin qog'ozning oqligi, sifati akvarel rangtasvirida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Qog'ozning oqligi olinadigan xom-ashyoga bog'liq. Tarkibida boshqa qo'shimchalarsiz asosan zig'ir tolasidan iborat qog'oz eng yaxshi qog'oz navlari hisoblanadi. Fabrika markasi (suv belgisi)ga ega bo'lgan vatman qog'ozlari bu borada o'z afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu navdag'i qog'ozlar o'ziga xos fakturasi, boshqa qog'ozlarga nisbatan kam sarg'ayishi, egiluvchanligi va uzoq muddatga chidamliligi bilan ajralib turadi. Bo'yoqlar o'zining tozaligi, yorqinligi va jarangdorligini saqlagan holda bu qog'oz yuzasida bir tekis yoyiladi. Qog'oz sifati xato qilingan joylardagi bo'yoqlarni o'chirish va yuvish, kerakli darajada o'zgartirish kiritish, har xil ishslash usullaridan foydalanish imkonini beradi. Torshon hamda boshqa chizmalar bajarishga mo'ljallangan bir qator qog'ozlar akvarelda rangtasvir ishslash uchun eng yaxshi asos bo'lib xizmat qiladi.

Grafik ishlar va chizmalar bajarish uchun mo'ljallangan ba'zi qog'oz navlari vaqt o'tishi bilan sarg'ayishga moyil bo'ladi. Texnologik jarayonda xatoliklarga yo'l qo'yish natijasida ham qog'oz tusi o'zgarishi mumkin. Borno kisliy kalsiyning suvli eritmasi, vodorod perekisida namlangan paxta bilan artish yo'li bilan esa zig'irli qog'ozdagi sarg'ayishni ketkazish mumkin.

Tushayotgan yorug'likni o'zidan o'tkazmaslik – bu qog'ozning yorug'lik o'tkazuvchanlik (svetonepronitsaemost) xususiyati hisoblanadi. Tanlashda qog'ozni yorug'likka qaratib qarash uning sifati va shaffoflik xususiyati aniqlash imkonini beradi.

Suvni shimish va namlanish xususiyati qog'ozning yelimlanganlik darajasiga bog'liq.

Barcha turdag'i qog'ozlar turli yelimlanganlik darajasiga ega. Yelim bilan to'yintirish bilan qog'ozdagi namlikka chidamliligi va shimuvchanligini oshiriladi (gidrofobnost) kanifol yelimi ko'p ishlatilganda qog'oz yuzasida suvli bo'yoqning haddan tashqari oquvchanligi va suvga namlanuvchanligi (gidrofilnost) kamaytiriladi. Kuchli yelimlangan silliq, yaltiroq qog'ozlar boshlovchi rassomlar ishlatishlari uchun tavsiya qilinmaydi. Bunday qog'ozlarda bo'yoqlar mustahkam yopishmay, tomchilab yumalab ketadi va yuzaga yaxshi yuqmaydi. Qaytadan rang qo'yilganda ular chiziqlar va dog'lar hosil qilib namlandan keyin mo'yqalamda yuvilib ketadi. Bir muddatga suvga shimdirib qo'yish bilan kuchli yelimlangan qog'ozlarni ancha yumshatish, undagi yelim qatlagini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

YUpqa, yumshoq va titiluvchan navli qog'ozlar akvarelda rangtasvir ishslash uchun yaramaydi. Suvni tezda shimb olish natijasida uning asosida rang dog'lari va qo'pol chiziqlar paydo bo'ladi. Akvarelda endi ishslashni boshlagan rassomlar ranglarning bir-biriga yumshoq va yengil o'tish amallarini bajara olishmaydi. SHu bilan birgalikda akvarel uchun qog'ozlarda ishslashni yengillashtirish uchun yuzada bo'yoqlar tez qurib qolishining oldini olishga xizmat qiladigan suvli bo'yoqni

shimish xususiyati bo'lishi ham juda muhim. Fakturani buzish va salqi bo'lib cho'zilib ketmasligi uchun zichligi kam va kuchsiz yelimlangan qog'ozlarni haddan ortiq namlash mumkin emas.

Akvarel rangtasvirida qog'oz fakturasini ham muhim ahamiyatga ega. Qog'ozdagi g'adir-budurlik, jilvadorlik akvarelga o'ziga xos rangdor jozibadorlik baxsh etadi. Qog'oz yuzasiga qaralganda oddiy ko'z bilan ham bir tomonida ko'proq (ishlanadigan sath) va orqa tomonida kamroq g'adir-budurlik fakturasini sezish mumkin. Qog'ozni tanlanganda oqligi, fakturaligi (g'adir-budurlik) va yorug'likka qaratilganda tolalarning bir tekisdaligiga katta e'tibor qaratish lozim. Bundan tashqari qog'ozning g'adir-budurlik fakturasini tasvirlanayotgan ko'rinish xususiyati va o'lchamiga moslashtirib tanlanadi. Mitti o'lchamli tasvirlar uchun fazoviylik va yumshoqlik buyumlarni ifodalash uchun mayda jilvirli qog'ozlar tanlansa, yirik jilvirli qog'ozlar qo'pol, fakturali, kuchli yoritilgan oldingi plandagi buyumlarni tasvirlash uchun qulay hisoblanadi.

Tajribali rassomlar akvarel bo'yog'ida ishslash uchun har xil turdag'i qog'ozlardan foydalanishadi. Ularning tipik xususiyatlarini o'rganib, hamda unga mos usul va texnikalarni qo'llagan holda har xil turdag'i qog'ozlardan oqilona foydalanib juda yaxshi natijalarga erishishlari mumkin.

#### *Amaliy maslahatlar*

***Akvarelda rangtasvir ishslash uchun ishlatiladigan qog'ozlar quyidagi asosiy talablarga javob berishi zarur:***

1. Fakturasi va sifati bo'yicha tanlangan qog'oz yuzasi butunlay toza bo'lishi kerak.
2. Qog'ozni kirlanish, chang, moy dog'lari, quyosh nuri va shikastlanishdan saqlash lozim.
3. Qog'ozni o'rash yoki ikkiga buklab olib yurish tavsiya qilinmaydi.
4. Qog'ozni eng yaxshisi, varaqlarni ustma-ust qo'ygan holda yopiladigan papkalarda va quruq joylarda saqlash kerak.
5. Namlanganda to'lqinsimon, shishib ketadigan qog'ozda biron yaxshi natijaga erishib bo'lmaydi, shuning uchun uni qattiq asosga (planshet) qotirib olgan ma'qul.
6. Ishni boshlashdan oldin qog'ozning yuza qismini suv bilan yengil yuvib olish lozim.
7. Qurigandan so'ng ho'llab olingan qog'oz shakli o'zgarmasligi darkor.
8. Akvarel bilan yopilgandan keyin qog'oz yuzasida dog'lar hosil bo'lmasligi lozim.
9. Gubka bilan bir necha marta ho'llangan qog'oz yumshab yoki titilib ketmasdan, aksincha o'zining ilk ko'rinishini saqlashi zarur.
10. Bo'yoq qatlami yengil yuvilishi – maxsus pichoqda qirilganda qog'oz yuzasi buzilmasligi darkor.
11. Qog'oz akvarel bo'g'ini yuza qismida yengil shimishi lozim.

12. Qog'oz oq, yuzasi har xil fakturadagi yaltiramaydigan xira ko'rinishda bo'lishi zarur

### *Qog'ozni qattiq asosga tortish*

Asosga (planshet, stirator, karton va h.k.) tortish va qotirish qog'ozni ishga tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi. Bu ho'llangan qog'ozda ishni boshlashdan oldin qog'ozda to'lqinsimon bo'rtiq va bo'yoq surkalganda shishlar paydo bo'lmasligining oldini oladi. Bu jarayon o'ziga yarasha mehat va rassomdan alohida e'tibor talab qiladi. uzoq vaqt ishlanadigan ishlarda qog'ozni eng yaxshisi planshet yoki 0,8-1 sm ennilikdagi faneraga tortgan ma'qul. Planshet tagrom ustidan qoplangan shu o'lchamdagি fanera yoki orgalitdan iborat bo'ladi. SHuningdek orgsteklo, plastik, polistirol ham kichik o'lchamlarda qotirish uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

### *Qog'oz yopishtirish*

Planshetga qog'ozni yelimlab tortish keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Qog'oz quyidagicha yelimlanadi. Zichlik darajasiga qarab qog'ozni bir tomoni yoki har ikki tomonini ho'llanadi. Bu uni nisbatan bir tekisda tortishga yordam beradi. Planshetga nisbatan qog'oz 3-4 sm kattaroq o'lchamda bo'lishi lozim. Qog'ozni ho'llashda o'ziga ko'p suvni shimb oladigan gubkadan foydalaniladi. Gubkada yelim surkaladigan qog'oz chetlari quruq holda qodadigan qilib ho'llab chiqiladi. Keyin uning yuza qismi chekkalari bilan birga ho'llanadi. Planshetga qotirish uchun qog'oz chetlariga PVA yelimi surkalib chiqiladi. Keyin qog'ozga joylashtirilib, planshetning yon tomonlaridan biriga qog'ozning yelimlangan cheti qayrilib yopishtirib chiqiladi. Keyin ehtiyyotkorlik bilan yengil tortilib qarama-qarshi tomoni yopishtiriladi. Xuddi shu amalni qolgan ikki tomonida bajariladi. Bu jarayonda qog'oz bir tekisda tortilishi va burchaklarida bo'rtiq yuzalar hosil bo'lib qolmasligiga e'tibor berish kerak. Qog'ozni yuzasini tepaga qaratib gorizontal holatda hech qanday qo'shimcha isitish mabaalarisiz bir xil haroratda quritiladi.

Tezkor o'quv mashqlari bajarish maqsadida har xil o'lchamdagи (40x50; 45x60; 50;70)2-3 ta planshet zarur bo'ladi.


Qog'ozni planshetga tortishdan tashqari stiratordan ham foydalanish mumkin. U planshet (yoki rom) va uni o'rab turuvchi ikkinchi romdan iborat. Planshetga o'ralgan qog'oz siqib kirib mustahkam joylashishi uchun qamrab oluvchi ikkinchi rom ichki romdan bir qadar katta o'lchamda bo'lishi zarur. Ho'llangan qog'oz planshet yoki romga bir tekisda qo'yiladi va qamrab oluvchi rom ichiga kirgizilib qotiriladi. Qurigandan keyin qog'oz bir tekisda tortiladi. Ikki romdan iborat stirator plener sharoitida qog'ozni bir necha marta tezkor tortib naturadan ranglavhalar bajarishda juda qo'l keladi. adi. Plener sharoitida shuningdek maxsus al'bom papkalardan foydalanish ham mumkin.

Planshet, stirol bilan birgalikda qattiq asos sifatida orgsteklo, plastik, polistiroldan ham foydalanish mumkin. Buning uchun qog'oz yaxshilab ikki tomonidan ham ho'llanib, keyin orgsteklo ustiga qo'yiladi. Ho'l qog'oz orgsteklo yuzasiga bir tekisda yopishib qolgandan so'ng ho'l qog'oz ustida ishslash usulida rangtasvirni boshlash mumkin.

## Rangtasvir uchun mo'yqalamlar va kerakli anjomlar

Akvarel rangtasvirida ishlatiladigan asosiy anjomlardan biri bu so'zsiz mo'yqalam hisoblanadi. Rangtasvirchilar uchun qadimiy aslaha bo'l shiga qaramasdan mo'yqalam o'zining ilk ko'rinishi deyarli o'zgarmagan. Tuzilishi oddiy bo'lsada, mukammal va qiyosi yo'q aslaha. Qo'yilgan vazifaning yuqori saviyada bajarilishi ko'p darajada mo'yqalam sifatiga bog'liq.

Rassomlar ishlashi uchun tashqi ko'rinishi, o'lchami, shakli, alohida xususiyati va bajaradigan vazifasiga qarab juda ko'plab mo'yqalam turlarini sanab o'tish mumkin. (5-surat).



**Akvarel mo'yqalamlari raqamlari bo'yicha  
5-rasm.**

Tashqi ko'rinishi bo'yicha mo'yqalamlar dumaloq va yassi ko'rinishlarda bo'ladi. yassi mo'yqalamlar dumaloq mo'yqalamlarga nisbatan elastikroq bo'lib ma'lum shakldagi yassi shakllarni hosil qilishga imkoniyat beradi.

Kattaligi (o'lchami) bo'yicha mo'yqalamlarni katta, o'rta va mayda guruhlarga bo'lish mumkin.

Bu yerda mo'yqalam turlari, ma'lum vazifalarni bajarish uchun qanday mo'yqalamlarni qo'llash mumkinligi haqida umumiylar ma'lumotlar beriladi. Kuraksimon mo'yqalamda to'g'ri shaklli keng rang surtmalari, kichik dumaloq mo'yqalam o'tkir uchlari bilan esa ingichka chiziqlarni ifodalaymiz. Oldimizga qo'ygan bunday vazifalarga qarab ma'lum o'lcham va shakldagi mo'yqalamdan foydalanamiz.

1- dyumli (1 dyuym – 2,54 sm) yassi mo'yqalam;

Kuraksimon mo'yqalam uchlari keng va yassi shaklga ega bo'lib katta yaxlit rang surtmalari qo'yish uchun qulay. Katta yuzalarni yopishga xizmat qilganligi uchun undan rangtasvirda juda ko'p foydalilanadi. Bu mo'yqalamda bajarilgan rang surtmasi keng chiziqlar hosil qiladi. Uning uchli yon tomoni bilan ingichka chiziqlarni ifodalash mumkin.

10 - dumaloq mo'yqalam;

Katta dumaloq mo'yqalam esa boshqa vazifani bajaradi. U bilan tezlikda yaxlit shakllarni qurish mumkin va suyuq, organik chiziqlarda burama va uzlusiz shakllarni ifodalashga mo'ljallangan.

7 yoki 8 - raqamli o'rtacha dumaloq yoki kuraksimon V-Inch mo'yqalamlari;



O'rtacha o'lchamdagisi mo'yqalamlar murakkab shakllar va qirralarni ma'lum darajadagi aniqlikda ifodalash uchun qulay, lekin ulardan ko'ra kichikroq mo'yqalamlarda bunday vazifalarni yanada nozik va aniqlikda bajarish imkoniyati ko'proq.

3 yoki 5 - raqamli unchalik katta bo'limgan dumaloq mo'yqalam yoki Layner;

Rangda nozik chiziqlarni ifodalashda unchalik katta bo'limgan dumaloq mo'yqalamlardan foydalilanadi. To'g'ri burchakli shakllarni ifodalash uchun asosiy katta yuzalar rang bilan yopib

olingandan keyin qirqilgan uzun mo'ynali dumaloq mo'yqalamlar ko'proq qo'llaniladi. Bu egiluvchan mo'yqalamlar yordamida jonli chiziqlarni ifodalash mumkin.

Birinchi guruhdagi mo'yqalamlar asosan katta o'lchamdagি rangtasvirlar ishslash hamda katta yuzalarni tezkor ranglar bilan yopish holatlarida ishlatiladi. O'rta o'lchamdagи mo'yqalamlar rangtasvir ishslash jarayoni uzoq davom etadigan bo'yoqlarni ko'p qatlama bosqichma-bosqich qo'yib ishslash talab qilinadigan (lessirovka) auditoriyadagi o'quv vazifalarini ko'proq bajarishda asqotadi. Kichik o'lchamdagи mo'yqalamlardan ko'pincha rangtasvirdagi surat shaklini aniqlash, kichik yuzalarni yopish, mayda bo'laklarga ishlov berishda foydalaniladi. Albatta akvarel bo'yog'ida ishslash bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lgan rassom uchun mayda o'lchamdagи mo'yqalamarsiz faqat katta mo'yqalamda ajoyib rangtasvirlar ishlashlari unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Boshlovchi rassomlar esa № 6 - dumaloq, № 10 – 14 dumaloq va yassi, № 18- 22 dumaloq va yassi shakldagi har xil o'lchamdagи 4-5 ta mo'yqalamdan foydalanishlari mumkin. Ish jarayonida mo'yqalamlarni almashtirib ishslash rangtasvir bajarishning har xil usul va texnikalarini qo'llash bilan birga ranglavhaga kerakli darajada jozibadorlik baxsh etish imkon beradi. Faqat bir xil mo'yqalamda foydalanish bir xil va cheklangan texnikaga ko'nikib qolishga sabab bo'lishi mumkin.

Qo'llaniladigan mo'yqalam turlari sharhi bilan ularda qandy natijalarga erishilganligi ta'kidlanmoqda. Mo'yqalamlani siz o'z imkoniyatingiz va hohishingizga qarab tanlashingiz mumkin.<sup>7</sup>

YUqoridagi suratda chapdan o'nga – kuraksimon tekis, dumaloq va uchli ingichka mo'yqalamlar. Oldinga qo'yilgan vazifa asosida mo'ylarining shakli va uzunligiga qarab ularni tanlanadi.<sup>8</sup>

SHakli bo'yicha mo'yqalamlar mo'yna va yolning ko'proq yoki kamroq chiqib turishi, hamda uchli, to'mtoq, uzun va kalta ko'rinishlarda ishlab chiqariladi. Mo'yna metal uyachadan qancha kam chiqqan bo'lsa u shunchalik qattiq holatda bo'ladi. O'z xususiyatiga ko'ra mo'yqalamlar yumshoq (olmaxon, sassiqko'zan, suvsar mo'ynasi), yarim qattiq (kolonok, bo'rsiq, echki, sigirning qulog'i mo'ynasi, sun'iy kimyoviy mo'yna) va qattiq (shetinniy) turlarga bo'linadi. Kolonok, olmaxon, sassiqko'zan va suvsar mo'ynalaridan tayyorlangan mo'yqalamlar akvarelda rangtasvir ishslash uchun eng qulayi hisoblanadi. Ular nisbatan yumshoq va mayin, mustahkam va yetarli darajada tarang, egiluvchanlikka ega. Mo'yqalam shakli, o'lchami va mo'ynasi uning xususiyati va imkoniyatini belgilaydi.

Pastdagi suratda ko'rsatilgan bu mo'yqalamlar shakli bo'yicha bir xil bo'lgani bilan ularning mo'ynalari har xil. Tepadan pastga, har xil mo'ynalardan yig'ilgan murakkab, olmaxon va samur deb atalsada boshqa jonivorlar mo'ynasidan

<sup>7</sup> Frontz , Lesl i e. The watercolor course you've always wanted : guided lessons for beginners and experienced artists / All rights reserved. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 19.

<sup>8</sup> Frontz , Lesl i e. The watercolor course you've always wanted : guided lessons for beginners and experienced artists / All rights reserved. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 20.

tayyorlangan mo'yqalamlar.<sup>9</sup> Ular bir-biridan yumshoq, qattiqligi o'ziga suvni ko'p yoki oz shimib olishi bilan farq qiladi.

Ba'zan bo'yoq qatlaming fakturasini o'zgartirish, har xil yuvilishlar, umumlashtirish, turli buyumlarning tarkibiy xususiyatini ifodalash uchun tajribali rassomlar o'z ishlarida olmaxon va kolonok va qattiq shetin mo'ynali mo'yqalamlarni aralashtirib ishlata dilar.

Oldinga qo'yilgan vazifa yechimini qanday texnikada bajarishni maqsad qilganligiga qarab har bir rassom o'z shaxsiy talabidan kelib chiqib dumaloq, yassi yoki yumshoq va har xil qattiqlikdagi mo'yqalamlarni tanlashi mumkin.

Mo'yqalamlarni toza va har doim ishga tayyor holatda saqlash uchun ularni ehtiyyotkorlik bilan avaylab asrash zarur. Ish tugagandan keyin ularni sovun bilan yuvib, undan shaklini o'zgartirmaydigan holatda saqlanadi. Qurigan (dumaloq) mo'yqalam konussimon ko'rinishga ega bo'ladi. ishdan keyin uni suvli idishda mo'ynasini pastga qaratib qoldirish umuman mumkin emas. Bunda mo'yqalam egilib, sinib va mo'ynalar har tomonga sochilib shakli buziladi.



## 6-rasm.

Akvarelda ishlash uchun mo'yqalamlar<sup>10</sup>

YAssi mo'yqalamlar yaxshilab yuvib va yumshoq qog'ozga (masalan:gazeta) o'rab qo'yiladi. Bu mo'yqalam shaklining yaxshi saqlanishiga yordam beradi. SHuningdek chay sodasida tez-tez yuvib turish lozim. SHundan so'ng mo'yna yumshoq, mayin bo'lib kerakli shaklni saqlab qoladi. suvga solinib, keyin pastga siltab suvi qochirilsa mo'ynasi konussimon bo'lib yig'ilgan mo'yqalam akvarel

<sup>9</sup> Frontz , Lesl i e. The watercolor course you've always wanted : guided lessons for beginners and experienced artists / All rights reserved. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 21.

<sup>10</sup>Xalilov R. Akvarel. Izdatelstvo "Navruz". T- 2013: 20-27-betlardagi materiallardan foydalanilgan

uchun eng yaxshi mo'yqalam hisoblanadi. SHuning uchun mo'yqalam mustahkam va yetarli darajada egiluvchan bo'lishi lozim.



6-rasm. Akvarel turlari

## Akvarel bo'yqlari

### Palitra

*Palitra akvarel rangtasviri uchun kerakli bo'lgan asosiy aslaha hisoblanadi. Unda har xil ranglar tanланади va aralashtiriladi. Har xil shakl va materiallardan (yassi, maxsus chuqurchali plastmass, orgsteklo va h.k. ) ishlab chiqariladi. Oq likobcha, shuningdek ostiga oq qog'oz qo'yilgan shaffof oyna ham palitra uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.*


Palitra yuzasi oq (qog'oz tusida), bo'yoq silliq, shimilmasligi uchun qattiq bo'lishi kerak. Rassom ranglar qog'ozning oq yuzada qanday ko'rinishiga qarab palitrada rang aralashmalari yoki kerakli rangni aniqlaydi. Palitra sifatida ranglar nisbatini tanlash qiyin bo'lgan to'q va rangli plastmass, orgsteklo va h.k. tavsiya qilinmaydi. SHuningdek qog'ozni ham palitra sifatida qo'llab bo'lmaydi, chunki uning namlangan qismlari, yelim va kamyoviy moddalar bo'yoqqa aralashib qog'oz yuzasini kirlashtiradi, bo'yoq shaffofligi va jarangdorligini yo'qotib rangtasvirni xiralashtiradi. Bo'yoq tarkibidan eng kerakli akvarel rangtasviri shaffofligi va mustahkamligini ta'minlaydigan yaxshi eriydigan pigmentlar va bog'lovchilarni yo'qotishiham qog'oz palitraning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Palitra yonida planshetga tortilgan qog'ozning bir parchasi akvarelchi rassomga rang tusini to'g'ri aniqlashda yordam beradi.

Bo'yoq aralashmasi yaxshi yoyilishi va silliq yuzasida tomchi bo'lib yumalab ketmasligi uchun ho'kiz oshqozoni aralashmasi hamda sarimsoq piyoz yoki piyoz bilan palitra yuzasiga surkab chiqiladi. Palitrada bo'yoqlarni aralashtirishda ularning tarkibi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak. Uchta rangdan orig'ini aralashtirmaslik kerak, chunki bo'yoqlar aralashmasining kirlanishiga olib keladi. Ish jarayonida vaqtida kirlangan joylarni artib tashlab palitraning tozaligiga e'tibor qaratish zarur. Palitrada oqilona ranglar tayyorlash boshlovchi akvarelchi rassom ishini osonlashtiradi. Mo'yqalam, bo'yoq va qo'shimcha ashyolar bilan ishslash tezligi ortadi.

Ish jarayonida tajribali zamonaviy rassomlar asosiy an'anaviy ashyolardan (mo'yqalam, bo'yoq) tashqari qo'shimcha ashyolar sifatida o'tkir uchli pichoq (shu'lalarni chiqarish uchun), mum qalam yoki parafin, porolon gubka, rezina yelim, tuz, shaffof plyonka, maishiy fen (tezkor quritish uchun), orgsteklo yoki plastik va h.k. dan ham foydalanadi. Lekin bunday ashyo va materiallardan foydalanish uchun rassomda oldiga qo'yilgan vazifa va tanlangan usul yoki texnikaga qarab ma'lum darajada bilim va ko'nikma, hamda meyor tuyg'usi mavjud bo'lishi darkor.

### Ish joyini tashkil qilish

Rangtasvir mahorati haqida boshlang'ich ma'lumot oladigan akvarel rangtasviri bo'yicha o'quv mashg'ulotlari ustaxonalarida olib boriladi. Talabalardan rangtasvir ishslash jarayonida kerak bo'ladigan aslahalarni bilishlari va undan foydalana olishlari talab qilinadi (6-rasm).



### **7-rasm. Akvarel rangtasviri ishlanadigan o'quv ustaxonasida molbertlar va stullarning joylashishi**

Zamonaviy yaxshi jihozlangan akvarel rangtasviri ishlash ustaxonalari o'quv jarayonida kerak bo'ladigan barcha jihozlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Ustaxonada (bir vaqtda 12-14 talabadan iborat guruh shug'ullanishi uchun) bir tekis va turg'un yorug'likka mo'ljallangan bo'lishi kerak. elektr yoritkichlari ranglarni o'zgartirishi sababli rangtasvir mashg'ulotlari kunduzgi yorug'likda bo'lishi zarur. Ustaxonada o'tirganda quyosh yorug'ligi qog'ozga tik tushmaydigan, molbertda qiya turgan planshetda qo'yilgan ranglar yaltirab ko'rinasligi kerak. Derazadan tushayotgan yorug'lik kuchini so'ndirish maqsadida yengil, yarim shaffof xolis tusdag'i pardalardan foydalanish mumkin.

Orqada o'tirganlarga naturani to'sib qo'ymaydigan va molbertdan orqaga chekinib masofadan ishga qarash imkonini bo'lgan joyni tanlanadi. Agar ustaxona o'lchami katta bo'lmasa molbert tekisligiga yorug'likning tushish yo'naliшини hisobga olgan holda jihozlarni (molbertlar, stullar va h.k.) naturaga nisbatan yonlama qiya holda qo'yish mumkin. Bu holatda



birinchi qatordagi talabalar o'tirib ishlashlariga to'g'ri keladi.

Rassom uchun ish joyidagi asosiy aslahalardan biri molbert hisoblanadi (7-rasm). Akvarel rangtasvirinig xususiyatidan kelib chiqib unga katta e'tibor qaratiladi. O'quv amaliyotida akvarel uchun turli tuzilishga ega bo'lgan molbert turlari mavjud. Lekin ularga rassomning bo'yisi va uning turgan, o'tirgan holatiga qarab molbertni pastga yuqoriga harakatlantirish; kerak bo'lganda molbert qiyaligini yotiqlik holatdan tik holatgacha yengil o'zgartirish; tuzilishining oddiyligi va har xil holatda ish tekisligining mustahkam turishi; tez va oson joylashtirish imkoniyatlarining mavjudligi kabi talablar qo'yiladi.



## **8-rasm. Akvarel rangtasviri uchun mo'ljallangan molbertlar**

Molbert bilan birga uning yonida bo'yoq, mo'yqalam, palitra, gubka, suv uchun idish kabi zarur buyumlar qo'yilishi uchun baland (tik turib ishlash uchun) stul joylashtiriladi.

Kichik o'lchamdag'i qog'ozlarga ishlanadigan (qisqa fursatlari ranglavhalar) ta'limning boshlang'ich bosqichlarida qog'ozni molbert tekisligiga knopka yoki yelimli tasmalar bilan qotiriladi. Uzoq vaqt ishlashga mo'ljallangan (ko'p sensli) vazifalar uchun ishlash uslubiga qarab planshet yoki plastiklardan foydalaniladi.

Plenerda ranglavhalar bajarishda molbert o'rniga akvarel uchun maxsus etyudnikdan foydalaniladi, lekin shu bilan birga moybo'yoq uchun oyoqlari yig'iladigan etyudniklardan ham foydalanish mumkin. Ochiq havoda ishlaganda qulay bo'lishi uchun yig'iladigan kursi va quyosh nuridan asrovchi maxsus soyabonlardan ham foydalaniladi.

## **AKVAREL RANGTASVIRI TEXNIKASI**

Akvarel rangtasviri texnikasi – bu maxsus ko'nikmalar, usullar va ishlashning texnik usullari hamkorligida yaratiladigan badiiy asardir. SHuningdek u buyumlarga ishlov berish, hajmli shaklni qurish va fazoviy nisbatlarni ifodalovchi materiallarning eng ma'qul va badiiy imkoniyatlaridan maqsadli foydalanish jihatlarini o'z ichiga oladi. SHunday qilib akvarel texnikasi rangtasvirning jozibador vositalari tizimining eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi..

Faqat materiallar va ashyolarni bilish hamda ularni ish jarayonida qo'llashgina emas, balki shu bilan birgalikda ishlashning usul va uslublar ham akvarel rangtasvirining ifodalash va jozibadorlik imkoniyatlariga kiradi. Texnik usul va uslublarni o'rganish jarayonida akvarel bo'yog'i bilan ishlash texnikasini o'zlashtirish chuqur tadqiqot va zamonaviy va klassik san'at asarlarining eng sara namunalari hamda mashhur rangtasvir ustalarining tajribalaridan foydalanishga tayanmog'i kerak. SHuningdek akvarel rangtasvirini o'zlashtirish shaxsiy tashabbus va ijodiy izlanish, eksperiment qilish va nazariy bilimlarni amalda mustahkamlashni ham ko'zda tutadi. SHu bilan birgalikda yosh rassomlar shuni esdan chiqarmasliklari kerakki texnika rangtasvirdagi eng asosiy maqsad emas, balki oldinga qo'yilgan vazifani ifodalashda bir vosita xolos. SHuning uchun badiiy ta'limning boshlang'ich bosqichlaridan boshlab ularsiz rangtasvir ishlash mahoratini egallah qiyin bo'lган texnik usullarning barcha eng nozik qirralarini qat'iyat va sabot bilan egallab borish talab qilinadi.

Rangtasvirning universal texnikasi yo'q. Har bir texnika tasvirni ifodalashda faqat ungagina tegishli bo'lган yutuq va kamchiliklarga ega. Boshlovchi rassom shaxsiy sifatlari va badiiy didiga mos ravishda qo'yilgan maqsadga qarab u yoki bu texnik usulni tayanib o'ziga xos usulni topadi. Birinchi o'quv vazifasidan boshlab talabalar rangtasvir ishlashning bir qator usul va uslublari bilan tanishib boradi. Ularni o'zlashtirish unga berilgan rangtasvir vazifalarini to'la va xilma-xil ko'rinishlarda bajarish uchun zarur tajribalarini beradi. Har xil ishlash usullari blan tanishish kelgusida rassomga har akvarel rangtasviri imkoniyatlarini sinab ko'rish ijodiy o'quv jarayonlarda mohirona qo'llash imkoniyatlarini beradi.

Badiiy ta'lism tajribasida akvarel rangtasvirining ishlanishi bo'yicha quruq qog'ozga ishlash, ho'l qog'ozga ishlash, aralash texnikada ishlash kabi uch turga bo'linadigan turli texnik uslublar mavjud.

### ***Quruq qog'ozga rangtasvir ishslash***

Bu usul rangtasvirning realistik yo'nalishida keng foydalanilib, allaqachon an'anaviy (klassik) usul sifatida o'zini oqlab bo'lgan. Oddiyligi va qulayligi o'quv jarayonida bu usulni keng qo'llash imkonini beradi. U akvarelga xos bo'lgan qog'oz yuzasida yengil surkalish xususiyatidan unumli foydalanishga asoslangan.

Quruq qog'ozda ishslash ish jarayonida to'q va quyuq hamda yengil va suyuq rang surtmalari berish bilan keng ko'lamdag'i rang-tus nisbatlarini ifodalash, shaffof rang surtmalarini bir necha qatlama ustma-ust qo'yish bilan tasvirda hajmdorlik va fazoviy bo'shliq tuyg'usini berish imkoniyatini beradi. Bu usul rassomda rangni idrok etishni rivojlantrib, surat chizishni mustahkamlaydi, shakl va hajmni to'g'ri konstruktiv qurish, bo'yoq va uning aralashmalari bilan ishslash ko'nikmalarini oshiradi.

### ***Qog'ozning quruq yuzasida rang surtmalari qo'yish***

Bu eng ko'p ommalashgan texnik usullardan biri hisoblanadi. YOrug'-soya va rang-tuslarni hisobga olib quruq qog'oz sathida rang qatlamlari qo'yib bajarish bu usulning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

Bu texnikada ishslash quyidagicha amalga oshiriladi. Qog'oz sathida bo'yoq bir tekisda yoyilishi va shimalishi uchun planshetga tortilgan qog'oz ish boshlanishida keng mo'yqalam yoki gubka yordamida suv bilan yengil namlanadi. Qog'oz qurigancha palitradra kerakli ranglar aralashmalri tayyorlanadi. Mo'yqalamni rang aralashmasiga botirib qog'ozning tepe qismida birinchi yotiq rang surtmalari qo'yib boshlanadi. Bunda rang surtmalari suvga to'yingan bo'lisi zarur. Buning uchun har bir qo'yilgan rang surtmalaridan keyin bo'yoqning yengil yoyilishi uchun mo'yqalamga yetarli darajada suvli rang aralashmasi shimdirib olinadi. Mo'yqalamni rang bilan shimdirib avvalgi qo'yilgan rang surtmalarinig pastki qismi bilan birikib ketishiga e'tibor qaratib asta-sekin qo'yib boriladi. Bo'yoqning yengil oqishi natijasida bir tusdan ikinchi tusga yengil o'tib buyumlar shakli yumshoq qurib boriladi. Bo'yoq bir tekisda oqishi uchun planshetni gorizontal tekislikka nisbatan taxminan 20-30 gradus qiya holda ushlashgan ma'qul. Nisbatan tik utilgan holda bo'yoq pastga tez oqib tushib ketadi. Ish jarayonida bu qiyalikni o'zgartirib turish mumkin. Pastki qismga yig'ilib qolgan bo'yoqni mo'yqalamnga yengil shimdirib olib tashlash mumkin.

Bir seansli va uzoq vaqtga mo'ljallangan ko'p qatlamlai vazifalar bajarishda ham birdek erkin harakatlar bilan qog'ozning quruq sathida ishslash usulidan foydalanib yorug'-soya va rang-tus ko'lamlarini qiyinchiliksiz chiqarib borish mumkin. SHuningdek boshqa texnik usullar bilan tanishiib borish maqsadida ushbu usulni qo'llab sathda bir rangni ikinchi rangga mayin qo'shib borish texnikasi ustida sinov mashqlari bajarib ko'rish ham mumkin. Buning uchun palitradra bir necha rangli bo'yoqlar tayyorlab, so'ng ularni bir-biriga asta-sekin qo'shib boriladi. Natijada turli bo'yoqlardan akvarel texnikasiga oid yaxlit, tabiiy rangdor bo'yoq aralashmasi hosil bo'ladi. Palitradra bo'yoqlarni aralashtirish – mexanik rang tayyorlash usuli hisoblanadi. Tayyorlash jarayonida ranglarni

qismlarga bo'linadi. Bo'yoqni bitta rangdan ikkinchi rangga bir tekis va mayin o'tishi uchun lessirovka va yarim lessirovka usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Jozibador toza akvarel bo'yoqlari sifatining xilma-xilligiga mashqlar va akvarel bo'yog'i ashyolarini yaxshi o'rganish hisobiga erishiladi.

### ***Yedirma (lessirovka) usulida ishslash***

Badiiy ta'limning boshlang'ich bosqichidagi akvarel bo'yog'ida ishslashning texnik usullarini o'zlashtirish jarayonida ko'p qatlamlari rang surtmalari qo'yish yedirma (lessirovka, nemis tilidan Lassieurung – yupqa qatlamda rang qo'yish) usuli keng qo'llaniladi. Bu usulning mazmuni shaklni qurish, koloritni boyitish, rangtasvir asari yaxlitligi va kompozitsiyauning uyg'unligiga erishishda turli rang-tuslarni olish uchun shaffof rang qatlamlarni bosqichma-bosqich ustma-ust qo'yishdan iborat.

Yedirma (lessirovka) usuli ko'pincha o'quv jarayonidagi uzoq vaqtga mo'ljallangan natyurmort ranglavhasi ishslashda tasvirlanayotgan buyumlar shakliga maydalab ishlov berish uchun qo'llaniladi. Ular bir necha seanslarda (ish bosqichlarda bajarishga mo'ljallangan) ko'zlangan natijaga bosqichma-bosqich bir rang qatlami ustidan ikkinchisini qo'yib borish bilan erishiladi. Katta mo'yqalam shuningdek kichik kichik o'lchamdagagi mo'yqalamlar (mozaikasimon rang qo'yish) bilan yedirma usulida tekisliklarni yopib boriladi. Lekin bo'g'iq, kir joylar hosil bo'lib qolmasligi uchun yedirma usulida bir-birining ustiga qo'ygan qatlamlar soni cheklangan bo'ladi.

SHuningdek akvarel rangtasvirida nafaqat texnik usullar yordamida balki palitrada ranglar tayyorlash bilan kerakli rang-tusga erishilishini ham esdan chiqarmaslik lozim. Rang-tusning xiralashib qolmaslik uchun bo'yoq aralashmasi 2-3 tadan ko'p bo'lmasligi kerak. Kerakli tusni olish uchun bir rang qatlamining ikkinchi rang qatlami ustiga aniq bilib va mohirona qo'yish bilan erishish qulayroq.

Birinchi rang qo'yishni nisbatan shaffof ranglarda boshlagan ma'qul. Ular ostidagi qog'ozning oq rangini o'zidan yaxshi o'tkazadi va qog'oz bilan yaxshi birikadi hamda keyingi qatlamni qo'yilganda yuvilib ketmaydi. Ustma-ust bir necha qatlamlarda qo'yishning iloji bo'lмаган yopuvchan bo'yoqlarni ishning oxirida yakunlovchi rang surtmasi sifatida qo'ygan afzal. Avval yaxshisi iliqtusdagi ranglarni, keyin esa sovuq va kam to'yingan ranglarni qo'ygan ma'qul. Birinchi qatlamda qo'yilgan iliqtusdagi rang ish yakunida kompozitsiyaning umumiyligi ko'rinishini yig'ib, o'ziga xos ranglar uyg'unligini hosil qiladi.

Ustma-ust bosqichlarda shaffof ranglar qo'yilishi natura qo'yilmasidagi rang va tus nisbatlariga ko'proq bog'liq. Rangi bo'yicha nisbatan to'q va to'yingan rang surtmalari birinchi navbatda qo'yiladi. Bunda ishni ranglavhadagi umumiyligi qurilmasi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan katta rang dog'laridan boshlanadi. Keyingi rang surtmalari qo'yish bosqichida odatda ko'proq buyum shakliga hajmdorlik, yarimsoyalar, soya va reflekslarni aniqlashga e'tibor beriladi. Tasvirdagi umumiyligi va yaxlitlikka erishish uchun qurigan yuzad tus va rang nisbatlarini qaytadan kuchaytirish ishlari amalga oshiriladi.

Ishni metodik ketma-ketlikda bajarish uchun har doim ushbu vazifaga qo'yilgan yakuniy maqsadni yoddan chiqarmaslik va ko'zda tutilgan natijani tasavvur qila

olish juda muhim. Bu kerakli rang-tusga erishish uchun keyingi qatlamdagi ranglar kerakli rang uyg'unligini hosil qilishini ko'zdan qochirmagan holda ilk rang surtmalarini o'ylab qo'yishni talab qiladi.

### ***Rang (mozaikasimon) surtmalarida ishlash***

Ko'p tajribali rassomlar akvarel bo'yog'idan kichik rang (mozaikasimon) surtmalari, dog'larida - ranglavha va eskizlar bajarishadi. Rang (mozaikasimon) surtmalari qo'yib ishlash usuli ishda rang qatlaming tozaligi, akvarel rangtasviridagi taranglik va jo'shqinlikni saqlab, naturani yanada chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Bu usulda bir vaqtning o'zida rang-tus, oqishlik va to'yinganlikni ham ifodalash maqsadida ranglavha mayda rang surtmalari bilan ishlanadi.

Bu usulni qo'llash uchun kerakli tayyorgarlik, malaka zarur, hamda tasvirga ko'p surtmalar qo'yish bilan ishdagi yaxlitlik va koloritni saqlash qiyin bo'lganligi sababli rassomda me'yor tuyg'usi talab etiladi. Bu usulning murakkab tomoni akvarelchi, ayniqsa boshlovchi rassomga qo'shimchaishlash usullaridan (masalan: lessirovka) foydalanmasdan turib ko'plab mayda bo'laklardan ranglar uyg'unligi, obraz yaxlitligini ifodalashga erishish juda qiyin. Bir urinishda kerakli rang-tusni topib qo'yish jarayonida rassom beixtiyor alohida bo'laklarga diqqatini qaratadi va tabiiyki bu bilan alohida bo'laklardagi tuslarni kuchaytirib yuborib xatoga yo'l qo'yishi mumkin. Bu holda ranglavhadagi tus uyg'unligini buzilib rang dog'lari cheti kuchli oldinga chiqib ketishi mumkin. Bu ayniqsa qurigan rang dog'lari ustidan bo'yoq surkalganda yanada sezilarli holatga keladi. SHuning uchun rangtasvir ishlaganda qo'yilmada nima asosiy, nima esa ikkinchi darajali ekanligini aniqlashga intilgan holda naturani va o'z ishini yaxlit ko'rishga o'rganish zarur.

Rang surtmalari (mazok) bilan ranglavhani naturani diqqat bilan tahlil qilib, o'rganib, seanslarda uzoq vaqt ishlash imkonini beradi. Naturadagi buyum ranglarini aniqlay borish bilan ularning har birini aynan o'zidek ishlashga urinish kerak emas. Bo'yagan va rangtasvirda rang qo'yib ishlangan ishlar o'rtasida farq katta. Alohida buyumlar ranglari o'rtasidagi farqni aniqlab, o'zaro bog'liq ranglarni solishtirish orqali rang qo'yiladi.

### ***Ho'l qog'ozga rangtasvir ishlash***

XVIII asr oxirida akvarel rangtasviri texnik usulining xilma-xilligi bilan ho'l qog'oz yuzasida ishlash ommalashib ketdi. Texnik jihatdan bu usul naturani hissiy idrok etish imkoniyati borligi, rang qatlamlariga ishlov berib har xil fakturlar hosil qilish, hamda ranglavhani bir urinishda tugatish mumkinligi haqidagi yangi tasavvur uyg'otdi.

Ho'l qog'oz ustida ishlash quruq yuzaga ishlashga nisbatan tezkorligi, ishlash texnikasining oddiyligi va qulayligi bilan farq qiladi. U bir rang ustidan ikkinchi rangni qo'yish usuliga asoslanadi. Bu texnikadan mohirona foydalanish orqali jozibali va jarangdor rang-tuslardan iborat rangtasvir yaratish mumkin.

### ***Qog'ozning ho'l yuzasida ranglar qo'yish***

Bu usul quruq qog'oz sathida ishlashdan "ho'llay ishlash" usuliga o'tish bosqichini ifodalaydi. U boshlovchi akvarelchi rassomga rangni idrok etish va yaxlit ko'rishni o'rganishga yordam beradi. Uning o'ziga xos tomoni ranglar rang va tus nisbatlarini hisobga olgan holda bir qatlamda bajariladi. Bu – ho'l qog'oz

sathida katta o'lchamdag'i mo'yqalam bilan avvaldan tayyorlangan ranglarda keng va yaxlit rang surtmalari bilan bir urinishda tugatiladigan rangtasvir usuli hisoblanadi. Ko'p qatlamlı rangtasvirida bo'lganidek bu usulda ish jarayoni bosqichlarga bo'linmaydi va dam olishlarsiz bajariladi. Ho'l qog'oz sathida rang qo'yish usulida ranglavhadagi umumiy koloriti va buyumlarning alohida ranglari kerakli rang tus to'qligida birdan berib tugatiladi. Bunday ishslash usuli tasvirdagi yengil, shaffof rang-tuslar bir rangdan ikkinchi rangga mayin va yumshoq o'tishini tahminlaydi.

Ishni boshlashdan oldin qog'oz yuzasi yengil ho'llab olinadi. "Ho'llay" ishslash usulida qog'oz suvni bir tekisda o'ziga shimib olib, yuzada ortiqcha suv qolmagandan keyingina rangtasvirni boshlash mumkin bo'ladi. Qog'ozning ho'lllik darajasi va planshetni har xil qiyalikda ushlab bo'yoqning kerakli yo'naliш va miqdorda yoyilish hamda kompozitsiyadagi kerakli ranglar garmoniyasiga erishish, bo'yoqning tiniqligi va shaffofligini ta'minlaydi. SHuningdek qog'ozning namligi ranglavhadagi alohida rang-tuslar o'rtasidagi chegaralarni yumshatadi. Natura qo'yilmasidagi rang-tuslar o'rtasidagi asosiy nisbatlarni oldindan aniqlab olib, rang berishni qog'ozning tepe qismidan boshlagan ma'qul. Qo'yilgan rang surtmalari qurib ulgurmasdan turib bir qismi yonidagi avvalgi bo'yoqlarga ham yengil qo'shib ketadigan keyingi ranglarni qo'yiladi. Agar qandaydir tahrirlash kerak bo'lib qolsa ular ham qurimagan bo'yoqlar ustidan qo'yiladi. Kerakli ranglarni avval palitra yoki barcha ranglar o'rtasidagi ranglar garmoniyasini ta'minlaydigan mexanik aralashtirish usulida to'g'ridan-to'g'ri qog'ozda ham qo'yish mumkin.

Ish jarayonida ko'pincha u yoki bu buzilgan joylarni to'g'irlash zarurati tug'iladi. "Ho'llay" qo'yilgan rang surtmalari odatda yoyilib surat chegarasidan chetga ham chiqib ketadi. Bu asosan bir rang ikkinchi rangga qo'shib ketgan joylarda ma'lum darajada qiyinchiliklar vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Akvarel qurib ulgurmasdan turib ortiqcha bo'yoq ko'loblari, keraksiz bo'yoq qatlamlarini ehtiyyotkorlik bilan yuvib yoki toza mo'yqalamda ohista shimdirlib olish lozim.

#### *A-lya prima usulida ishslash*

Akvarel rangtasviri ishslash jarayonida bu usulni qo'llash bilan kompozitsiyada ajoyib koloristik yechimiga erishish mumkin. Bu texnik usulning afzallik tomoni ranglavha yoki eskiz nam qog'ozga yorug'lik va ranglarning to'liq kuchidan foydalanib bitta seansda ishlab tugatiladi. Alla prima usuli qisqa fursatda bajariladigan nozik va yumshoq rang nisbatlarini berishga imkon beradigan uncha katta bo'limgan manzara ranglavhalari ishslash uchun juda qulay.

Katta rang dog'lari va siluetlarni ifodalashda rassom tasavvurdagi ranglavhaning yakuniy va umumlashgan obrazini saqlagan holda alohida yaxlit rang bo'laklarida ifodalashga majbur bo'ladi. Aytib o'tilgandek ranglavha dam olishlarsiz bir seansda ishlab tugatiladi. Lekin ba'zi rassomlar ustaxona sharoitida bu usulning bir seans emas ikki va undan ortiq seanslarda ishlashlari ham kuzatiladi. Bu holda oraliqdagi dam olishdan so'ng ranglavhaning yakunlanmagan qismlari yana bir bor namlanib keyin ishlanadi. Bo'yoqlar qurimasdan turib bo'yoq ranglarining bor kuchida ilojining boricha ranglavhaning ko'proq qismini ishlab olishga urinish lozim. Ilangan va qurib qolgan joylarga yana qaytib ishslash tavsiya qilinmaydi.

Ranglavhadagi barcha tuzatishlarni bo'yoqlar qurimasdan oldin bajarish kerak. Lekin agar ba'zi hollarda rangtasvirda ozgina o'zgarishlar ham qilish mumkin (masalan, ishdagi kichik yuza tusini o'zgartirishda). Bu holda kerakli joy shaffof ranglarda lessirovka usulida yopiladi.

Alla prima usuli rassomdan suratni aniq olish, bo'yoq xususiyatini bilish, ishning yaxshi o'ylab va tizimlibajarish, hamda boshlangan ranglavhani tugallay olish ko'nikmalariga ega bo'lismi talab etadi. Tasvirning jozibadorligiga rang-tus nisbatlarini bexato aniqlash va mo'yqalamdan mohirona foydalanish orqali erishiladi. Asosiy rang-tuslardan keskin farq qiladigan bo'yoqlarni ko'p qatlama ustma-ust qo'yish va quruq o'tkir ranglar qo'yishni bu usulda qo'llab bo'lmaydi. Ranglavhaning bir joyini bir necha marta rang berib ishslashda rantasvir kirlashib, shaffofligi va jozibadorligi yo'qoladi. Qayta-qayta ishslashga ko'nikan boshlovchi rassom juda aniqlikda bajarilgan surat ustida rangtasvir bajarishni tavsiya qilish mumkin. Bunday yondashish yosh akvarelchi rassomga naturani yaxlit ko'rish va ranglavhani oqilona bajarish imonini beradi.

Naturani bevosita idrok qilish, o'zining noyob sezgi tuyg'usiga tayanishda xato qilmaslik bu usulda ishslashning asosiy xususiyati hisoblanadi. Rassomdag'i bu sifatlar esa o'quv va ijodiy jarayonda ishlab tajriba orttirish orqali rivojlantiriladi.

### ***Ho'l qog'ozga pastasimon rang surtmalarida ishslash usuli***

Bu usulni qo'llash akvarel rangtasviridagi ranglarning sofligi, rang kuchi va jo'shqinligini saqlash va naturani chuqurroq o'rganish imkonini beradi. Katta o'lchamdag'i rangtasvirlar, ishslash uchun yetarli darajada vaqt ajratish mumkin bo'lgan murakkab vazifalar bajarish paytlarda bu usuldan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Uni qo'llash qog'ozning sekin qurishiga tayaniladi va alla prima usuliga nisbatan uzoq muddatga mo'ljallangan vazifalar bajarishda qo'llaniladi. Bu usulda rangtasvir bajarish bir qatlama ranglarda ishslash bilan cheklanilmaydi va shu bilan birga ranglarning bir-biriga yengil qo'shilib ketishini ta'minlaydi.

Ho'l qog'oz ustidan pastasimon rang surtmalari bilan ishslashdan oldin suvni shimib olishi uchun bir muddat qog'ozni suvga solib bo'ktiriladi. Suvni shimishini tezlashtirish uchun ba'zida qog'ozni suvdan olib, ishlanmaydigan teskari tomonini gubka bilan artib suvi qochiriladi va yana qaytadan suvga botiriladi. Qog'oz yaxshilab bo'kib bo'lgandan keyin qog'ozni yotiq holatda sezilar-sezilmas qiya joylashgan orgsteklo ustiga tekislab qo'yiladi. Bir tekisda yoyilishi uchun ehtiyyotkorlik bilan qog'oz ustidan gubka bilan ishqlab tekislanadi, shu bilan birga uning ostidagi ortiqcha suv va havoni chiqarib yuboriladi. Darhol ho'l qog'oz ustidan ishslashni boshlash mumkin, lekin bundan oldin bo'yoqlar oqib ketmasligi uchun qog'oz sathidagi ortiqcha suv yana bir bor gubka bilan shimdirlab olingandan so'ng bir muddat o'tib rangda ishslash maqsadga muvofiq bo'ladi. Surtmalarini yorug'lik va rangning bor kuchida tezkor, pastasimon va yorqin ranglarda qo'yiladi. Bo'yoqlar aralashmasi to'yingan va mumkin qadar yaxshi aralashtirilgan bo'lishi zarur. Bu usulda tyubikdagi bo'yoqlardan foydalanganligi qulayroq bo'ladi.

"Ho'l qog'oz" ustidan pastasimon rang surtmalarida ishslashda rassomdan tasvirlanayotgan natura xususiyatiga ko'proq e'tibor qaratilishi, yetarli tayyorgarlik va ko'nikma talab qilinadi. Alovida qismlar bo'yicha umumiylar obrazni saqlagan

holda jonli rangtasvir yaratish jarayonini tashkillashtirish, ishni qo'shimcha usullarsiz (masalan, lessirovka) tugallay bilish yosh rassom uchun bu usulda ishlashni ancha qiyinlashtiradi. Agar rassom ozgina dam olishiga to'g'ri kelib, ish bir seansda tugallanmay qolganda ishlanayotgan qog'ozni yana bir bor ho'llab olib keyin rangtasvirni yana davom ettirishi mumkin. Ish tugallangandan keyin qurishi uchun qog'ozni yotiqligi holda qoldiriladi va keyin uni quruq joyga o'tkaziladi.

### ***Bo'yoqni qog'oz sathidan (qirib) yuvib ishslash usuli***

Bu usul rangtasvirning akvarelchi rassomlar tajribasidan yaxshi o'tgan qulay va nisbatan keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Texnik jihatdan bu usul rangtasvir bo'yoq qatlamida har xil faktura hosil qilish imkonini beradi. Bu usulda rang nyuanslari nozikligi, rang dog'larining kutilmagan shakllar hosil qilishi, faktura shaklining bir-biriga o'xshamaslik effektlarining o'zaro uyg'unlikda birlashuvi natijasini kuzatish mumkin.

Rangtasvirda oldinga qo'yilgan vazifaga qarab qog'oz sathidan bo'yoqni yuvish usuli har xil bo'lishi mumkin. Keskin rang kontrastini hosil qilish uchun zichligi yuqori qog'oz navlaridan foydalanilgani ma'qul. Bo'yoqlar yuvilish darajasi qog'ozning suvni shimish xususiyati va bo'yoqning birikish tezligi hamda kuchiga bog'liq. Lessirovkali va yarim lessirovkali bo'yoq qatlamlarini yuvish natijasida jozibador rangtasvir dog'lari hosil bo'ladi.

Tayyor rang aralashmalarini keng va katta rang surtmalarida "ho'l qog'oz" sathida tezkor qo'yish bilan boshlanishi bu usulning o'ziga xos tomoni hisoblanadi. Bo'yoqni yuvib olishga mo'ljallangan joydag'i rang nisbatlarini aniqlangandan keyin bo'yoqning ho'l korpusli (kadmiy limon yoki sariq) rang berish usulida yopib chiqiladi. Bu holatda boshqa rang qo'yilmalari butunlay qurimaguncha yuvish uchun mo'ljallangan joylarni nam holatda ushlab turiladi. Keyin planshetni nisbatan tik holatda joylashtirib kuchsiz suv oqimida kadmiyli bo'yoqlarni butunlay ketguncha yuviladi. YUvish natijasida ranglavhada tasvir jozibadorligini kuchaytiradigan, rang-tuslari va shakl fakturasi bo'yicha o'ziga xos mayin rangtasvir dog'lari hosil bo'ladi. Rangtasvirning keyingai bosqichida ranglavhadagi och va to'q tusli joylar aniqlanadi. Tasvirning alohida bo'laklariga qo'shimcha ishlov berish kerak bo'lganda suvi siqib olingan mo'yqalam bilan ishlanadi.

### ***Bo'yoqni mo'yqalam, lezviya bilan sidirib olish usuli***

Bu usul texnikasi "ho'l qog'oz" sathi ustida pastasimon rang surtmalari qo'yishga asoslanadi. Rangtasvir deyarli gorizontal holatda joylashgan ho'l qog'ozga to'yingan, yorqin ranglarda tezkorlik bilan bajariladi. Moybo'yoq bilan bo'yoq qatlamini tanlashda uni tozalab yuviladi, suvi siqib tashlanib keyin chaqqon harakatlar bilan qog'oz yuzasidagi qurimagan bo'yoq qatlamlari sidirib olinadi. Rangtasvir ishslash jarayonida ba'zi yosh rassomlar bu usuldan akvarelda ishslashning asosiy ishslash usuli sifatida emas, balki xatolarni tuzatib bu joyga yangi ranglar qo'yish maqsadida foydalanishadi. SHu bilan birga qog'ozda qolgan izlar yumshoq, barxatsimon siluetlar qoldirib, o'z-o'zidan rangtasvirning jozibador ko'rinish olishiga sabab bo'ladi.

Bo'yoqni lezviya bilan sidirib tashlash qog'oz yuzasida suv qolmagan paytda bajariladi va qurigan bo'yoq xira barxatsimon tusga aylanadi. Bu usulda keskin,

aniq siluetli och shakllar hosil bo'ladi. Tanlangan qog'oz navi va bo'yoq turiga qarab ishlangan joydagi rang qatlami nisbatan ko'proq yoki ozroq to'yingan rang-tuslarga ega bo'ladi. YAxshi yelimlangan zichligi yuqori qog'ozlarda foydalanib bu usulda kerakli natijaga erishish mumkin.

### **Aralash texnikada ishslash**

Quruq va ho'l qog'oz ustida ishslash usulini birgalikda qo'llab naturadagi rang-tus nisbatlarini asta-sekin topib borib, rangning bor kuchida lessirovka bilan ham akvarel rangtasviri bajarish mumkin. SHu bilan birgalikda tasvirning jozibadorligiga erishish uchun ko'p rassomlar akvarel bo'yog'ini boshqa ashylar bilan uyg'unlikda, har xil usul va texnikalarni birgalikda qo'llab ham ishlashadi.

Rangtasvirda kamdan-kam hollardagina akvarelning faqat bitta texnik usul qo'llaniladi. Bu usullar har biri alohida ma'lum bosqichlarda, ba'zan bir-biri bilan qo'shib ishlatish qo'llaniladi bilan rassomning o'ziga xos uslubi yaratiladi. Masalan, qqog'ozning quruq yuzasiga rang surtmalari qo'yish ko'p qatlamlari rang qo'yib ishslash, rangli chiziqlar usuli bilan yaxshi uyg'unlashadi. Tanlangan bo'yoqlarni mo'yqalam yoki lezviyada sidirib ishslash o'z-o'zidan "ho'llay ishslash" usulini davom ettiradi. Har xil usul va texnikalarni birgalikda ishlatish rangtasvirni yanada boyitish bilan birga ranglavhada ortiqcha bo'yoqlar to'planishiga ham olib kelishi mumkin. Ortiqcha tuzatishlar, ezib ishslash, qayta-qayta bo'yoqni ko'p aralashtirib ranglavha ishslash akvarel rangtasvirining buzilishiga olib kelishini har doim yodda saqlash kerak. SHuning uchun maxsus mashqlar bajarib har bir usulni alohida o'rgangandan keyingina undan asar yaratish uchun foydalangan ma'qul.

Texnika va ashylar – bu faqat badiiy obrazlar yaratishning vositalari xolos. U yoki bu usulni mexanik tarzda qo'llash mumkin emasligina nazardan qochirmaslik zarur. Bu usullarning har birini qanday usullar bilan uyg'unlikda ishlatish rassomning didi, xarakteri va kasbiy tayyorgarligi hamda ijodiy yoki o'quv vazifalarni bajarishda o'z oldiga qo'ygan maqsadiga bog'liq.

### **Ottisk- chop etish. Monotopiya usuli**

YOrqin, to'yingan, fakturali va shaffof ranglar uyg'unligi bilan akvarel rangtasvirida ifodalangan tasvirlar kishini o'ziga ko'proq jalb qiladti. Ular akvarel rangtasviri koloritiga o'ziga xos jarangdorlik, yengillik va noziklik baxsh etadi. Amaliy mashqlar bajarganda asosiy usul va texnikalar bilan birgalikda rassomlar rangtasvirning jozibadorligi chiqishiga yordam beruvchi monotopiya usulidan ham ko'p foydalanishadi. Monotopiya – grafik texnika bo'lib, mazmuni rangtasvir yoki grafik asosdan ajoyib nusxa olishdan iborat. Monotopiya usulida bajarilgan akvarel ishlari fakturasining boyligi, ranglarning ajoyib birikuvi va rang dog'lari shaklining g'ayrioddiyligi bilan ajralib turadi. YAxshi yelimlangan silliq qog'ozda bu usulning o'ziga xosligi yaqqolroq bilinadi. Namlikni o'ziga yaxshi shimmaydigan qog'ozda shakl va rang aniq iz qoldiradi.

Akvarel bo'yog'i asos sifatida orgsteklo, plastik, hamda qog'oz yoki qattiq gorizontal yuzaga tortilgan matoga surkaladi. Bunda yopuvchan quyuq bo'yoqni suyuq bo'yoqlar bilan birgalikda ishlatish mumkin. SHartli rang dog'lari va aniq tasvirlar oynada ko'ringan aks holatida yaratiladi. Toza, quruq oq qog'oz avvaldan tayyorlangan asos ustiga qo'yiladi va olinadigan natijani hisobga olgan holda ustidan siypab yoki bosib surat qog'ozga ko'chiriladi. Keyin qog'ozni olib

quritiladi. Asosdan qog'ozni to'g'ri yechib olish (dastlabki *poligrafik bostirib olish yo'li bilan suratni tushirish joyi, harakat yo'nalihi*) faktura va rang dog'lari shaklini hosil qilish uchun katta ahamiyatga ega. Ish jarayoni vaqtida har xil usullarni qo'llash mumkin, lekin asosiysi hosil qilingan nusxa tiniqligi va tabiiyligini saqlab qolish juda muhim.

Turli tekis buyumlardan (g'ijimlangan qog'oz, mato, ip, barglar, o't-o'lanlar va h.k.) foydalanib har xil shaklli va fakturali rang dog'lari hosil qilish mumkin. Bunda harakat yo'nalihi va suratni bosish bosqichini hisobga olgan holda bo'yoqni buyumga, shuningdek to'g'ridan-to'g'ri qog'ozga ham surkash mumkin. Buyumlarning tabiiy fakturasini berish, suratni nisbatan aniq va jozibador bosish uchun silliq qog'oz navlaridan foydalanaladidi.

### ***Niqoblab ishslash usuli***

Akvarel bo'yog'ida har xil usul va texnikalarni qo'llab ishslashda qog'iz tusi yoki tasvir rangini saqlash uchun suv o'tkazmaydigan pylonka, rezinali yelim, parafin, mum, hayvon yog'i kabi yordamsi moddalar va ashyolardan foydalanaladi.

Niqoblash usulining mazmuni tasvirlash usulining birini qo'llaganda (quyma, ho'llay, yuvish va h.k.) suv o'tkazmaydigan pylonka yordamida kerakli rang dog'i (tasvir) ni uning ilk tabiiy ko'rinishida saqlab qolishdan iborat. Mum, parafin, yog'ga nisbatan suv o'tkazmaydigan plenkani qurigandan keyin yechib olish oson. Pylonkani yechib olgandan keyin tasvirda keyinchalik qo'shimcha ishlov berish mumkin bo'lган dog'ning aniq shakldagi silueti qoladi. Tasvirda kichik mayda nuqtachali fakturaga ega bo'lган nozik, toza, elastik chiziqlar yoki erkin katta rang mazoklari dog'lari hosil qilishda rezinali yelimidan foydalanaladi. To'g'ridan to'g'ri tyubikdan yoki qattiq mo'yqalam, ba'zan yog'och novdasidan foydalanalib yelimni yupqa qatlamda quruq qog'oz sathiga surkaladi. Kerak bo'lganda rezinali yelimga rastvoritel aralashtirish mumkin. Yelim butunlay qurib bo'lgandan keyingina akvarelda ishlab boshlanadi. Qog'oz yuzasida rang qo'yilmalari qurigach yakuniy bosqichda yelim barmoqlarda yengil harakat bilan yechib olinadi. Qog'ozdan yengil ko'chish xususiyatga ega bo'lman boshqa turdag'i "Moment", PVA, kanselyariya yelimidan foydalanalib bo'lmaydi. Oddiy rezina yelimi bilan bir qatorda xorijda ishlab chiqarilgan mana shu maqsadga mo'ljallangan yelimalar ham mavjud.

Tasvirning jozibadorligini oshirib ma'lum natijalarga erishish uchun rassomlar parafin, mum, mol yog'i kabi moddalardan ham foydalnishadi. Bu moddalar muallif g'oyasi bo'yicha quruq qog'oz yuzasiga surkaladi. Bu usul tuslangan yuzalarni niqoblash uchun ishning har xil bosqichlarida bir necha bor takrorlanishi ham mumkin. Quyma usuli bilan birgalikda ishlatilgan suv yuqtirmaydigan moddalar surkalgan joylar atrofidagi tuslarga nisbatan och ko'rinishda qoladi.

Niqoblash usulini qo'llash uchun ho'llanganda shishib ketmaydigan (deformatsiya) qattiq fakturali qog'ozlar qo'llaniladi. Tasvirni buzmasdan turib yog'li moddalarni qog'ozdan yechib olish juda qiyin. Oq qog'ozga surkalganda ular umuman ko'rinxaydi, qachonki yechilganda rang qo'yilmalari bilan kuchli kontrast ko'rinish hosil qiladi. Ishni boshlashdan oldin ulardan foydalishdagi bu kamchiliklarini ham hisobga olish zarur.

### ***Sepish usuli***

Sepib ishslash - texnik usul bo'lib, boshqa usullar bilan birgalikda qo'llanilganda kichik suv changidan tortib to yirik akvarel bo'yog'i tomchilari yordamida tasvirda ajoyib faktura hosil qilish imkonini beradi. Bu usuldan foydalanilganda akvarel bo'yog'ining asosiy xususiyatlari saqlanib qoladi. U kompozitsiya uchun zarur bo'lgan boshqa usullarda bajarish qiyin bo'lgan noyob kolorit, rang qatlamlarida shaffoflik va faktura hamda nozik rang nyuanslari yaratish imkonini beradi.

Oldinga qo'yilgan vazifaga qarab tasvir ustiga sepilgan rang dog'lari rangtasvir ko'rinishini boyitadi. Nam akvarel rang dog'lari, shuningdek quruq yuzaga ham sepish mumkin. Mayda rang tomchilarini qattiq mo'yqalam yordamida amalgalashiriladi. Ko'p rassomlar suvli bo'yoqlarni sepishda aerograf yoki bo'yoq sepish uskunasidan foydalanishadi. Rangtasvirning avvalgi bosqichlarda qog'ozning oqlik xususiyatini saqlab, rangtasvir tiniq va shaffof ko'rinishda qolishi uchun harakat qilish lozim.

Amaliy jarayonda ma'lum texnik bosqichlarda ishning yakuniy holatini tasavvur qilgan holda bo'yoqlarning asosiy xususiyatlarini hisobga olib rang dog'larini ustma-ust qo'yishni to'g'ri bajarish ko'nikmalarini shakllantirib borish zarur. SHuning uchun rassomdan ish boshlanishidan uning yakuniy holatini oldindan ko'ra olish hislari rivojlantirib borish talab qilinadi. Boshlamasdan avval ishni bajarish jarayonining barcha bosqichlarini oldindan o'ylab olish, eng zarur va kishini o'ziga jalgan qiladigan tasviriy san'at vosita va ashyolarini tanlab olish ishni yaxshi tashkillashtirish, eng ma'qul bosqichlarda amalgalashirish imkonini beradi.

### ***Pastel va oq bo'yoqlarni qo'llash***

Kolorit yaratish va ashyolardan mohirona foydalanishda ko'p rassomlar akvarelni pastel, rangli akvarel qalamchalari, guash, tempera, akril kabi boshqa tasvirlash ashyolari bilan qo'shib ishlatishadi. Bunda rangtasvirning texnikasidagi umumi kompozitsiyani buzib qo'yish xavfi mavjud. Masalan, akvarel rangtasviri xususiyatiga teskari bo'lgan oq guash rangi, pastasimon xususiyatli pastel qalamchalari izi shaffof ranglarga keskin qarama-qarshi ko'rinish beradi.

Aralash texnika bir qarashdan oddiy, ko'pqirrali va murakkab tuyuladi. Rangtasvir yaxlitligi va ishslash usulini buzmasdan turib to'g'ri olingan rangni o'z joyini topib qo'yish rassomning kasbiy mahorati sanaladi.

Asos bilan nisbatan yaxshi birikishi pastel bilan aralashtirib ishlashning o'ziga xos tomoni hisoblanadi. Asosiy rang-tus nisbatlari aniqlashning boshlang'ich bosqichlari akvarel bo'yog'ida bajarilsa, ingichka pastel qalamchalarida qo'shimcha ishlov berib ish yakunlanadi.

Bo'yoq qatlami ko'pqatlamli valer rangtasviri prinsipi usuli asosiga quriladi. Pastel rang surtmalari 6ilan tasvir ustidan ishlanadi. Pasteda bir rangni ikkinchi rang ustidan surkash natijasida kerakli rang jarangdorligi va rang tuslarining bir-biriga yumshoq o'tishiga erishiladi. Pastel ranglarini ko'pincha rassom barmog'ida yoki sousda ishslash usuliga monand ho'l mo'yqalamda ham surkashi mumkin. Bu yerda ikki xil usul mavjud: birinchisi tasvirga qo'yilgan pastel ustidan surkash. Ikkinchisi, avvaldan maydalangan tayyorlangan pastel kukunini ho'l mo'yqalam bilan surkaladi. Keyin rangtasvir jarayoni qurigan yoki ozgina namlangan yuza ustida davom ettiriladi. Tarkibida oqartiruvchi moddalar bo'lgan

pastel bo'yog'ining qurigandan keyin ocharib ketishi rassom bu usuldan foydalanganda ma'lum darajadagi tajribaga ega bo'lishi lozim. Buni esdan chiqarmagan holda bo'yoq qurigandan so'ng qanday tusga kelishini oldindan his qilgan holda qo'yish kerak. YAkuniy bosqichda kerakli tuzatishlar, o'zgarishlar quruq bo'yoq ustidan bajariladi. Akvarel rangtasvirida pastel bilan birgalikda xatolarni tuzatish maqsadida guash bo'yog'ining oq rangidan ham ko'p foydalilanadi. Intensiv akvarel bo'yoqlarga (golubaya FS, izumrudno-zelenaya, karmin, kraplak fioletoviy, va boshqalar) guashning oq rangini oz-ozdan qo'shib ishlatish ham nisbatan oqilona yechim hisoblanadi.

### ***Tuzdan foydalanish***

Bo'yoqning suvli aralashmasiga ta'siri natijasida qog'ozda fakturali dog'lar hosil bo'lishi oddiy osh tuzining akvarel rangtasvirida keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi.

Qog'oz hali ho'l paytida bu usul qo'llaniladi. Qog'ozdagি rang qo'yilmalari ustidan sochilgan tuz bo'lakchalari erib suv tomichisiga aylanib, qurigandan keyin ajoyib faktura hosil qiladi. Kerakli natijaga erishish maqsadida yirik, ba'zan mayda tuz donachalaridan foydalilanadi. Qog'oz juda ho'l bo'lganda tuz suvda erib yoyilib ketmasligi uchun uni elektrofen yordamida quritib jarayonga ta'sir qilish mumkin. Qurigandan keyin tuzni yengil yuvish yo'li bilan olib tashlanadi. Ishning yakuniy qismida talab qilingan joyga qo'shimcha ishlov beriladi.

Akvarel rangtasvirida ishlash amaliyotida keltirib o'tilgan usullardan tashqari qog'ozning kengayish xususiyati, trafaret qo'llash, bo'yoqqa siyoh, tush, sangina kabi bo'yoqlarni aralashtirib ishslash usullari ham maqo'llaniladi. Ularning har biri alohida o'ziga xos murakkablik xususiyatiga ega bo'lib, rassomdan sinchiklab o'rganish va sabot bilan o'zlashtirishni talab qiladi.

Har xil usul va texnikalarning umumiyligi tasvir ko'rinishini boyitib, borliqni haqqoniy ifodalash va badiiy obraz yaratishga xizmat qiladi. Lekin kasbiy mahorat va tajribasi qaysi usuldan foydalanishni tanlashda tajribali rassomga ichki sezgisi yordam beradi. Lekin yetarli bilim va tajribaga ega bo'limgan yosh rassom uchun bunday tanlov ancha qiyinchilik tug'diradi. Bu yerda rassom texnik usulni tasvirlash usuliga aylantirib olmasligi kerakligini esdan chiqarmasligi lozim. Oldinga qo'yilgan ijodiy yoki o'quv vazifa talabiga asosan aniq muhitdan kelib chiqib muammo yechimini topish uning asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

## **AKVAREL RANGTASVIRINIG O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Rangtasvir ishlashning asosi hisoblangan, akvarel rangtasvirini o'rganishning boshlang'ich bosqichida talabalar kelajakda yosh pedagog-rassomlarga zarur bo'lган badiiy didlarining o'sishi, ranglar uyg'unligini his qilish tuyg'ularini rivojlanishi hamda amaliy malakalar va nazariy bilimlarni egallahshlariga yordam beradi. Bu tanlagan mutaxassisliklari bo'yicha badiiy ta'lim xususiyati bilan bog'liq bo'lган nafaqat amaliy ko'nikmalar, balki nazariy bilimlarni o'zlashtirishlarida muhim ahamiyatga ega.

1 kursda talabalardagi kvsbiy tvyyorgarligini rivojlantirishda turli rangasvir texnikalaridan (akvarel, gkash, akril va h.k.) mohirona foydalanish, akvarel rangtasviri ashyolarini oqilona qo'llash, aslahalar, buyumla va ish joyi jihonlarini bilish va unjan mustaqil foydalana olish katta ahamiyatga ega. Natijada talabalar rassom-redagog uchun kerak bo'ladigan keng miqyosdagi maxsus bilimlarga ega bo'ladi. ko'nikmalarini oivojlantotshni o'rganish

Rangtasvirining asosiy xususiyati qalamtasvir, kompozitsiya, rangshunoslik, perspektiva va h.k. larni o'quv fani sifatida sinchiklab o'rganmasdan turib akvarelda ijodiy vazifalar va ranglavhalar bajarish qiyin.

Rangtasvirdan o'quv dasturida o'quv vazifalari ma'lum tizimdagi bosqichlarda bajarish belgilab qo'yilgan. Har bir vazifani bajarishga ta'lim va tarbiyaviy maqsadlar ko'zda tutilgan aniq talablar qo'yilgan.

Birinchisi, bu kompozitsiyani izlash va unga ishlov berish, shaklda hajmdorlik va harakat, rang-tus nisbatlari, material xususiyati, yorug'lik manbai va muhit, buyumning fazodagi o'rni, naturaning xarakterli sifatlarini, umumi yaxlitlikni rangtasvir vositalarida to'g'ri ifodalash va rassomning ranglavhani texnik bajarish mahorati. Rangtasvirda bu vazifalarning barchasi birgalikda rassomning badiiy ifodalash tilini aks ettiradi. Butun ta'lim jarayoni davrida talabalar har bir o'quv vazifa yechimini topish uchun murojaat qiladigan rangtasvirning asosiy unsurlari hisoblanadi. Bu vazifalar oddiydan murakkabga tomon bosqichma-bosqich bajarish ana'analari asosiga quriladi.

Ikkinchidan har bir vazifa yechimi nafaqat aynan shu vazifani bajarish jarayoni balki bundan keyingi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan barcha ranglavhalar ishslash jarayonida ham yechib boriladi.

Kompleksda o'quv-ijodiy vazifalar yechimini topish ko'nikmasi ish yakunida bo'lg'usi rassom-pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi va mahoratini belgilab beradi. Tizimli, chuqurlashtirilgan ta'lim tizimi orqali kasbiy mahorat, rangtasvir ishslash madaniyati o'sishini ta'minlanadi. Bir marta yechish (ayniqsa vazifa yuqori darajada yechilmagan bo'lsa) bilan oldinga qo'yilgan vazifaning yechimini topa olish qiyin. Mashqni ko'p martalab maqsadli qaytarish bilangina ishda ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Akvarel rangtasvirini o'rganish jarayonida o'quv vazifalarini bajarish usuli, uning bosqichlari, tahlil qilish va xulosa chiqarish bo'yicha talabalarning to'laqonli bilim olishlarini hisobga olib mashg'ulotlar olib borilishi lozim.

Talabalar kompleks kasbiy ko'nikmalarga ega bo'ladigan naturadan ranglavha (natyurmort) ishslash ta'limning boshlang'ich 1-2 kurslarida asosiy o'quv vazifasi hisoblanadi. Talabalardagi rangtasvirda yaxlit ko'rish, go'zallik va ranglar uyg'unligi hamda kompozitsiyani idrok qilish, nisbatlar bilan ishslash ko'nikmalarini rivojlantirishga asosiy urg'u beriladi. Keyin talabalardagi yorug'lik manbaiga nisbatan shaklni, hajmdorlikni rangda qurish, , kompozitsiyadagi harakat, muhit, holat, o'zgaruvchan ranglarni ko'rish va buyumning fazoda joylashishini belgilash ko'nikmalarini rivojlantirish vazifasi qo'yiladi.

Ilk natyurmort qo'yilmalari rang kontrasti aniq bilingan (och bo'lgani yaxshiroq) oddiy shakldagi buyumlardan tuzilganligiga e'tibor berish kerak bo'ladi. Keyin iliq va sovuq tusli; So'ngra esa natyurmort qo'yilmalari ranglari

bo'yicha kontrast o'zaro to'ldiruvchi ranglarga (qizil va yashil, sariq va siyohrang, ko'k va zarg'aldoq va h.k.) ega bo'lgan buyumlar ishtirokida tuziladi. Ilk natyurmort qo'yilmalarida fazoviylik cheklangan holatda bo'ladi, rangtasirni o'zlashtirib borgan sari natyurmortni atrof-muhit (nisbatan chuqur fazoviylik) bilan bog'lashga o'rganib borish zarur. Auditoriyaga mo'ljallangan vazifalar bilan birgalikda dastur bo'yicha talabalar mustaqil bajarishlari uchun uyga vazifalar ham beriladi. O'quv dasturlari bo'yicha mustaqil ishlar auditoriyada bajargan vazifalarni qayta ishslash bilan olgan bilimlarini mustahkamlashga mo'ljallanadi. Semestr yakunida bajarilgan ishlar kafedrada bir-biriga nisbatan solishtirib tahlil qilinadi va talabalar ishi baholanadi.

Talabalarning o'quv ishlari kafedra va ushbu fan bo'yicha yetakchi rassom-pedagoglar tomonidan tekshiriladi. Ish jarayonida talabalarga to'g'ri yo'nalish berish, yo'l qo'yilgan xatolarni vaqtida ko'rsatish hamda u yoki bu tuzatishlarning maqsadga muvofiqligiga talabalarni ishontirish o'qituvchining vazifasi hisoblanadi.

Semestr va kurs oxirida o'tkaziladigan o'quv ishlarining ko'rige va imtihon paytidagi og'zaki javoblariga natijasida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari tekshiriladi. YAKUNIY ko'rikda talabalarining butun o'quv jarayoniga tegishli rangtasvirdan o'quv ranglavhalari, mustaqil ishlari ko'rgazma sifatida qo'yiladi. Baholashda nafaqat vazifani formal bajarilishi, balki baholash me'zonlariga asosan dasturdagi vazifalarning bajarilish darajasi hisobga olinadi. Amaliy ishlar ko'rige imtihon turi bo'lib, u kafedra o'qituvchilarini ishtirokida o'tkaziladi. Ko'rik natijasida jamoaviy fikrlarga tayanib o'quv fani va talabalar ishlariga qo'yiladigan umumiylar asosida yakuniy xulosa chiqarish, hamda fanni o'qitishdagi to'g'ri metodik yechimni topish va fanlarni o'qitish darajasining oshirilishiga imkon beradi.

## NATURADAN RANGTASVIR ISHLASH METODIKASI

Bilim, ko'nikma va malakani tinimsiz oshirib borish bilan akvarel rangtasvirida ishslash mahoratini oshirishda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bunda navbatdagi har bir vazifa yechimini uzluksiz bajarib borish juda muhim. Ta'limning asosiy maqsadi shaklni qurishdagi asosiy qonun-qoidalarini o'rganib borish, naturani ijodiy idrok qilish muammlarini anglab yetish va uning yechimini to'g'ri topishdan iborat.

Ta'limning boshlang'ich bosqichida foydalanish uchun akvarel nisbatan qulay va arzon material hisoblanadi. 1-kurs va 2-kurs birinchi semestrida 5110800-Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalarini natyurmort ishslash bog'liq bo'lgan vazifalarni asosan akvarelda bajarishadi.

Natyurmort bo'yicha o'quv vazifalari naturani sinchiklab o'rganishni talab qiladi. Rassom ishning yakuniy holatini ko'z oldidan qochirmagan holda vazifani metodik ketma-ketlikda bajarib borib kerakli ijobiy natijaga erishishi mumkin. Natyurmort ustida ishslash jarayonida talabalarda kompozitsion fikrlash, ishnini tashkillashtirish, naturaning o'ziga xos xususiyatlarini yaxlit ifodalash, shakl, rang va jozibadorligini idrok qilish ko'nikmalari tarbiyalanib boradi.

## **Natyurmort rangtasviri**

Rangtasvir bo'yicha dasturda natyurmort janrida o'quv vazifalari bajarish nazarda tutilgan. Oldinga qo'yilgan maqsadga qarab vazifalar uzoq va qisqa muddatli ranglavhalar bajarishga bo'linadi. (3-jadvalga qarang). Qisqa muddatli ranglavhalar o'z navbatida rangtasvir vosita va ashyolarini maqsadli va faol o'zlashtirishga qaratiladi.

Uzoq muddatli ranglavhalarning vazifasi – natura, uning shakl xususiyatlari, harakat, nisbatlar, kolorit, chiziqli-konstruktiv qurish, yorug'lik va boshqalarni chuqur va har tomonlama o'rganishdan iborat. Uzoq muddatli ranglavhalarda nisbatan jozibador vositalar va ulardan foydalanish, naturaning xarakterli xususiyatlarini tanlab olish tezkor va qisqa muddatli ranglavhalarga nisbatan farqli jihatli hisoblanadi.

Naturaning umumiy kompozitsion sifatlarini ifodalab tez bajarilgan tasvirlar qisqa muddatli ranglavhalar sirasiga kiradi. Bu ranglavhalarda birinchi navbatda naturadagi nisbatlari, shakl harakati, buyumlarning rang-tusidagi farq, umumiy plastik va rang xususiyatlarini ifodalash vazifasi qo'yiladi.

Natyurmort ranglavhasi ustida ishlar ekan talabaga qarash nuqtasini aniqlash va buyumlarni tekislikda joylashtirishdan tortib to yorug'lik manbai va muhitni hisobga olgan holda rangda ularning xususiyatini ifodalash kabi bir qator vazifalar yechimini topishga to'g'ri keladi. Ranglavhani oqilona bajarish uchun talabaga ishni boshlash bosqichidan to uni tugalashgacha bo'lган bir necha bosqichlarni aniqlab, ranglavhaning har bir bosqichini ongli ravishda bajarish imkonini beradi. zarur.

ranglavhasi bajarganda naturaning murakkabligiga qarab uni bajarish bosqichlari aniqlanadi. Lekin asosiy bosqichlar sifatida

1. Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;
2. Nisbat, harakat va fazoviy joylashishlarini hisobga olgan holda shaklning chiziqli konstruktiv yechimini topish;
3. Umumiy rang-tuslarini aniqlash; naturadagi umumiy katta tus va rang nisbatlarini berish;
4. Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ularga rangda ishlov berish;
5. Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiyya bo'ysundirish.

**I bosqichga** oldindan nisbatan yaxshi bajarilgan eskiz qo'yiladi.

O'quv vazifasini bajarishga kirishishdan oldin tayyorgarlik uchun o'ziga xos tezkor ranglavha bajariladi. Naturadan qarab rang yoki qalamda kichik o'lchamdagи qoralama va ranglavhalar ishlanadi. Bu qoralamalarda natyurmortning umumiy kompozitsion tuzilishi aniqlanadi. Didaktik maqsadda tashkillashtirilgan o'quv natyurmorti qo'yilmasida rassomga yorug'-soya va rang-tus nisbatlari yordamida bir guruh buyumlarning yaxlitligi, ularning yoritilganligi va hajmdorligini bera olish kabi bir necha vazifalarning yechimini topish yuklatiladi.

Kompozitsiya ishlashda butun diqqat natyurmortni kartina tekisligida joylashtirishga qaratiladi. Natyurmortdagi buyumlar guruhining balandligi va eni, fazoviy bo'liq, buyumlar kattaligi va rangining kontrastlik darajasiga qarab rassom qog'oz o'lchami va holati, kompozitsiya markazi, rang va tus nisbatlarini aniqlaydi. Kompozitsiya markazi go'yoki kamerton vazifasini bajarib markazdan tashqarida joylashgan barcha qolgan buyumlarni o'ziga jalb qiladi. u shakl, tus, rang va boshqa kontrast turlari bo'yicha alohida ajralib turishi mumkin lekin o'zaro bog'liq buyumlar majmuasidagi natyurmort yaxlitligidan ajralib qolmasligi kerak.

Natyurmort ishlashda format tanlashdan emas btr-biriga bog'liq buyumlar guruhining yaxlit tasviridan boshlash tavsiya qilinadi. Birinchi qoralamalarda ularning o'zaro bog'liqligi kuzatilib, keyin format aniqlanadi.

Buyumlar guruhidagi chap va o'ng tomon, ustki va pastkiqismidagi bo'sh joylar katta kichikligini aniqlash format tanlashning nozik tomoni hisoblanadi. Buyumlar asosiy guruhi atrofidagi bo'sh joylar soni ko'pincha ularning fazoda joylashgan o'rnlari bilan bog'liq. Amaliyot ko'rsatadiki asosiy guruhnini ikkinchi planda joylashtirish nisbatan yaxshiroq hisoblanadi.

Bevosita kompozitsiyaning muvozanati qonun-qoidalari bilan bog'liq savol tug'iladi. Kompozitsiya markazi ko'pincha geometrik markaz bilan muvofiq kelmaydi. Kompozitsiya markazini geometrik markazdan uzoqroqda joylashtirish ko'z qarashini tasvirda ichkari tomonga yo'naltiradi.

Kompozitsiya markazini u yoki bu tomonga joylashtirilganda natyurmortga rang va tus kontrasti shkalalariga mos ikkinchi darajali buyumlar, unsurlar qo'yish bilan muvozanatga erishiladi.

SHunday qilib kartina tekisligining muvozanati rang va tus kontrastini izlash, ikkinchi darajali bo'laklar joylashtirish va kompozitsiyaning g'oyaviy markazini aniqlash bilan bog'liq.

II bosqich alohida buyumlarning chiziqli-konstruktiv qurish, shakl nisbatlari va uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlab borish bilan boshlanadi. Hajm yasaydigan yuzalarning perspektiv qisqarishlarini hisobga olib har bir buyumning fazodagi joylashishiga asosiy e'tibor qaratiladi. Bir buyumning ikkinchi buyumga nisbatan gorizonttal tekislikda joylashishini aniqlash maqsadida sidirg'a rang berib asosiy buyumlarning yaxlit surati bajariladi va shu bilan birga fazoviy bo'shliqda ular planlar bo'yicha joylashtirib chiqiladi.

Natyurmortni eng yaxshi yechimini topish rassomning qarash nuqtasini to'g'ri topishiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Gorizontal tekislikning qay darajada ko'rinishi ko'zning qarash chizig'i past yoki balandligiga bog'liq. Nisbatan kengroq gorizontal tekislik fazoviy bo'shliqning kengligini ta'minlab, fazoda buyumlarning joylashish o'rnini aniqroq ko'rish, natyurmortni tashkil etuvchi buyumlarning alohida bo'laklari maromidagi uyg'unlikni his qilish imkonini beradi.

Natyurmort ranglavhasini bajarishdagi III bosqich umumiyligi rang-tusini aniqlash, alohida buyumlar hamda fon o'rtasidagi rang-tus nisbatlari yordamida katta rang shakllarini topish bilan bog'liq. Kompozitsiyaga keyingi ishlov berish natyurmortdagi yaxlitlikni saqlagan holda kompozitsiya markazi jozibadorligini kuchaytirish, rang va tus nisbatlarini yanada aniqlashtirib borishdan iborat.

Rang-tus nisbatlarnining umumiy holatini aniqlash, buyumlarning ochligi, rang-tusi va to'yinganligi ranglavhada rang-tus gammasini o'zaro uyg'unlikda qurishning muhim sharti hisoblanadi.

Tasvirning jozibadorligi kontrast qonun-qoidalarining yuzaga chiqishi bilan uzviy bog'liq. Rang va tus, shakl va o'lcham kabi kontrastlik munosabati butunlay natyurmort janriga tegishli. SHu bog'liqlik sababli natyurmortni tasvirlashda natura qo'yilmasini sinchiklab tahlil qilish lozim.

Natyurmortni tasvirlashda har doim kompozitsiya markazini yodda saqlagan ma'qul, kuch jihatdan rang va tus dog'lari bir xil bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, chunki bu kompozitsiya yaxlitligining yo'qolishi va maydalanib ketishiga olib keladi.

Rangni tus va ochlik hamda to'yinganlik xususiyatlarini birgalikda to'g'ri olish qiyin bo'lgan ta'limning dastlabki bosqichida – natyurmortni kam to'yingan ranglardan asta-sekin yorqin rang nisbatlarida to'yintirib borib, uzviy ketma-ketlikda diqqat bilan ishlab borish eng yaxshi usul hisoblanadi. Bunda alohida bo'yoqlarning o'ziga xos xususiyatlari va ularning boshqa ranglar bilan aralashtirilganda o'zgarishini esdan chiqarmaslik kerak. CHunki ba'zi hollarda bir marta qo'yilgan rang dog'ini ko'p qatlamda qo'shimcha bo'yoq surtmasi qo'yib ham o'zgartirib bo'lmaydi.

Akvarel rangtasviri shu'la tushgan joylarini yopmasdan qog'ozga avval och tusdagi bo'yoq surtmalari qo'yib ishlash texnikasiga asoslanadi, undan keyin esa tasvir nisbatan to'yingan ranglarda ishlab boriladi. Keyingi rang qatlamlari kerakli rang uyg'unligini ifodalashiga erishish maqsadida kerakli rang-tuslarni hosil qilish uchun dastlabki rang surtmalarini yaxshi o'ylab ehtiyyotkorlik bilan qo'yiladi.

Ranglavhani ortiqcha bo'yoqlarsiz, bir-ikki qatlamdag'i rang surtmalarida bajarishga intilish kerak. SHaffoflikni yo'qotish bilan tusning yorqinligi va to'yinganligi ham yo'qotiladi. Qog'ozning oq rangidan bo'yoq qatlamini ostidan yoritib, unga o'ziga xos shaffoflik va jarangdorlik baxsh etadigan asos sifatida foydalaniadi. Bo'yoqning shaffofligi, rang qatlaming yorqinligi akvarel bo'yog'ining asosiy yutug'i hisoblanadi. Rang kuchidagi o'zgaruvchanlik unda bir rang surtmasini ikkinchisi ustiga qo'yish, katta yuzalarda keng rang surtmalari qo'yish, bo'laklarga maydalab ishlov berish imkonini beradi.

Natyurmort ishlashning **IV bosqichi** yorug'-soyalar ko'lami va kompozitsiyadagi barcha buyumlarning materiallik sifatlarini chiqarib borish bilan shaklning hajmdorligiga ishlov berish amallari bajariladi. Ularning shaklini qurib borish yoritilish muhiti hamda ranglarning iliq va sovuq tusli kontrastlik darajasi, o'zaro reflekslarga qarab rang va tus holati o'zgarishini hisobga olgan holda buyumlarga ishlov berib boriladi.

Alohida buyumlar yoki bo'laklarga ishlov berilar ekan, ularni birdan tugallanguncha ishlashga harakat qilish kerak emas, aksincha, ulardag'i o'zaro, shuningdek yaxlit naturaga nisbatan rang-tuslarini solishtirgan holda ishlab borgan ma'qul. Alohida qismlarga ishlov berish natijasida ranglavha kompozitsion yaxlitligini yo'qotadi. Oldigi va keyingi planlarda joylashgan buyumlar o'rtasidagi rang-tus munosabatlarining buzilishi hisobiga ranglavhadagi keragidan ortiq rang-baranglik holati yuzaga kelishi mumkin. SHuning uchun natyurmort

kompozitsiyasi ishlashning yakuniy ***beshinchi bosqichi*** - ikkinchi darajali bo'laklar hamda orqa planda joylashgan buyumlarni umumlashtirish bilan birga birinchi plandagi buyumlarni aniqlashtirish orqali tasvirdagi yaxlitlikka erishiladi. Agar alohida rang dog'lari ranglar qatoridan ajralib, oldinga "yorib" chiqib kelsa yoki orqadagi bo'shliqda qolib ketgan bo'lsa uni yetishmayotgan rang tusi bilan yengil yopilib, bu holga barham beriladi.

Akvarel rangtasvirida yakuniy rang lar qatlamini qo'yishda umumiyligi rang-tusni kuchaytirish yoki xiralashtirish juda ehtiyyotkorlik va sinchkovlikni talab qiladi.

Rang dog'lari chetidagi haddan ortiq keskinlikni yumshatish ranglavhanini umumlashtirishning eng muhim usuli hisoblanadi. Buning uchun toza mo'yqalam va suv kerak bo'ladi. Akvarel ranglavhasidagi umumiyligi tusni ochartirishda mo'yqalamga suvni shimdorib uni ajralib qolgan keskin chegaralar bo'ylab yuritiladi. Bunda mo'yqalamga tez-tez suv shimdorilib, atrofiga nisbatan rang dog'inining keskin chegara qismida sezilarli bosib tortiladi.

Ranglavhaning tugallanish bosqichida akvrel rangtasviridagi kompozitsiya markazini ham hisobga olgan holda umumiyligi tusni kuchaytirish yoki ochartirish usuli bosqichlaridan unumli foydalansa bo'ladi. Alohida bo'laklarni umumiyliga bo'ysindirish, natyurmortdagi asosiy obrazlari va g'oyaviy mazmunini ifodalash bilan ranglavhadagi vazifa yechimini topish mumkin. Natyurmortda yopug'lik, buyumlarning shakl hajmdorligi, materiali, umumiyligi rang va tus yechimini bera olish ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida ajarilgan o'quv ishlari sifatini belgilaydi.

Vazifani bajarishning maqsadli va metodik yo'naltirilganligi, materiali aniq ko'rinish turgan hajm jihatdan oddiy, tus jihatdan rang-barang buyumlarni tanlash kerak bo'ladi. har bir natbrmort qo'yilmasi ma'lum bir o'quv vazifani ifodalashi kerak. Vazifaning murakkablashishi buyumlar soni yoki matolardagi burmalarni ko'paytirish emas, balki bajariladigan vazifaning metodik maqsadini murakkablashtirishdan iborat. Natyurmortda rang-tus va g'oyaviy mazmuni jihatdan buyumlar o'rtasida o'zaro bog'liqlik bo'lishi A-2 formatdan kam bo'lmasligi kerak. Qoralama uchun ilk bajarilgan ishlari A-3, A-4 formatda bo'lishi mumkin.

### **Rangtasvir haqida tushuncha. Xolis fonda 2-3 geometrik jismidan tuzilgan sodda natyurmort ishslash (Grizaylda)**

#### **Rangtasvir haqida tushuncha**

Qalamtasvir bilan birgalikda rangtasvir ham asosiy o'quv fanlaridan biri hisoblanadi. Rangtasvir imkoniyatlari cheksiz va vositalari turli tuman. Bu fan talabalarni yaxlit ko'rish, qog'ozda to'g'ri joylashtirish, keng rang ko'lamlarini idrok qilish, ularning bir-biri bilan nisbatlarini topa olish, ranglarda barcha elementlarning o'zaro bog'liqligini bera olish to'g'risida nazariy bilimlar va ularni amalda qo'llash malakalari bilan qurollantiradi. Buyumlarning shakl xususiyatlari va rang o'zgarishlari, qog'ozning yoritilishi, fazoviy joylashuv, ikkinchi darajali va asosiy bo'laklarni ajrata olish, kompozitsiyadagi rang munosabatlari, o'zaro mutanosibligini his qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ta’limning boshlang’ich bosqichida birinchi muhim vazifalardan biri – bu naturani to’g’ri idrok eta olishdir. Ko’zni rang va ularning tuslanishini to’g’ri idrok etishga o’rgatish akvarel texnikasi orqali amalga oshiriladi. Bu texnikada boshlaganda ob’ektning yoritilish xususiyati va buyumlarning uzoq-yaqindaligiga qarab ranglarning o’zgarish qonuniyatlarini o’rganish yengil kechadi. Rangtasvida “rangni sezish” yoki “shaklni idrok etish” kabi naturani hissiy idrok qilishni rivojlantirish ham juda muhim.

Tasvirlanayotgan buyumlarning o’ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi yorqin va jozibador ranglarda tezkor ranglavhalar bajarish bilan talabalar rangtasvida buyumning umumiyligi badiiy obrazini yaratishni o’rganadilar.

### **Realistik rangtasvirning maqsad va vazifalari**

Oliy o’quv yurtlarida realistik rangtasvir ishlash o’quv vazifalari u yoki bu vazifaning yechimini topishga urg’u berilgan natura qo’yilmalarining bosqichma-bosqich murakkablashib borishini ko’zda tutadi. Har bir vazifani ishlash muddati cho’zilib boradi, shu bilan birga ranglavhaning tugallanganligiga nisbatan talab ham kuchayib boradi. Talabadan nazariyani chuqur o’rganish va olingan bilimlarni amalda maromiga yetkazib qo’llay olish talab etiladi. Bu tasvirlash mahoratini kasbiy darajada egallah va atrof muhitdagi turli shakl va ranglarni ko’ra olish ko’nikmalarini rivojlantirish bilan bog’liq. Aniq maqsadga yo’naltirilib rivojlantirilgan rassom ko’zi qarashi shakl va ranglarni o’tkirroq va nozikroq ko’ra oladi, hayotdaggi qiziqarli holatlarni tez ilg’aydi. Ko’z qarashini rivojlantirmay turib “qarash mumkin lekin ko’ra olmaydi” degan rassomlar o’rtasida gap yuradi. Naturadan qo’yilmalar ishlash jarayonida talabalar atrof muhitdagi bizni o’rab turgan rang va tuslar boyligini haqqoniy ifodalay olish uchun rangtasvir vositalaridan foydalanishni o’rganadilar. Rangtasvirni o’zlashtirish uchun barcha vazifalar tizimi naturani o’ylamasdan mexanik ko’chirishga emas balki, borliqni chuqur anglagan holda haqqoniy aks ettirishga asoslab quriladi. Birinchi mashg’ulotdanoq talaba kompozitsiyadagi asosiy va ikkinchi darajali elementlarni farqlab ular ichidan eng keraklisini ajrata bilishni o’rganishi kerak.

Realistik rangtasvir vositalaridan mohirona foydalana olish rassom shaxsiyatining rivojlanishiga yordam beradi. San’at tarixiga nazar solar ekanmiz naturani chuqur o’rganish natijasida, ishonarli va haqqoniy obrazlar yaratib asarlarida shakl va mazmunning uyg’unligiga erishgan ko’plab iste’dodli rassomlarni ko’ramiz.

Ma’lum muhitdagi naturani ko’rish va his qilish murakkab vazifa sanaladi. Bu esa realistik rangtasvir ishlashning eng muhim jihatlaridan biridir. Rangtasvir fanini o’zlashtirishda rassom-pedagoglar rayyorlash darajasi qo’yiladigan talablarga ko’ra: talabalar naturadan, xotiradan va tasavvurdan rangtasvir ishlashni bilishlari, ranglarda ishlay olish, ranglarning o’zaro uyg’unligi, ranglar ko’lami, tuslanishlari kabi tushuncha va nisbatlarni farqlay olish ko’nikmalariga ega bo’lishlari kerak.

Talaba bir-birini qaytarmaydigan har xil texnik usullarni topa olishi, ma’lum favqulorra ko’zda tutilmagan holatlarda yuzaga kelgan savollarga aniq javob topa olish, o’zaro uyg’unlikdagi va jarangdor ranglar orqali rangtasvirning butun

nozikligini ifodalovchi badiiy obrazning yaxlit ko'rinishi, buyumning o'ziga xosligi va barcha murakkabliklaridagi asosiy badiiy yechimini topishi zarur.

SHuningdek talaba rangtasvirni o'rganishda:

- rang xususiyatlari, yorug'lik va rang kontrastlari, lokal ranglar haqidagi bilimlarni ega bo'lishi;
- rangtasvirda fazoviy perspektiva qonunlari va yorug'likning ahamiyatini bilish va amalda qo'llay olishi;
- akvarel rangtasvirida har xil texnika va usullar (lessirovka, "ho'llay ishslash", quyuq bo'yoqda ishslash, "a lya prima") haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- naturadan buyumlarni to'g'ri tasvirlash:
  1. formatda mohirona joylashtirish;
  2. yorug'-soyani mushoxada qilib bajarish;
  3. buyumning materialini ifodalashga erishishi zarur.
- har xil materiallarda ishslash malakalariga ega bo'lishi lozim.

### **Xolis fonda 2-3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishslash (Grizaylda)**

*Geometrik jismlar guruhidan (3 tadan ko'p bo'lмаган) tuzilgan gatyurmort qo'yilmasi 1 yoki 2 burmali xolis rangdagi mato fonida qo'yiladi. (1-a -rasm).*

O'quv vazifasi: quruq qog'oz sathida rang surtmalari qo'yish texnikasida katta rang-tus yechimini topish, yorug'-soyalar ko'lami yordamida jism hajmini ifodalash.

YOndan tushib turgan tabiiy yorug'lik. Vazifa A-2 formatda bajariladi. Material –akvarel bo'yog'i.

### **Tayanch iboralar**

Geometrik jism, natyurmort, akvarel, realistik rangtasvir, faktura, grizayl, lessirovka, kub, shar, silindr, piramida, kompozitsiya, fon, perspektiv qurish, komponovka, vertikal, gorizontal, kvadrat, eskiz.

### **Reja**

1. Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;
2. Ishni bitta rangda boshlash. Tus jihatlarini aniqlash;
3. Umumiylrang-tuslarini aniqlash; naturadagi umumiyl katta tus va rang nisbatlarini berish;
4. Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;
5. Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiylga bo'ysundirish.

Boshlovchi rassom uchun birinchi mashg'ulot juda muhim hisoblanadi. Aynan shu bosqichda talaba kerakli materiallar bilan tanishadi. Aynan shu yerda ular xilma-xil badiiy ashyolar va vositalar orasidan eng keraklisini tanlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishadi.


Bu mashg'ulotda oddiy mashqlar: rangda yopish, rang qo'yish, surkash, rang ko'lamlarini ajratish kabi oddiy mashqlar bajariladi. SHuningdek akvarelda har xil jonli va jozibador effektlar hosil qilish yo'llari shrganiladi.

Bu mashg'ulotda keyingi ijodiy jarayon uchun zarur bo'lgan shakl va hajm, yorug' va soya, chiziqlar va rang dog'lari kabi tushunchalar tahlil qilinadi. Har xil buyumlarning fakturalarini ifodalash va rangtasvir uchun eng zarur asosiy bo'lgan kompozitsiya tushunchasi haqida ma'lumotlar beriladi.

SHubhasiz, realistik rangtasvirda tus hal qiluvchi muxim ahamiyatga ega. Tuslarni o'rganish uchun boshlovchi rassom avvalo bir xil ranglar (grizayl)da ranglavhalar bajarishni mashq qilishi kerak. Ranglavha (fransuzcha etude – o'rganish; mehnat, naturadan bajarilgan ma'nosida) – bu rassom o'zining kasbiy ko'nikmalarini takomillashtiradigan, tasvirni jozibali, haqqoniy tasvirlash mashqi hisoblanadi. Buyumlardagi ochlik va to'qlikni aniqlashga yordam beradigan tuslar doirasi mashqi va ayrim mavzuli mashqlar bajaramiz.

Bu mashqlar yosh rassomlarning rangda ishlashdan oldingi tayyorgarlik bosqichi bo'lib, rangtasvir texnikasini yetarli darajada egallashlarida juda katta foyda beradi. Grizayldagi och va to'q tuslarda ishlash akvarel rangtasvirining cho'qqisi desa ham bo'ladi. Bu usulda mustaqil mashqlar bajarish natijasida tez orada bu akvarelning kutilmagan toza, nozik ranglarda tuslanishini ko'rib, bu g'aroyib texnikada ishlab shuncha mehnatingiz besamar ketmaganligiga o'zingiz iqror bo'lasiz<sup>11</sup>. O'quv jarayonini bochqichlarga ajratish bilan tus nisbatlarini o'rganish muammolarning yechimini topish mumkin: rangtasvir mashg'ulotlaridagi I bosqich – bu tasvirdagi tuslar nisbatini aniqlash va ishlov berish, ya'ni berilgan vazifani "grizayl" texnikasida bajarish hisoblanadi. SHuning uchun o'quv jarayonida talabalarga grizayl texnikasida ishlashni o'rgatish maqsadida bu mashg'ulotlar o'quv dasturlariga kiritilib, bu vazifalarni bajarish talabalar uchun shart qilib belgilab qo'yilgan.

SHunday qilib natyurmortni grizayl texnikasida bajarishni boshlaymiz va shu bilan birgalikda akvarel texnikasining asosi bo'lgan lessirovka (edirma) usulida ishlashni o'rganamiz. Ish bir xil qora, jigarrang yoki sepiya ranglarida bajariladi. Har xil tuzilishdagi (kub, shar, silindr, piramida va h.k.) hajmi jismlarning yorug'-soya xususiyatlarini bitta rangda ifodalash – bu vazifaning asosiy maqsadi. Fon uchun xolis kulrang mato yuqoridagi jismlar ishtirokida kontrast yorug'likda



<sup>11</sup> Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York, 10014 54-6et

yoritilgan natyurmort kompozitsiyasi tuziladi. Bu vazifa qalamtasvirdan rangtasvirga o'tishning o'ziga xos bosqichi hisoblanadi. Qat'iy shaklga ega bo'lган geometrik jismlardan tashqari bu yerda yorug'-soya muhitini tahlil qilish va ifodalash, material xususiyatlaridan kelib chiqib shaklga ishlov berish talab etiladi. Tus jihatdan yorug' va soya ko'rinishlaring har biri alohida xususiyatga ega. Buni yaxshi tushinib olish uchun asosiy ishni boshlashdan oldin yorug'-soya ko'lamlarini ifodalashga oid juda oddiy bir misolni ko'rib chiqamiz.

Rangtasvirda buyumlarni aks ettirish uchun - yorug'lik, uning shakli va hajmini ifodalash uchun - soya juda muhim. Rangning har xil tus ko'lamlari yordamida hajmni bera olishimiz mumkin. Uning bu xususiyati qalamtasvir va rangtasvir kompozitsiyalari yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bu fikrni tushunib olishimiz uchun ushbu suratni ko'rib chiqamiz. Buyumdag'i mavjud rang ko'lamlarini ko'rish va tushunib etish maqsadida kuzatish va taqqoslash yo'li bilan ushbu mashqni bajarib ko'ramiz. Oq va qora bo'yoqlar qo'shib hosil qilingan beshta qo'shimcha rang ko'lami har qanday buyum rangini ifodalash uchun etarli bo'ladi.

Har qanday narsaning chuqurligi va hajmi quyidagi bir qator rang-tus ko'lamlaridan iborat:

1. tushib turgan soya; 2. shaxsiy soya; 3. yarim soya; 4. refleks; 5. soyadagi qismning ochlashib borishi; 6. YOrug'lik; 7. shu'la




Bu suratda buyumning hajmini ifodalash uchun qo'llaniladigan tus ko'lamlarini ko'rib turibsiz (belgilangan raqamlarga e'tibor bering). Xuddi shunga o'xhash tuslar ko'laminani aniqlash mashqini boshqa qog'ozda bajaring. Olma o'mida boshqa rangdor meva (m-n:apelsin) tanlashingiz ham mumkin.<sup>12</sup>

YOritilgan yuzalar cheti kontrast kuchi bo'yicha soya bilan chegarada tomoshabin nazarida ochroq idrok qilinadi. O'z navbatida oq materialning (gips) yorug'likni qaytarishi hisobiga – soya yuzalari sidirg'a to'q ko'rinishda bo'lmaydi.

Tuslangan tasvir o'zaro uyg'unlikdagi yorug'-soyalarni yaxlit ifodalashi zarur. Qog'ozning oq yuzasi va rangning eng ochdan to eng to'qqacha bo'lgan tuslaridan foydalaniib rassom tasvirlanayotgan buyumning nafaqat shakli balki hajmi, yorug'-

<sup>12</sup> Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s 127

soyasi, fazoda joylashishi va har bir materialning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashi mumkin.



**9-rasm. Natyurmortda ishlatilgan tus ko'lamlari**

Mo'yqalamlarni hech qachon suvga botirilgan holatda qoldirmang. Bu uning ezilib, qiyshayishi, uchliligining yo'qolishiga sabab bo'ladi.

Grizaylda rangning ahamiyati yo'q, unda buyumning faqat tusi hisobga olinadi. Belgilangan surat bo'yicha rang surtmalarini to'g'ri qo'yish. Avvalombor barcha soya qismlar rang berib yopiladi hamda tushuvchi soyalar yengil shaffof ranglarda qoplanadi. Barcha yorug' qismlariga bo'yoq tegizilmay ochiq qoldiriladi. YArim soya va fonga yengil ishlov berib fon, yorug' va soyalar o'rtasidagi tus nisbatlari aniqlanadi. Bu nisbatlarni saqlagan holda yorug'-soyaga ishlov beriladi. Reflekslarga ishlov berganda ular och bo'lib, umumiylashtirib, natyurmort kompozitsiyasi yaxlitliga erishish juda muhim.

Umumiylashtirib, natyurmortning eng yorug' joyi va eng to'q joyi aniqlanib, har bir alohida bo'lakni bu ikki tus bilan solishtirib yorug'-soyaga ishlov beriladi. Bu bosqichda barcha mayda bo'laklarni umumiylashtirib, natyurmort kompozitsiyasi yaxlitliga erishish juda muhim.

Biz akvarelda grizayl ishlashning bosqichlarini ko'rib chiqamiz.



### I bosqich.


I bosqichda geometrik jismlar guruhini perspektiv qurish ishlari albatta komponovkadan boshlanadi. Boshlang'ich eskizda komponovkaning vertikal, gorizontal, kvadrat kabi har xil variantlarini bajarib ko'rish mumkin. Qachonki eskizda kompozisiya haqida bir to'xtamga kelgach, asosiy formatda ishlashga o'tish mumkin. Asosiy formatda qo'yilgan natyurmortdagি buyumlarning umumiylashtirish, ularning asoslarini bir-biriga moslashtirish amallari bajariladi. Bunda har bir buyumning yonidagi jismlarga nisbati, ulardagi burchak qiyaliklari, doira yoki oval shakllarining o'zaro nisbatlari sinchiklab o'rganib chiqiladi.

### II bosqich.

Perspektivadagi asosiy tekisliklar shuningdek buyumlar joylashgan tekislikni belgilanadi. Maydalab ishlamagan holda har bir buyumning xarakterli xususiyatlarni, joylashgan o'mini, barcha buyumlarning o'zaro nisbatlarini aniqlanadi.



### **III bosqich.**



Bu bosqichda umumiylar rang tuslarini aniqlash; naturadagi umumiylar katta tus va rang nisbatlarini berisib, ranglar yechimiga ishlov berib boriladi. Natyurmortning eng to'q va eng och qismlarini aniqlashtiriladi. Natyurmortning qanday yoritilganligiga e'tibor berish juda zarur. Katta yuzadagi umumiylar yorug' va soya joylarni topib borilib, avval soya qismlariga ishlov beriladi. YOrug' va soyalarni ishlash bilan buyumlar hajmini berish mumkin. Ranglar bilan ishslashda rangni yaxlit berishga harakat qiling.

### **IV bosqich.**

Ishni katta va yaxlit rang nisbatlarida ishlashni davom

ettiring. Natyurmortdagagi kenglik, fazoviy perspektivani ifodalash uchun birinchi plandagi ranglar qarama-qarshiligini kuchaytirib, buyumlarni aniqroq tasvirlang, orqa planni yengillashtirib, ba'zi joylarini ochartirish mumkin. SHu yo'l bilan kompozitciyadagi fazoviy bo'shliqni ifodalanadi. Faqatgina buyumlarning tusiga emas, balki hajmi, shakli hamda uning materialini ham berish uchun diqqatingizni jalb qiling.<sup>13</sup>

Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berib, to'q ranglarda yorug' soya ko'lamlarini aniqlang va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov bering;

Beshinchchi bosqich..

Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab; barcha mayda bo'laklarni umumiyliga bo'ysundirish ishlarini bajarib natyurmortni yakunlashingiz mumkin.



### **Xulosa**

YUqorida o'quv mashg'ulotlar jarayonida grizaylda ishslashga doir bir necha vazifalar ko'rib chiqildi. Aziz talaba bu vazifani bajarish jarayonida shaklni rang dog'lari yordamida qurish uchun rang surtmalarini kerakli joyga qanday qo'yish, buyumning shakl va hajm jihatdan qanday qurilganligi haqidagi tushunchalarga ega bo'ldingiz.

<sup>13</sup> Sultanov X. "Rangtasvir" (grizaylda ishslash). Metodik qo'llanma. T.-2014. 8-9 -b.

Bu yerda biz siz bilan tuslarning och-to'qliq darajasidan foydalangan holda tuslar ko'lami ketma-ketligini qurish, buyumning har xil tus darajasini topish, bir necha bosqichlarda tasvirni tusda ifodalash mashqini ko'rib chiqdik. Oq qog'oz sathida rang surtmalari qo'yish texnikasida katta rang-tus yechimini topish, yorug'-soyalar ko'lami yordamida jism hajmini ifodalash, yorug'-soya muhitini tahlil qilish va ifodalash, material xususiyatlaridan kelib chiqib shaklga ishlov berishni o'rgandik.

Bundan tashqari mo'yqalamlarda bir xil bo'yoq bilan ishlar ekanmiz, hajmni har xil och-to'qlikdagi rang surtmalari yordamida qurish bilan rangtasvirda tuslarning ahamiyatini tushunib oldik.

YOrug'lik, yarim soya, soyalar, kuzatilayotgan naturadagi mutanosib tuslarning och-to'qlik darajalari - bu barchasi qo'yilgan natyurmort kompozitsiyasidagi tuslar ko'lami ekanligi haqidagi bilib oldik. Bu mashqimiz keyingi mashg'ulotlarimizda buyumlarni ranglarda ishlashimiz uchun birinchi qadam bo'ldi.

### **Nazorat savollari**

1. Akvarel bo'yoqlari qaysi san'at turida ko'p qo'llaniladi?
2. Akvarel bo'yog'i yaratilishiga qachon asos solingan?
3. Suvbo'yoq texnikasida tasvir ishlashda qanday ashyolar, ish qurollari zarur?
4. «Grizayl» nima?
5. SHu'la (blik) deb nimaga aytildi?
6. Tasvirlash uchun qanday qog'iz turlari mavjud?
7. Qanday mo'yqalam turlari mavjud, akvarel uchun qanday mo`yqalamlar ishlatiladi?
8. Kamalakdagagi ranglar nechta?

### **Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish (Akvarel)**

*Geometrik jismlar guruhidan (3 tadan ko'p bo'lman) tuzilgan gatyurmort qo'yilmasi 1 yoki 2 burmali xolis rangdagi mato fonida qo'yiladi.*

O'quv vazifasi: qog'oz sathida rang surtmalari qo'yish texnikasida katta rang-tus yechimini topish, yorug'-soyalar ko'lami yordamida jism hajmini ifodalash.

YOndan tushib turgan tabiiy yorug'lik. Vazifa A-2 formatda bajariladi. Material –akvarel bo'yog'i.

### **Tayanch iboralar**

Idrok etish, tuslar nisbati, rang surtmalari, yaxlit ko'rish, kontrast, yorug'lik kuchi, natura, palitra, karmin, qalamchizgi, tasvirlashning texnik tili, obraz, estetik his/

### **Reja**

- 1.Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;
- 2.Ishni ikkita rangda boshlash. Tus jihatlarini aniqlash;
- 3.Umumiylrang-tuslarini aniqlash; naturadagi umumiylkatta tus va rang nisbatlarini berish;

4.Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;

5.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiyyga bo'ysundirish.

Bu vazifa o'tgan natyurmortning uzviy davomi hisoblanadi. Ikki-uch rangli buyumlardan tuzilgan ushbu natyurmort xolis fonda cheklangan ikkita bo'yoq rangi ishtirokida bajariladi. (16-rasm).

Vazifaning maqsadi –har xil ranglardagi buyumlarning hajmdor shaklini faqat ikki rangda ifodalashdan iboratdir. Bundan avvalgi vazifada aniq yorug'-soyaga ega bo'lgan bir xil oq fakturali gips jismalarni ishlangan bo'lsa, bu safar birmuncha murakkablashgan rangli yuzalar shaklini idrok etish va tuslar nisbati yechimini topish kerak bo'ladi.

Har qanday yangi bo'lgan mashg'ulotga qo'l urilar ekan, maqsadga etish uchun inson har xil ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar oqibatida bu mashg'ulotni keyingi safarga surish yoki umuman to'xtatishga harakat qiladi. Akvarelda ishlashni o'rganish uchun talabidan texnika, ko'nikma, ko'p mehnat va sabr-qanoat bilan tinmay mashqlar qilishni talab qiladi.

Tasviriy san'atda ranglar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning xususiyatlarini quyidagicha: rang tusi... och to'qligi va to'yinganligi ajratish mumkin.<sup>14</sup>



CHeklangan ranglar yordamida mashqlar bajarish orqali akvarelning ushbu xususiyatlarini o'rganish rassom uchun juda foydali.

Bu mashg'ulotlar natijasida siz jozibador chiziq'lar va rang surtmalaridan mohirona foydalanish texnikasiga oid maxsus ko'nikmalarni egallash jarayoni q'anchalik tez yoki uzoq', engil yoki og'ir kechishiga baho bera olasiz. O'zida bunga nisbatan ishonch yuq'ori bo'lgan kishi maq'sadga tezda erishishi muqarrar. CHizmatasvir va rangtasvirni o'rganishning yaxshi tomoni – bu kishidagi kuzatish,

<sup>14</sup> S.Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir: Toshkent- "O'zbekiston" -2006/ 13 bet

axlit ko'ra olish va ko'rinishdagi asosiyni tanlash badiiylashtira olish ko'nikmasini oshiradi.<sup>15</sup>

Agar natyurmort qo'yilmasiga to'q va och, barxatsimon va silliq fakturali kontrast tusli buyumlar qo'yilsa vazifa yanada murakkablashadi. Rangning yorug'-soyaga ta'siri uning yorug'likni qaytarish xususiyatiga bog'liq bo'ladi. To'q tusli buyumning yorug'likka qaragan yuzasi oq buyumning soya qismiga nisbatan ko'p quyosh nurini ko'p qaytaradi. SHuning uchun och tusli buyumning soya qismi to'q buyumning yorug' tomoniga nisbatan to'qroq bo'ladi. Natyurmort qo'yilmasi uchun buyumlar tanlanganda bo'yalgan buyumlarning yorug'lik kuchi bir xilda bo'lmasligiga e'tibor berish kerak. SHaklga ishlov berishdan oldin buyumlarning yoritilganlik xususiyati, qaysinisi nisbatan to'q, qaerda ko'proq yoritilganligini aniqlash, to'q buyumlarning yorug' joylari va och buyumlarning soya qismi o'zaro muvofiqligi, xususiy va tushuvchi soyalar to'qligi kabi kompozitsiyadagi guruuhlar tuzilishini yaxshilab o'rganib chiqish kerak. Ishning natijasi tasvirdagi barcha bunday xususiyatlarini nisbatan to'g'ri solishtirishga bog'liq.


Badiiy ta'limda "katta rang, "katta shakl, "katta soya" degan iboralar mavjud. Bu maxsus tushunchalar tasvirning ma'lum holatini ifodalaydi. Ularning mazmuni naturani yaxlit idrok qilish, shuningdek idrok qilingan tasvirning rangtasvir asarida yaxlit aks ettirishdan iborat. Ranglavhaning tusda to'g'ri ifodalanishi tasvirga yaxlitlik, o'ziga xos badiiy jozibadorlik, hamda shakl qurilishi qonun-qoidalarini bilish ranglavhadagi bir rangda keyingi jami ranglar palitrasи bilan ishslash uchun yaxshi asos bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi amaliy mashg'ulotimiz cheklangan ranglardagi akvarelda natyurmort ishslash mashqini ko'rib chiqamiz. Mavzu bo'yicha silindr, kub shar tasvirini rangdor fonda bajarish mashqini bajaramiz. Bu mashg'ulotda biz akvarelning ikki rangidan foydalangan holda bajaramiz. Lekin bu ikki havorang va karmin (puntsov) rangdan qora va qog'ozning oqligini hisobga oladigan bo'lsak mashq jarayonida foydalananidan yana bir necha xil rang-tuslar hosil bo'ladi. Bu bilan biz faqat mana shu ranglardagina ishlaymiz degani emas, bu ranglardan tashqari ikki rangni aralashtirish bilan bir necha tuslar ham hosil bo'ladi. mashq uchun quyidagi ashyolardan foydalananamiz.


## Tanlangan 2 xil bo'yoq rangi

---

<sup>15</sup> Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, England.2003/s-15





**10-rasm.** Havorang va karminni qo'shib hosil qilinadigan tuslar



Natyurmort qo'yilmasi


Ishga kirishishdan oldin har xil variantlarda natyurmort kompozitsiyasini tuzib chiqamiz.




Natyurmort uchun atributlar

**Mashqning I bosqichi:** jismlarning konstruktiv tuzilishining boshlang'ich qalamchizgilarini chizib kompozitsiyadagi perspektivani aniqlab olamiz. Siz nimani ko'rayotganligingizni rangda ifodalashingiz ranglarni idrok qilish va tasvirlashning texnik tilini birlashtiruvchi murakkab jarayon hisoblanadi. Bu siz ko'rayotgan narsangizdan oddiy nusxa ko'chirish degani emas. Har bir tasvirlanayotgan obraz qanchalik aniq bo'lmasin rassomning qalbida jo bo'lgan estetik hissi va hissiy tajribasining mavhumligidan kelib chiqib aks ettirilishi kerak.<sup>16</sup>


<sup>16</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 24




**II bosqich:** qog'oz yuzasini ho'llab chiqamiz, qurigandan keyin geometrik jismlarga tegmagan holda fonni mo'yqalam bilan yana bir bor ho'llaymiz. Bu safar fon qurib ulgurmasdan asosiy fondagi havorang va karmin bo'yogida rang berib chiqamiz.



**III bosqich:** geometrik jismlarga rang berib boshlaymiz.



**IV bosqich:** umumiy ranglarni to'qlashtirib, shu bilan birga oq joylarini ochartirib borgan holda chuqr soyalar va mato burmalariga ishlov beramiz.<sup>17</sup>



## Xulosa

<sup>17</sup> Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s-56-58  
71

O'tgan natyurmortning uzviy davomi hisoblangan Ikki-uch rangli buyumlardan tuzilgan ushbu natyurmortni akvarelning cheklangan ikkita rangi ishtirokida bajarildi.

Avvalgi mashg'ulotda aniq yorug'-soyaga ega bo'lган bir xil fakturali gips jismlarni ishlangan bo'lsak, bu safar birmuncha murakkablashgan rangli yuzalar shaklini idrok etish, faqat ikki rangda har xil rangdor buyumlarning yorug'-soyalar ko'lami yordamida hajmdor shaklini ifodalash va tuslar nisbati yechimini cheklangan bo'yoqlarda topishni o'rgandik.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** CHeklangan bo'yoqlarda meva va uy-ro'zg'or buyumlaridan sodda natyurmortlar ishslash.

### **Nazorat savollari**

- 1.Torshon qog'oz xususiyati va u nima uchun ishlatiladi?
2. Kompozitsiya so`zining ma'nosini ayting?
3. Geometrik jismlar nomini ayting?
- 4.Jismning konstruktiv tuzilishi deganda nimani tushunasiz?
- 5.Perspektivaning ta'rifini ayting?
- 6.Tasviriy san'atda obraz nima?
- 7.Natyurmort atamasi nimani bildiradi?
- 8.Rangtasvirda qanday vositalar qo'llaniladi?
- 9.Siyohrangni tayyorlash uchun qaysi ranglar aralashtiriladi?

### **Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.**

Xolis fonda oddiy shaklli uy-ro'zg'or buyumlaridan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi. Natyurmortni tashkil qiluvchi buyumlar materiali, shakli va o'lchami bo'yicha har xil bo'lishi lozim.

O'quv vazifasi: fon va buyumlar rangiga qarab rang reflekslarini izlash va tasvirlash, umumiy rang muhitini ifodalash.

Tabiiy yorug'lik (baland yon tomonidan). A-2 format. Material –akovarel.

### **Tayanch iboralar**

Nabor, tus ko'lamlari, uyg'unlik, eksperiment, badiiy g'oya, kuzatish moslamasi, syujet, janr, asl rang, tasavvur, metodik bosqich, kompozitsion qurilish.

### **Reja**

- 1, Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;
2. Umumiy rang-tuslarini aniqlash;
3. Naturadagi umumiy katta tus va rang nisbatlarini berish;
4. Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;
5. Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiyya bo'ysundirish.

Tabiiy yorug'likda sovuq va iliq tusli oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlaridan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi ishlash. (2-rasm (a,b,v)).

O'quv vazifalar: cheklangan ranglardan (asosiy ranglar - qizil, ko'k, sariq; cheklangan ranglar palitrasи) foydalanib iliq-sovuq ranglar muhitining umumiyl holatini berish. Tabiiy yorug'lik (baland yon tomonidan). A-2 format. Material – akvarel.

Realistik shakllarni rangda qurish qonun-qoidalarini o'rganish - rangtasvir texnikasi bilan tanishish. O'tgan vazifalarda buyumlarning shakl tuzilishini bitta va ikkita rangda qurishning o'ziga xos tomonlari o'rganilgan edi.

Bu mavzumizda nabordagi asosiy ranglardan foydalanib natyurmortdagি naturaning rang xususiyatlarini ifodalash talab qilinadi. Vazifa bajarish mobaynida yangi ranglar bilan tanishib, ranglar doirasini hosil qilish va ulardan foydalanish o'rganiladi.

. Qarama-qarshi ranglar, qo'shimcha ranglar hamda asosiy va hosila ranglar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Mustaqil ish sifatida koloritga doir ijodiy vazifa bajariladi.

Lekin bu degani barcha bo'yoqlarni ishlatish shart degani emas, ishni bachkanalashtirib yubormaslik uchun kamroq, faqat ushbu ishga aloqador bo'yoqlarni ishlatgan ma'qul. SHuning uchun dastur bo'yicha yosh rassomlar umumiyl xatolarga yo'l qo'ymaslik va ishni oddiy bo'yash yoki rang-barang qilib bachkanalashtirib yubormasligi uchun ilk mashg'ulotlarda cheklangan bo'yoq ranglaridan foydalanish vazifalari qo'yiladi. Unda uchta asosiy bo'yoqlar: qizil, ko'k, sariq (moybo'yoqda ishlashda unga oq va qora ranglar qo'shiladi) tanlab olinadi. Kerakli rang aralashmalarini tayyorlash uchun ushbu bo'yoqlar yetarli. Cheklangan ranglar jamlanmasi kerakli tayyor ranglarni palitradan olib emas, balki ularni aralashtirish yo'li bilan topish imkonini beradi. Bundan tashqari bunday mashqlar bajarish orqali talaba faqat ko'p sonli ranglar bu hali haqiqiy rangtasvir degani emas, haqiqiy rangtasvir bu - bitta rangda ko'plab tus ko'lamlari, uning tarkibini ko'rish, palitradan bu tuslarni topa olish va tasvirda boshqa ranglar bilan uyg'unlikda ifodalashdan iborat degan aniq tasavvurga ega bo'ladi.

Yangi ishni boshlashdan avval: o'z ijodiy usulimni topish yo'lida yangi texnikani o'rganish, kompozitsiyalar tuzish hamda har xil rang va usullarda ishlashni eksperiment qilib ko'rish faoliyatimdan zavqlanamanmi? – degan savolga javobingizni aniqlab olishingiz zarur. Sizning motivingiz ish jarayonidagi sizning badiiy g'oyangiz bo'lib, kompozitsiyani tugatganingizdan keyin o'z maqsadingizga qanchalik erishganingizni aniqlab beradi.<sup>18</sup>



Ishni boshlashdan oldin qo'yilgan natyurmortni har tomonidan kuzating va o'zingizga ma'qul kelgan nuqtada o'tirib, bu nuqtadan qaraganda kompozitsiya

<sup>18</sup>Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 36

yotiq ko'inishdami yoki tik holatda bo'lishligi aniqlab olgandan keyin uni qog'ozga joylashtirishni boshlang.

Atrofidagi narsalar chalg'itmasligi uchun natyurmortga kuzatish moslamasi orqali qarab undan asosiy ko'inishni ajratib oling va uning qog'oz yuzasida chiroyli joylashishiga e'tibor bering. eng oddiy kuzatish moslamasi sifatida o'z qo'l barmoqlaringizdan foydalanishingiz mumkin.


Ruxli oq	Sariq	Limon sariq	Kadmiy o'rtacha sariq	Sariq oxra	Neopolitan sarig'i	To'q tillarang	Zarg'aldoq rang	Shaxnazar sarig'i	Kinovar qizili	Kadmiy och qizil	Olovrang qizil	
Rubin qizili	Karmin qizili	Och kraplak qizil	Temir oksidi qizili	Bordo qizili	Pushtirang	Siyohrang pushti	Siren rangi	Siyohrang	Spektr kobalt ko'ki	Ultramarin	Berlin lazuri	
Kobalt ko'k	Havorang	Sereleum	Havorang	Havorang lazur	Biryuza	Sariq yashil	Zumrad yashil	Asl yashil	Yashil	Xrom oksidi	Nosrang	
Zaytun rangi	Tabiiy siyena	Umbra	Kuydirilgan umbra	Jigarrang mars	Kuydirilgan siyena	Sepiya	Voronej qorasi	Payne kulrangi	Indigo	Kuydirilgan suyak rangi	Xolis qora	

Bunda ko'rsatgich va bosh barmoqlaringizni to'g'ri burchak holatida ochib, kaftlaringizni ko'z qarashingizga teskari holatda oldinga cho'zing. Bu holatda rasmda ko'rsatilgandek o'ng qo'lingizning bosh barmog'i chap qo'lingizning bosh barmog'iga, chap qo'lingizning ko'rsatkich barmog'i o'ng qo'lingizning ko'rsatkich barmog'iga tik holatda bo'lib, kuzatayotgan ko'rinish tomonga qaratganingizda barmoqlaringiz orasi to'g'ri to'rtburchak ko'rinishda bo'ladi. Qo'llarni kerakli darajada ochib ko'rinishni xolst o'lchamiga moslashtirish mumkin. Mana shu ochiq bo'shliq orqali qarash kamera ob'ektividan to'rtburchak sahnaga qarash effektini beradi. Ayni vaqtida 35 mm slayd o'lchamdag'i to'g'ri burchakli slayd, yoki kartondan qirqilgan burchaklar ham kuzatish moslamasi vazifasini bajaradi.<sup>19</sup>

<sup>19</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 39



Kartondan qirqib tayyorlab olingan bir juft qora burchak yordamida kompozitsiya syujetlarini kuzatish, o'rganish va kompozitsiyaning eng muhim qismlarini tanlab olish uchun juda qulay moslama hisoblanadi. Undan natyurmort, manzara va portret janrlarida rangtasvir ishlashda foydalanish mumkin.<sup>20</sup>



Birinchi vazifalarda murakkab, topilma ranglarni tayyorlay olmaslik kabi muammolar ham paydo bo'ladi. Bu yerda nafaqat qo'yilmadagi naturaning rang-tusini, balki ularning och-to'qligi va to'yinganligini ham aniqlash muhim sanaladi. Buning uchun palitrada ranglarni topishga harakat qilib, aralashtirilgan rangni naturadagi boshqa ranglar bilan solishtirib tasvirda ranglar nisbati aniqligiga erishiladi. Buyumning asl rangini topish hali bu talaba oldiga qo'yiladigan murakkab vazifa yechimi topilishi degani emas. yorug'lik tushib turgan, yarim-soya, soya qismlarida bu rangning tuslarini ko'ra olish kerak. Faqat tuslarni bir-biri bilan solishtirib nisbatlarini to'g'ri topish orqali buyumning rang xususiyatlari haqidagi tasavvurga ega bo'linadi.

Tasvirlanayotgan buyumdag'i har bir rang tarkibiga yorug'ik nurlari ta'sirida ko'plab tuslardan paydo bo'lgan murakkab rang sifatida qarash kerak. Oynadan tushayotgan yorug'lik nuri yoritilgan joylarga sovuq tus beradi. YOritilgan butun

<sup>20</sup> Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s-114

yuzada yorug' joydan soya chegarasigacha o'tgan har xil nozik tus ko'lamlari hosil bo'ladi. YArimsoyalarda nisbatan buyumning asl rangi saqlanib qoladi. Reflekslar, tushuvchi soyalar bilan qo'shib barcha soya qismi yorug' tushib turgan tomoniga nisbatan iliq tuslarda bo'ladi. Ishda iliq – sovuq tuslarning rangda ifodalanishi qancha aniq bo'lsa, rangtasvirdagi harakat va uning jozibadorligi shuncha oshib boradi. Vazifada metodik bosqichlarda bajarishga rioya qilish katta ahamiyatga ega. Birinchi naturadagi yorug'-soya va rang umumiy holatini aniqlash, tekislikda asosiy nisbatlarni topish amallari bajariladi. Bu jarayon qog'oz sathi xususiyatlarini esdan chiqarmagan holda yengil va erkin bajariladi. Boshlang'ich bosqichlaridayoq bo'yoqning suyuq va quyuq ishlash xususiyatlarini hisobga olib yirik o'lchamli mo'yqalamlarda katta yuzalarga ishlov berishga o'rghanish kerak. Rangtasvirdagi uyg'unlik nafaqat buyumning rang va shakli, balki uning materiali, yorug'lik manbai xususiyatini ham ifodalashi lozim.

«Rangtasvir – tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash natijasida... bo'yoqlar va nozik farqlar kuchini uzoq vaqt kuzatish orqali borliqni to'laqonli ifodalash mumkin» – deb aytgan edi K.F.YUon.


Rangning kuchi (to'yinganligi) farqlarini rang nafisligi yoki och-to'qligi bo'yicha aniqlashdan mushkulroqdir.<sup>21</sup>

**I bosqich:** kompozitsiyani joylashtirib, uning qalamda umumiy ko'rinishini chizib olamiz. Mashq uchun quruq qog'oz va iliq bo'yoqlarni tanladik.




**II bosqich:** natyurmortdag'i mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tuslarni aniqlab, katta yuzalarga ishlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin–asta to'qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo'laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir–biriga uyg'unlashgan, iliq tusdagi kompozitsiya hosil bo'ladi.

<sup>21</sup> S.Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir: Toshkent- "O'zbekiston" -2006/ 13 bet




**III bosqich:** kartinaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. SHu'la tushib turgan joylar uchun oq qog'ozda joy tashlab ketishni unutmang. Tezda qarama-qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog'lar ko'rinishlari sizni qo'shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi.





**IV bosqich:** umumlashtirish yakunlash ishlari. YUvib tashlash bilan oq joylarini ishlang. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring. Alovida bo'laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun to'qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko'zdan panaroq joyga qo'ying. Ozroq muddat o'tgandan so'ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko'ra boshlaysiz va uni to'g'irlash mumkin bo'ladi.



## Xulosa

Bu mashg'ulotimizda cheklangan ranglardan (asosiy ranglar - qizil, ko'k, sariq; cheklangan ranglar palitrasи) foydalanib iliq-sovuq ranglar muhitining umumiy holatini berishni ko'rib chiqdik. Natyurmortga kuzatish moslamasi orqali qarab undan asosiy ko'rinishni ajratib olinsh va uning qog'oz yuzasida chiroyli joylashishni i o'rgandingiz.

tasvirlanayotgan kartinadagi barcha bo'laklar orasidagi munosabatlarni, ularning yorug'lik kuchini va har bir bo'laklarni o'zaro taqqoslash haqidagi tushunshalarga ega bo'ldingiz. Bundan tashqari siz:

1) reflekslar – nafaqat rangni berish uchun muhim. Reflekslar ifodalanmaganda buyum chetlari yassi ko'rinishib, fonga yopishib ko'rinaldi va buyumda hajmdorlik bo'lmaydi.

2) Perspektivani berishda shartli ranglarning ahamiyati yanada ortadi. CHunki yorug'lik va fazoviy muhit qanchalik ko'p berilsa ob'ektning tomashabindan qanchalik uzoqdalik masofasi tushunarli bo'ladi. Lokal rang qanchalik aniq ifodalansa buyum shunchalik oldingi planga chiqib keladi va tomashabinga yanada yaqinroq ko'rinaldi. Bundan tashqari atrofidagi buyumlar va yorug'lik manbalari ta'sirini hisobga olib ishlangan buyum rangi haqqoniy va ishonarli chiqadi.

3) Materialning xira yoki yaltiroq, silliq yoki g'adir budurlik sirt ko'rinishini berishda lokal va shartli ranglarning muhimligi seziladi, chunki har xil sirtlar nurni har xil darajada yutishi yoki qaytarish xususiyatiga ega ekanligi haqidagi ma'lumotlarni ham bilib oldingiz.

**Mustaqil ish uchun vazifa:** Tasviriy san'atga oid maxsus adabiyotlarni mutolaa qilish; CHeklangan bo'yoqlarda meva va uy-ro'zg'or buyumlaridan sodda natyurmortlar ishlash;

## Nazorat savollari

1. YArim soya deb nimaga aytildi?
2. Tasviriy san'atda nisbat atamasi qanday tushuniladi?
3. Rangtasvirda koloritning ahamiyati?
4. Ranglardagi kontrastlikni qanday tushunasiz?
5. Kompozitsiyadagi o'zaro munosabat ta'rifini ayting?
6. Qaysi ranglar asosiy ranglar hisoblanadi?
7. Qalamda tez bajariladigan chizgilar qanday ataladi?
8. Rangtasvirda eskizlar nima uchun kerak?
9. Rangtasvirda shakl nimani ifodalaydi?

## Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish

Rangi bir-biriga yaqin, lekin to'yiganligi bo'yicha har xil uy-ro'zg'or buyumlaridan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi. Natyurmortni tashkil qiluvchi buyumlar materiali, shakli va o'lchami bo'yicha har xil bo'lishi lozim. (3-rasm(a,b)).

O'quv vazifasi: fon va buyumlar rangiga qarab rang reflekslarini izlash va tasvirlash, umumiy rang muhitini ifodalash.

Tabiiy yorug'lik (baland yon tomonidan). A-2 format. Material –akvarel.

### **Tayanch iboralar**

Kartina, ranglavha, rang kuchi, spektr, fazoviy perspektiva, yorug'–soya, rang–tus.

#### **Reja**

- 1.Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;
- 2.Umumiyl rang-tuslarini aniqlash;
- 3.Naturadagi umumiy katta tus va rang nisbatlarini berish;
- 4.Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'–soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;
- 5.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiylga bo'ysundirish.

CHiroysi kartina yaratishgina emas, balki unda kayfiyatni ham ifodalashga qanday erishish mumkin?

Asta-sekin yosh rassomni qiyndigani mana shunga o'xshash savollarga javob berish vaqt keldi. Vazifalar murakkablashib borgan sari qiziqroq tus olib bu mashg'ulotlarda shakl, rang va chiziqlar yordamida hissiyotni ifodalash o'rjanib boriladi. Jo'shqinlik, hayajon, ehtiros, g'urur, olov – barchasi bitta kompot bankasida mujassam bo'lishi mumkin.

Kontrast juftlikdagi: qizil va yashil, ko'k va sariq, to'q va och ranglarda ishlaganda har xil saviyadagi tomashabinlar ham idrok qilishi va baholashi uchun tushunarli bo'lishi lozim.

O'z rang-tusiga yaqin bo'lgan (sariq va oxra, ko'k va havorang va h.k.) ikki va undan ortiq ranglarni idrok qilish qiyin kechadi. Albatta, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgani uchun ikkita kontrast ranglarni o'zaro uyg'unlikda ifodalash juda murakkab vazifa.

Bu vazifani bajarishdan eng asosiy maqsad – talabalardagi rang va uning tuslarini idrok qilish qobiliyatları, bir guruhdagi ranglar qatoridan ularning bir-biridan farqini (iliq va sovuq) topish ko'nikmalarini rivojlantirish hisoblanadi.

Vazifani bajarishga kirishar ekan talaba avvalo qo'yilmadagi ranglar qurilmasini aniqlab olishga to'g'ri keladi. Buning uchun ranglar nisbatini aniqlash uchun kichik o'lchamlarda bir necha tayyorgarlik ranglavhalari bajariladi. Fon va boshqa buyumlar bilan birgalikda har bir buyumning rang kuchi solishtirilib kompozitsiyadagi ularning o'rni aniqlanadi. Ranglari nisbatan yaqin buyumlarni bir-biriga solishtirib ularning o'zaro farqini topish orqali ularning aniq tusini topishga imkon beradi. To'g'ri olingan nisbatlar bilan ularning har biri kompozitsiyadagi o'z joyiga qo'yiladi va yaxlit ranglar uyg'unligini yaratiladi.

Ranglari bir-biriga yaqin bo'lgan buyumlardan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi tuzishda rang kuchi, rang-tusi bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lgan jismlar tanlanadi. Masalan, barcha elementlar och ko'rinishda bo'lsa, ulardag'i farqni faqat rang-tuslariga qarab ajratish mumkin. Bu holda ranglar tusi bo'yicha yorqin bo'limganligi uchun vazifa nisbatan murakkab ko'rinish kasb etadi. Qo'yilmadagi

tus yechimlari topish uchun shakl va fazoviy ko'rinishlarga juda nozik ishlov beriladi. Rangtasvirdagi jonlilik va yorqinlik ko'pincha ranglarning kontrast nisbatlarga bog'liq bo'lib, iliq va sovuq tuslarda bu kontrastlarni izlash va to'g'ri ifodalash orqali bu vazifa bajariladi.

Akvarel bo'yog'i uchun palitra sifatida forfor yoki plasstmas idish,

yoki qattiq oq qog'oz ishlatilishi mumkin. Bu kompozitsiya uchun tayyorlanayotgan rangning qanday ko'rinishda ekanligini oldindan ko'rib tayyorlashga imkon yaratadi. Ba'zi akvarel bo'yog'i naborida oq bo'yoq ham bo'ladi. lekin akvareda rangtasvir ishlaganda oq bo'yoqdan emas, balkim qog'ozning oqligidan foydalanilgani maqulroq. Quyida keltirilgan akvarel spektri Talens firmasi mahsuloti bo'lib, 35 xil rangdan iborat. SHuni unutmaslik kerakki, akvarel bo'yog'i qurigandan keyin o'zining 10–20% yorqinligini yo'qotadi.

Naturadan realistik tasvirlash atrofimizdagi voqeа–hodisalar yoki narsalarning shakl va bo'yoqlarini haqqoniy tasvirlash malakasini o'z ichiga oladi. Naturani haqqoniy tasvirlash – bu narsalarni konstruktiv va perspektiva qonunlari asosida qurish...ularning fazoviy joylashuvi... materialligi... hajm va nisbatlarni ifodalash... qalamtasvir yoki etyudni yaxlit bir butunlikka keltirish, tasvirlanayotgan ob'ektlar va narsalarning xarakterli xususiyatlari va nafis go'zalligini aniqlashdir.<sup>22</sup>

Turli natura obektlari (natyurmort... manzara) yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog'lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlashni o'rganib olishi kerak. Natura obektini yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlay bilish – muhim kasbiy mahorat... u esa dastlabki rangtasvir ta'limida shakllangan bo'lishi kerak. Faqat shundan so'ng uzoq muddatli (vaqt bo'yicha) ishlarga...manzara obektlari yoki natyurmortdagi buyumlarning hajmli shakllarini puxta ishlov berishga o'tish mumkin.<sup>23</sup>

### Mashg'ulotning bosqichlari:

Uzoq muddat ishlanadigan rangtasvir ma'lum bosqichlarda bajariladi. Har qanday rangtasvirni ishslash bosqichlarining asosiy prinsipi umumiyl yaxlit ko'rinishlarni ishslashdan boshlanib, keyin mayda bo'laklarni ishslashga o'tiladi va yakunlash bosqichida barchasini umumlashtirish ishlari olib borilib vazifa tugatiladi.

Natyurmort rangatasviri ishslashning bosqichlari.

**I bosqich** – Kompozitsiyani qog'oz yuzasida joylashtirish, umumiyl ko'rinishini chiziqlarda ifodalash. Bunda chiziqlar o'z xususiyatiga ko'ra ko'z qarashini butun yuza bo'ylab bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yoki perspektiv chuqurlikka diqqatni yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi. CHiziqlar och-to'qligi (tusning o'zgarishi), och fonda to'q chiziq (qarama-qarshilik) bo'lishi mumkin. SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, chiziqlar qandaydir rangga ega (hatto u qora bo'lsa ham) bo'lib, unda shakllar ham ifodalananadi.

CHiziqlar va rang bir xil qalinlikda, tusda bo'lsa shakl faqat ikki o'lchamli ko'rinishga ega bo'ladi. SHaklni ifodalovchi chiziqlar narsaning siluetini ko'rsatib

<sup>22</sup> Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir: Toshkent-“OZBEKISTON”-2006. 32-b.


<sup>23</sup> Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir: Toshkent- “O'zbekiston” -2006/ 27 bet.

beradi. Narsa chetidagi har xil o'lchamdagи va to'qlikdagi, hamda har xil rangdagi chiziqlar bilan ifodalanishi tasvirning qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.”<sup>24</sup>

### [II.2.17.]

Izoh: [II.2.17.] II– qo'shimcha adabiyot; 2–raqamdagи; 17–bet

**II bosqich** – Asosiy shakл va fonning asosiy ranglarini aniqlash.




**III bosqich** – rangda hajmiga ishlov berish, rang–tus munosabatlarini topish.

<sup>24</sup> Suzanne Brooker Techniques for rendering sky, terrain, trees and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015 s.17



**IV bosqich** – Ob’ektning barcha bo’laklaridagi yorug’–soyalarga ishlov berib, kompozitsiya umumlashtirilad va yakunlanadi.



Rangtasvirni bajarish bosqichlari bo'yicha qat'iy mantiqqa asoslab olib borish ko'nikmalar talabalar tomonidan uzoq vaqt ishslash natijasida asta–sekin egallab boriladi. Uy–ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natiyurmortni bajarishda ranglar bilan shaklning hajmdor qurilishi, ularning fazoviy va masshtab jihatdan o'zaro bog'liqligini ko'rsatish vazifasi qo'yiladi. Talabaga kompozitsiyadagi chiziqli perspektiva, fazoviy perspektiva, yorug’–soya, rang–tus, o'zaro uyg'unlik, qarama–qarshilik qonuniyatlari haqida tushunchalar beriladi. Bu rangtasvirda tasvirning chiziqli konstruktiv qurilishi, yorug’–soya munosabatlarini to'g'ri bajarish bilan shaklni aniqlashtirish talab qilinadi. Ranglarning o'ta dag'alligi, rangning juda och bo'lib qolishi, shu bilan birga rangtasvirni o'ta qoraytirib yuborish, qog'ozni kir bo'lib ketishi, palapartish va qo'pol rang dog'lariga yo'l qo'ymaslik ham kerak. Tasvirdagi mayda bo'laklarni emas, katta–katta yuzalarni yaxlit ishslash bilan, qog'ozning butun yuzasi bo'ylab bosqichma–bosqich, rangtasvirning sifatli texnik bajarilishiga erishish talab qilinadi. YOrug’–soya va reflekslarga ishslashning mohiyati, tasvirni palapartish bo'yash emas, jism shaklining hajmli qurilishini muvafaqqiyatli bajarishdan iborat.

### Xulosa

Bu mashg'ulotimizda fon va buyumlar rangiga qarab rang reflekslarini izlash va tasvirlash, umumiylrang muhitini va juda murakkab vazifa hisoblangan bir-biriga

qarama-qarshi bo'lgan bir necha kontrast ranglarni o'zaro uyg'unlikda ifodalashni bilib oldik.

Bu vazifalar orqali sizda rang va uning tuslarini idrok qilish qobiliyatları, bir guruhdagi ranglar qatoridan ularning bir-biridan farqini (iliq va sovuq) topish ko'nikmaları paydo bo'ldi.

Turli natura obektlari yoki narsalarning asosiy umumlashtirilgan dog'lar orasidagi ranglar munosabatini aniqlash, natura obektini yaxlit ko'rish va katta asosiy ranglar dog'ini aniqlashni o'rganib oldingiz. Bu vazifamizni keyingi mashg'ulotlardagi uzoq muddatli (vaqt bo'yicha) buyumlarning hajmlı shakllarini puxta ishlov berib ishlashga doir vazifalarga o'tish uchun tayyorgarlik bosqichi bo'ldi desak adashmaymiz.

**Mustaqil ish uchun vazifa:** Mustaqil uy-ro'zg'or buyumlarinidan tashkil topgan sodda natyurmortni tuzish va akvarelda turli texnologiyalarda tasvirlashni o'rganishga oid mashqlar bajarish;

### Nazorat savollari

1. Bir urinishda ishlab tugatiladigan rangtasvir usuli nima?
2. Soya-yorug'lar ko`lamini ayting?
3. Xromatik ranglarga qanday ranglar kiradi?
4. Rang kontrastlari deb nimaga aytildi?
5. Rangtasvida palitra nima uchun kerak?
6. Axromatik ranglar qanday ranglar?
7. Xromatik ranglarga qanday ranglar kiradi?
8. Qanday ranglar hosila ranglar deb ataladi?
9. Buyum tekisligi deb nimaga aytildi?

**Kontrast fonda turli shaklli va har xilfakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish**



Natyurmort materiali, shakli, o'lchami va rang kontrastligi bo'yicha har xil buyumlardan tanlangan bo'lib, xolis rangli fonda qo'yiladi. (4-rasm. (a,b,v,g)).

O'quv vazifasi: rang kontrasti, qarama-qarshi ranglarning optik xususiyati, muvozanati va o'zaro ta'sirini o'rganish.

Tabiiy yorug'lik (baland va yondan). A-2 formatdagi qog'ozda. Material – akvarel.

### **Tayanch iboralar**

Muvozanat, kontrajur, rang dog'lari, siluet, kompozitsiya tekisligi.

#### **Reja**

1.Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;

2.Umumiy rang-tuslarini aniqlash;

3.Naturadagi umumiy katta tus va rang nisbatlarini berish;

4.Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;

5.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiyga bo'ysundirish.

Kontrast rangli buyumlardan tuzganda ularning bir-biriga ta'sirini ham hisobga olish kerak. Ularni o'zaro palapartish joylashtirish qo'yilmani rang-barang ko'rsatib, kompozitsiya yaxlitligini yo'qotadi. SHuningdek ilk natyurmort qo'yilgan o'quv qo'yilmalarda ko'k, sariq, qizil, yashil kabi bir necha kontrast ranglarni qo'yish ham tavsiya etilmaydi. eng yaxshisi avvalgi natyurmort qo'yilmasining uzviy davomi ko'rinishida bo'lsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Uning asosini bir xil rangdagi buyumlardan tashkil etib, ular bir-ikkita kontrast rang dog'laridan iborat bo'ladi. Rangli matodan iborat fon bu yerda kontrastlik holatini yaratishi mumkin.

Ushbu natyurmortning o'quv vazifasi – shakllarning kontrastlik va rang xususiyatlarini aniqlash, ular o'rtasidagi refleks aloqalarini o'rganishdan iborat.

Rangni idrok etish – hamma vaqt ham o'zlashtirib bo'lmaydigan murakkab jarayon. Nafaqat o'zaro qo'shimcha ranglar, balki qo'yilmaga iliq-sovuq nisbatlar kiritish bilan ham kontrastlikning o'zaro ta'sirini yaratish mumkin. Buyumlar soni hamda fazoviy joylashishi bo'yicha bir tusdagi bir necha ranglar guruhi (iliq va sovuq) natyurmort tuzishda asosiy me'zon bo'lishi kerak. Kompozitsiyadagi boshqa qismi esa unga qo'shimcha va shu bilan birgalikda unga muvozanat yaratish uchun xizmat qiladi.

Qo'yilishi va yoritilish xususiyatlarini o'zgartirish orqali natyurmort rangtasvirida kontrast kombinatsiyalari imkoniyatlarini nisbatan batafsil ochib berish mumkin. YOrug'likka qarshi qo'yilgan (kontrajur) yoki yorug'lik to'g'ri yo'naltirilgan (yorug'lik bo'yicha) qo'yilmaga rang kontrastlarining o'zaro ta'siri sof holda ko'rinishib kompozitsiyaga qiziqarli tus beriladi. Bu holda ranglarning nisbatan nozik uyg'unlashuvi, tuslar nisbatlarini aniq olish talab qilinadi.

Natyurmortni tasvirlashda buyum emas, balki rang kuchi va rang dog'lari go'zalligi u joylashgan atrof-muhit bilan umumiy ta'siri muhimroq. Qandaydir

rangni to'g'ri va jonli olish, u joylashgan muhit bilan aloqasini ifodalash rangtasvir ishslash metodikasi uchun asos qilib olinadi.

Zamonaviy rangtasvirda kartina birinchidan kompozitsiya g'oyasi va ichki mazmuni; ikkinchidan kompozitsiyaning umumiyl tuzilishi va tashqi rang yechimi; kabi ikki darajada baholanadi. O'y lab reja asosida ishlangan kompozitsiyadan kutilmaganda mukammal rangtasvir asari paydo bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda biz har kuni ko'rib yurgan oddiy ko'rinishni rangda har xil usullarda badiylashtirilib tasvirlanganda tomashabin uchun u yanada qiziqarliroq bo'lib ko'rindi. Rassomlar kompozitsiyaning beshta asosiy unsurlari: chiziq, shakl, rang, siluet va faktura yordamida badiiy obrazlar yaratadi. Bu unsurlar kompozitsiya tekisligida nafaqat ikki (bo'yi va eni) o'lchamli, balki, ko'rinishdagi kartina jozibadorligini oshiruvchi real chuqurlik (fazoviy bo'shliq) hissini berib, uchinchi o'lchamni ifodalash uchun ham xizmat qiladi.

O'z xususiyatiga ko'ra chiziqlar ko'z qarashini yuzadagi bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yoki butun perspektiv bo'shliqqa diqqatni yo'naltirish vazifasini bajaradi. CHiziqlar och to'qligi (tusning o'zgarishi), och osmon fonida to'q daraxt shakli (qarama qarshilik) ko'rinishlarida bo'lishi mumkin. SHuni esdan chiqarmaslik kerakki, chiziqlar (hatto u qora bo'lsa ham) qandaydir rangga ega bo'lib, mo'yqalamda tekis yuza bo'y lab (ko'ndalang chiziqlar) yuritilib shakllar ham ifodalanadi.

CHiziq va rang bir xil to'qlikda, tusda bo'lsa shakl faqat ikki o'lchamli ko'rinishga ega bo'ladi. CHetki chiziqlar narsaning siluetini ko'rsatib uzoq tog' ko'rinishlari, daraxtlar to'dasi kabi shakllarni aniqlab beradi. Narsa chetidagi har xil o'lchamdag'i va to'qlikdagi, hamda har xil rangdagi chiziqlar, bir biriga qarama qarshi shakllarning birgalikda ifodalanishi tasvirning tomashabin uchun qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

Rangtasvir uchun shunchalik muhim ahamiyatga ega bo'lgan rang ham aslida mavjud bo'lishi uchun unga aniqlik beradigan har xil chiziq va shakllarga muhtoj. YUzaga tushadigan nur harakati natijasida miyada optik his uyg'onib rangni sub'ektiv qabul qiladi va rangni idrok etamiz. Rangning jilvadorligi, xiraligi, rangdorligi yoki kulrangligi, iliq yoki sovuqligi, yorqinligi yoki to'qligi uning ta'sir kuchi belgilaydi.<sup>25</sup>

Qog'ozning oq yuzasi va rangning eng ochdan to eng to'qqacha bo'lgan tuslaridan foydalanib rassom tasvirlanayotgan buyumning nafaqat shakli balki hajmi, yorug'-soyasi, fazoda joylashishi va har bir materialning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashi mumkin.

Oq, kulrang yoki qora qo'shib har qanday ko'k rang xususiyatini (tus va rang jihatdan) o'zgartirish mumkin. Ranglar diagrammasini kuzatar ekanmiz 100 foizlik turli 4 xil rang tusi sinab ko'rilgan.<sup>26</sup>

<sup>25</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 47

<sup>26</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015.s-149

I bosqich: Tasvirlash uchun naturaga nisbatan qulay holatni tanlang va keyin qog'ozga natyurmortni joylashtirish, kompozitsiya echimini topish vazifasini bajarish mumkin. Qog'ozgi tasvirlanayotgan natyurmort kompozitsiyasi sathda bir tomonga og'ib qolmasdan yaxlit ko'rinishga ega bo'lishi uchun och va to'q rang surtmalarining o'zaro uyg'unligi asosida qurilishi kerak. Ranglavhada kompozitsyaning konstruktiv qurilishi, perspektiv ko'rinishini to'g'ri tasvirlash muhim ahamiyatga ega. O'zaro nisbatlarini aniq topish va unda barcha qismlarning to'g'ri joylashtirilishi ham juda muhim. Ranglavha bajarishda qalamtasvirni o'tkir archilangan qalamda bosmasdan nozik chiziqlarda katta shakllar hajmining konstruktiv tuzilishiga e'tibor bergen holda bajaring.

Ish jarayonida tez-tez naturadagi yorug' qismini soyadagilari bilan, och va to'q qismlarini fon bilan solishtirgan holda eng to'q va eng och joylarini aniqlashtirib boring. Burcha buyumlar va fondagi, yoritilgan qismidagi tutashib ketgan yorug'-soya, fon uchun tus och-to'qligi, soya qismidagi tutashib ketgan tuslarni aniqlashtirib borish kerak bo'ladi.

Naturadagi jismlar hajmini soyadan, asta-sekin yarim soyalarga keyin och qismlarga ishlov berishdan boshlash kerak. Buning maqsadga muvofiqlik tomoni shundaki, tasvirning soya qismidagi tuslar izchilligini topa borish bilan birga natyurmortdagi katta hajmlar shakli tuzilishi echimini ham hal qilib boriladi.

Ranglavha soya qismiga rang surtmalarini qo'ya borib, fon tusini aniqlashga yordam beradigan soyaga tutashgan orqadagi fon qismlariga ham birdan ishlov berib borib, keyin yorug' qismiga tutash umumiyl fonnishga o'tiladi. Bu rang surtmalarni to'g'ri qo'yib borib shaklining yorug'likdagi hajmni chiqarib borishda yordam beradi.

II bosqich: Natyurmortning umumiyl shakli va bo'laklarini aniqlashtirib boriladi. Lekin maydalab ishlashga berilib ketib ham bo'lmaydi. Mayda bo'laklar ranglavha holatinig umumiyl tuslari bilan uyg'unlashib ketishi kerak va bosh shaklining uzviy bo'lagi sifatida ko'rinishi lozim. Mayda bo'lak bo'shliqda o'zining kerakli o'rnini egallagandagina yaxshi ko'rindi, boshning boshqa bo'laklari bilan uyg'unlashib, yaxlit ko'rinishga xalaqit bermaydi.

III bosqich: YAxlit ko'rinishni nazardan qochirmagan holda u yoki bu bo'lakka ishlov berib boriladi. SHaklni yaxlit idrok qilish ko'nikmasi - bu juda oson bajariladigan ish emas. Lekin bu eskiz va qisqa muddatli ranglavhalari bajarib borish jarayonida tinimsiz shakllantirib borish lozim bo'lgan eng muhim xususiyatlardan biri. Naturadagi umumiyl katta tus va rang nisbatlarini aniqlab ularga rangda ishlov berib boring.

IV bosqich: Buyumlarning hajmdorligiga ishlov bering. Barcha buyumlardagi yorug'-soya ko'lamlarini aniqlang soyalarning bir-biriga och-to'qlik nisbatlarini toping. Kompozitsiyadagi birinchi darajali –asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlab ularga fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov bering;

Beshinchi bosqich: endi siz bilan ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiylga bo'ysundirish ishlarni bajaramiz.

Ranglavhadagi barcha mayda bo'laklar va fon ishlangandan keyin ularni umumlashtirish ishlari bajariladi. Bu bochqichdagi vazifa – bo'laklarga ishslash

jarayonidagi xatolarni bartaraf etish, ranglavha kompozitsiyasiga moslashmay bo'rtib chiqib qolgan joylarni ochartirish, xiralashtirish yo'li bilan umumlashtirish ishlarini bajarish hisoblanadi. Buning uchun qaerdadir bo'yoqni olib tashlash, qaerdadir tusni xiralashtirish, qaerdadir shakl harakatini kuchaytirish uchun kerakli rang surtmalarini qo'yish kerak bo'ladi.

### Xulosa:

Siz yuqorida shakllarning kontrastlik va rang xususiyatlarini aniqlash, ular o'rtasidagi refleks aloqalarini o'rganishdan iborat bajarilgan vazifamiz bilan tanishdingiz. Bu vazifada kontrastlikning o'zaro ta'sirini yaratish uchun faqat o'zaro qo'shimcha ranglar bilangina emas, balki iliq-sovuq nisbatlarda rang surtmalari qo'yib ishslash bilan ham erishish mumkinligini ko'rdingiz.

Zamonaviy rangtasvirda kartina kompozitsiya g'oyasi va ichki mazmuni hamda kompozitsiyaning umumiyligi tuzilishi va tashqi rang yechimi kabi ikki darajada baholanishini bilib oldingiz.

Rassomlar: chiziq, shakl, rang, siluet va faktura kompozitsiyaning beshta asosiy unsurlari yordamida badiiy obrazlar yaratishi, bu unsurlar kompozitsiya tekisligida nafaqat ikki o'lchamli, balki, ko'rinishdagi kartina jozibadorligini oshiruvchi real chuqurlik hissini berib uchinchi o'lchamni ifodalash uchun ham xizmat qilishi haqidagi bilimlarga ega bo'ldingiz..

Siz bilan o'z xususiyatiga ko'ra chiziqlar yuzadagi bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga yoki butun perspektiv bo'shliqqa diqqatni va ko'z qarashini yo'naltirish vazifasini bajarishi haqidagi misollarni ko'rib chiqdik.

SHuningdek har xil chiziq va shakllarning rangtasvir ishslash uchun qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligiga guvoh bo'ldingiz. YUzaga tushadigan nur harakati natijasida rangni sub'ektiv qabul qiladi va rangni idrok etishga oid misollar bilan tanishdingiz.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** Kontrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli murakkab natyurmort ranglavhasini ishslash.

### Nazorat savollari

1. Bo`yoqlar qanday moddalardan olinadi?
2. Tez bajarilgan, katta bo'lmanan o'lchamdagisi san'ati asari nima deyiladi?
3. Narsaning shaklining yaxlit chetki surati nima deb ataladi?
4. Ranglavha nima?
5. Qaysi ranglar "sovuv ranglar" turkumiga kiradi?
6. Kontrast ranglar deb nimaga aytiladi?
7. Qaysi ranglar "iliq ranglar" turkumiga kiradi?
8. Akvarel bo'yog'i qurigandan keyin necha foiz yorqinligini yo'qotadi.
9. Muljallangan ishga daslabki ijodiy izlanish?

### Kontrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli natyurmort ishslash.

Kam sonli burmalardan iborat oq mato fonida kontrast rangli buyumlarilan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi. (5-rasm (a,b,v)).

O'quv vazifalari: ma'lum muhitda katta yorug'-soya, rang-tus nisbatlarini idrok qilish. YOrug'lik, yarimsoya, soyadagi buyumning asl rangini bera olish; rang reflekslarini izlash.

Tabiiy yorug'lik (ustdan, yondan). A-2 formatdagi qog'oz. Material – akvarel, guash.

### Tayanch iboralar

Gips rozetka, rang surtmalari, ritm, hissiy sezgi, alla prima, effekt, umumlashtirish, tafakkur.

### Reja

1.Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;

2.Umumiyl rang-tuslarini aniqlash;

3.Naturadagi umumiyl katta tus va rang nisbatlarini berish;

4.Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;

5.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiylga bo'ysundirish.

Oq mato, naqshli gips rozetka, oq chinni idishni rangda ishlash oddiy vazifaga kirmaydi. Oq idish sirti yorug'lik manbaasiga nisbatan sezuvchan bo'lib, u rang-tuslarga juda boy ko'rinish oladi. Reflekslarni aniqlash, "tus jihatdan barcha ranglarning bir-biri bilan o'zaro ta'siri" asosida asosiy rangni ajratib olish va tasvirning turli-tuman umumiyl rang-tus muhitiga moslash talab etiladi. YOrug'lik yoki soyadagi o'zaro bog'liqligini ozgina buzish, noto'g'ri tus tanlash natijasida tasvir rang-barang bo'lib, kompozitsiya tarqoq holatga kelib qolishi mumkin. Odatda o'ziga ishonmaslik yosh rassomlarning ilk ishlariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Oq buyumni oq bo'yqda ishlashadi yoki qog'oz yuzasini oqligicha qoldirishadi. Tasvirning faqat soya qismigagina ishlov beriladi. Natyurmortning haddan tashqari rangdorligi ham yosh rassom uchun ancha qiyinchilik tug'diradi.

Oq buyumlarga u yoki bu tus berib tasvirni rang bilan boyitish, qo'yilmaning umumiyl tusini hisobga olgan holda unga har bir alohida rangni bo'ysundirib o'zaro uyg'unlikdagi nozik munosabatlarni izlash va uni ifodalash orqali rang-tus yechimi topiladi.


Qo'yilmaga oq (och) buyumlarni kiritishning boshqa muhim ahamiyati: ular rangtasvirda katta tuslarga ajraladigan aniq tusli kontrastlar hosil qiladi. oq rang bilan yonma-yon turish buyumlardagi farqni aniq ajratib ko'rsatadi.

O'quv qo'yimasiga faqat bitta emas, balki, undan ko'proq oq buyumlar kiritilishi mumkin. Bu holda ular o'rtasidagi material farqini topa olish juda muhim. Ularning har biri o'z tusi, o'z sirti, shuningdek har xil rang xususiyatlariga ega. Gips boshini oq buyumlarni qo'shib tuzilgan natyurmort qo'yilmalariga qo'shilishi vazifaning nisbatan murakkab bo'lishiga olib keladi. (5-rasm (g,d,e,j)).  
Natyurmort qo'yilmasi

Akvarelda quruq va ho'l qog'ozlarga ishlash. Akvarel bo'yog'i quruq qog'ozda qog'ozning oqligidan foydalanim buyumlarning shaklini beradigan shaffof ranglarda aks etadi. Lekin bu ishni umuman fazoviy ko'rinishga ega bo'limgan, xilma-xil tuslarga ega bo'limgan yoki aylana shakllarning yengil yoki fonning qat'iy belgilanganligini bildirmaydi. Quruq yuzada akvarel tezda so'nib qolishini esdan chiqarmagan holda biz och ranglardan to'qqa qarab borishimiz kerak. Avval

och joylarga – ko’proq keng rang surtmalarida – asta–sekin to’q joylarni ishlashga o’tiladi. Quruq qog’ozlarda rangtasvir ishlash texnologiyasi akvareldagi o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lgan ho’l qog’ozlarga ishlashdan farqigina ko’rsatib o’tiladi. “Quruq” akvarelda ishlash an’anaviy usullarga tegishli.

Ho’l qog’ozlarda ishlash texnikasida shakllarning chetlari yuvilib ketib ularga noaniqroq ko’rinish beradi. Bunda barcha chegaralar hatto orqadagi fon ham mavhumroq ko’rinishga ega bo’ladi. qog’oz qancha ho’l bo’lsa shunchalik bo’yoqlar suyuqlashib tasvirlar shakli mavhumroq bo’lib boradi. Har doim qog’ozning namlik darajasiga e’tibor qilib borish zarur, ish jarayonida mo’yqalam yoki suv shimadigan mochalka yordamida qog’oz yuzasidagi ortiqcha suvi shimdirib olinishini nazorat qilib borish kerak. Ammo ho’l qog’oz deganda yuzasida xalqob suvlar bilan qog’ozni tushunishimiz kerak emas. Quyida bu ikki uslubga doir ishlar misol qilib keltirilgan, uni kuzatar ekansiz u usullar haqida sizda aniqroq taasurot paydo bo’ladi.<sup>27</sup> [II.1.66]



<sup>27</sup> Paramon Edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s-66



Muvozanat, ritm, har xillik, yaxlitlik va qarama qarshilik kabi kompozitsiya unsurlari jamlanmasidan kompozitsiyadagi vizual harakatni berish uchun foydalaniladi. Bu omillardan o'z joyida foydalanish kartina va undagi obrazga nisbatan tomashabinning qiziqishini oshiradi. Rassomning hissiy sezgisi kompozitsiyaning asosiy qonun qoidalariiga amal qilgan holda bu unsurlar va qoidalarning qaysi biridan qanday foydalanish kerakligini aniqlashiga yordam beradi. Kompozitsiyada bu qoidalarni qo'llashdagi ikkillanish yangi ijodiy eksperimentlar qilishga xalaqit beradi. Rangtasvir kartinalari yaratishda bu unsurlarning barchasi mavjud bo'lsada, ammo ba'zilariga ko'proq urg'u beriladi.

Bir xil rang surtmalarini turli joylarida takrorlash bilan kompozitsiyada harakatni ifodalashingiz mumkin. SHu bilan birga kompozitsiya unsurlarini (rang va shakl) uyg'unlashtirib ham harakat hissini beriladi.

SHuningdek har xillikni yuzaning silliqlikdan g'adir budurlikkacha yoki narsaning o'lchamdagи o'zgarishlari misolida ham ifodalash mumkin.

Rangtasvirda tomashabinning ko'z qarashini kerakli tomonga yo'naltirish uchun kompozitsiyadagi barcha elementlar birgalikda ishlaydi.<sup>28</sup>

<sup>28</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 45

Tuvakdag'i gul, butilka va sochilib yotgan mevalar o'ziga xos chiroyli kompozitsiyani hosil qilgan.

Alla prima texnikasini o'rganamiz. Bu texnika akvarelning butun fazoviylik va go'zallik xususiyatlarini ochib beradi. Bo'yoqni bitta qatlamda yopish bilan tezlikda ishlashni o'rganamiz. Bu yerda sizdan dadillik va mahorat talab qilinadi. SHuningdek suyuqlikning yopuvchanlik xususiyatidan foydalanishni o'rganamiz.

Nam qog'oz ustidan gullar buketi rangtasvirini ishlaymiz.

Qog'oz yuzasida akvarelning erkin yoyilishiga yo'l qo'yib bering va u sizga juda ajoyib effektlarni hadya etadi. Bu yerda eng asosiysi bu jarayondan cho'chimaslik va unga ishonish.

**I bosqich:** kompozitsiyani joylashtirib, uning qalamda umumiy ko'rinishini chizib olamiz. Mashq uchun quruq qog'oz va iliq tuslibo'yoqlarni tanladik. 93 505 0130 90 9364175

Agar naturaga yaxlit umumiy qarasak natyurmort qo'yilmasidagi buyumlar

jamlanmasini har xil holatdagi yagona shakl sifatida ko'riliishi mumkin. Natyurmortni ishlaganda alohida bo'laklardan umumiyya, umumiyyadan mayda bo'laklarga tamoyiliga rioya qiling.

**II bosqich:** natyurmortdagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tuslarni aniqlab, shaklning katta yuzalariga ishlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin–asta to'qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo'laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir–biriga uyg'unlashgan, iliq tusdagi kompozitsiya hosil bo'ladi.



**III bosqich:** kartinaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. SHu'la tushib turgan joylar uchun oq qog'ozda joy tashlab ketishni unutmang. Tezda qarama-qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog'lar ko'rinishlari sizni qo'shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi<sup>29</sup>



**IV bosqich:** umumlashtirish yakunlash ishlari. YUvib tashlash bilan oq joylarini ishlang. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring. Alovida bo'laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun to'qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko'zdan panaroq joyga qo'ying. Ozroq muddat o'tgandan so'ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko'ra boshlaysiz va uni to'g'irlash mumkin bo'ladi. Bu holat odamni shunchalik o'ziga jalb qilib qo'yadiki, natijada rangtasvir butun tafakkuringizni egallab oladi. Mana shuning uchun odamlar akvarelni yaxshi ko'rsalar kerak.

**Beshinchi bosqich:** Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiya bo'ysundirish ishlarini bajaring.



<sup>29</sup> Frontz , Lesl i e.

The watercolor course you've always wanted : guided lessons for beginners and experienced artists / Alirio Frontz . Pubished in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 69-76.

[www.crownpublishing.com](http://www.crownpublishing.com)

[www.watsonguptill.com](http://www.watsonguptill.com): s 72-76

## **Xulosa:**

YUqoridagi mashg'ulotimizda biz siz bilan oq buyumlarga ishlov berish/ U yoki bu tuslarni berib tasvirni rang bilan boyitish, qo'yilmaning umumiy tusini hisobga olgan holda unga har bir alohida rangni bo'ysundirib o'zaro uyg'unlikdagi nozik munosabatlarni izlash va uni ifodalash orqali rang-tus yechimi topish yo'llarini o'rgandiik..

Akvarelda quruq va ho'l qog'ozlarga ishslash usullarini ko'rib chiqildi.

Kompozitsiyadagi vizual harakatni berish uchun muvozanat, ritm, har xillik, yaxlitlik va qarama qarshilik kabi kompozitsiya unsurlari jamlanmasidan foydalanisnni yaxshilab tushunib oldingizi. YAratayotgan kompozitsiyangiz va undagi obrazga nisbatan tomashabinning qiziqishini oshirishda bu omillardan o'z joyida foydalanish.haqidagi yo'l-yo'riqlar bilan tanishdingiz.

## **Mustaqil ish uchun vazifa.**

Turli shaklli va har xil fakturali buyumlardan iborat natyurmortning ranglavhasini bajarishni o'rganishga oid mashqlar bajarish.

## **Nazorat savollari**

1. Tasvir so`zining ma'nosi nima?
2. Tasviriy san'at qanday fan?
3. Tasviriy san'atda fikrni aniq, yaqqol ifodalab asar yaratish nima deyiladi?
4. Garmoniya iborasi nimani bildiradi?
5. Tasviriy san'atda kartonning qanday ma'nolari bor?
6. Rangtasvirda yorug'likdan nima uchun foydalaniadi?
7. Tasvirining qismlari: rang, o'lcham, shaklning o'zaro mos kelishi, kompozitsiyada tarozi vazifasini o'tovchi atama nima deyiladi?
8. Kompozitsiya qismlarining bir tekisda navbat bilan qaytarilishi nima deb ataladi?
9. Rangtasvirda modelirovka nima yordamida amalga oshiriladi?

**Ko'k tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish**



Burmali ko'k mato fonida kontrast rangli buyumlarilan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi. (5-rasm (a,b,v)).

O'quv vazifalari: ma'lum muhitda katta yorug'-soya, rang-tus nisbatlarini idrok qilish. YOrug'lik, yarimsoya, soyadagi buyumning asl rangini bera olish; rang reflekslarini izlash.

Tabiiy yorug'lik (ustdan, yondan). A-2 formatdagi qog'oz. Material – akvarel.

### Tayanch iboralar

Kompozitsiya markazi, g'oyaviy markaz, ufq chizig'I, konstruktiv tuzilish, / perspektiva, mo'yqalam

#### Reja

1.Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;

2.Ishni bitta rangda boshlash. Tus jihatlarini aniqlash;

3.Umumiyl rang-tuslarini aniqlash; naturadagi umumiyl katta tus va rang nisbatlarini berish;

4.Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;

5.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiylga bo'ysundirish.

Akvarelda rangtasvir ishslash juda murakkab hisoblanadi. Har qanday yangi bo'lgan mashg'ulotga qo'l urilar ekan, maqsadga yetish uchun inson har xil ko'zda tutilmagan qiyinchiliklar oqibatida bu mashg'ulotni keyingi safarga surish yoki umuman to'xtatishga harakat qiladi. Akvarelda ishslashni o'rganish uchun

talabidan texnika, ko'nikma, ko'p mehnat va sabr-qanoat bilan tinmay mashqlar qilishni talab qiladi.

Har qanday ishni rangda tasvirlashdan avval kompozitsiya markazini aniqlab olish zarur. Buning uchun tasvirning qaysi qismi eng muhim sanaladi? Tomashabin diqqatini kartinaning qaysi qismiga qaratish zarur? Qiziqarli joy qaerda? kabi savollar bilan o'zingizga murojaat qiling. Ishni boshlashning boshlang'ich bosqichida bu muammolar yechimini topish kompoziwyaning asosiy g'oyaviy markazini aniqlab olishga yordam beradi. Kartinangizning qaysi qismiga ko'proq e'tibor berilishiga qarab ufq chizig'ini baland yoki past darajada olish bilan xolstda kompozitsiya joylashishini taqsimlaysiz. Umuman olganda ufq chizig'i xolstni teng ikkiga bo'lувchi markazda bo'lmasligiga harakat qiling, bunda kompozitsiyangiz turg'un, harakatsiz (tepada ham pastda ham kattaroq, diqqatni jalb qiladigan element mavjud bo'lmay, kompozitsiyadagi muvozanat yo'qoladi) holda bo'lib qoladi.

Dividing the canvas into proportions by placing the horizon line high or low determines which area of your painting will dominate. In general, you should try to avoid placing the horizon in the center, cutting the canvas equally in half, as it tends to create a static composition (unless one side—top or bottom—of the painting is weighted with a stronger element).<sup>30</sup>

Keyingi amaliy mashg'ulotimiz akvarelda ko'k tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort ishlash mashqini ko'rib chiqamiz. Mavzumizda uy-ro'zg'or buyumlardan tuzilgan natyurmort tasvirini rangdor fonda bajarish mashqini bajaramiz. Bu mashg'ulotda biz akvarelning cheklanmagan ranglaridan foydalangan holda rangtasvir bajaramiz.

Kompozitsiyaning ma'lum bo'lagini bir urinishda tugallashni rejorashtirgan bo'lsangiz ham rangtasvirning boshlang'ich bosqichlarida kompozitsiyaning yaxlit ko'rinishini ko'zdan qochirmaslik juda muhim. Ba'zi bo'yoq ranglari kompozitsiyaning ko'plab joylarida bo'lganda kichik bo'laklarda emas balki katta yuzalar yaxlitligi va ranglar uyg'unligini nazorat qilib borish yengillashadi.

In the beginning stages, it's important to keep the whole of the painting in mind, even though you may only have time to paint one portion at a time. When there is some paint everywhere, you can readily view the interaction between the color and values as bigger masses rather than as small details.<sup>31</sup>

Bitta natyurmort qo'yilmasini bir-biriga yaqin yoki agarda ular o'rtasidagi proporsionallikka rioya qilgan holda kontrast nisbatlarda ham ifodalash mumkin. Kolorit bu kartinaning umumiyl rang qurilishi bo'lib realistik rangtasvirda naturani kuzatish va uni haqqoniy tasvirlashdan iborat.

"Kolorit" tushunchasi har xil davrlarda bo'yoqlarda ishlash yechimining o'zgarishi bilan har xil mazmun kasb etgan. Hozirgi paytda koloritlar bir-biridan

<sup>30</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015.s-57

<sup>31</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 49

farq qilishi rassom moybo'yoq, tempera yoki akvarelda ishlashiga qarab yorqin yoki so'ndirilgan bo'lisi mumkin.

Realistik asarlardagi kolorit boyligi tomashabinning naturani idrok qilishiga xalaqit bermaydi, aksincha fazoviy muhitda buyumlarni "alohida" ko'rmasdan, ular o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni ko'ra olish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Keyingi badiiy ijodkorlik rivojlanishi uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladigan murakkab bo'limgan ob'ektlarni tasvirlashni o'zlashtirish jarayonidagi ilk vazifalarni bajarishdayoq talabalar realistik rangtasvir qonuniyatlar bilan to'qnash keladi.

Talabalar badiiy didlarini oshirib borish, kuzatuvchanlik, yetuk asarlarning aslidan yoki sifatli reproduksiyalarini o'rganish orqali kompozitsion qurish borasida ko'rsatmalarni mohirona qo'llashlari mumkin. O'quv jarayonida talabalar har xil rangtasvir texnikalarini o'zlashtirib borishadi. Bo'yoqning yupqa, suyuq qatlama ishlatilishi va uning shaffofligi (qog'oz oqligidan oq bo'yoq sifatida foydalaniadi) akvarel texnikasining farqli tomoni hisoblanadi.

Akvareldagi lessirovka usulida bo'yoqlar xuddi "fazoviy bo'shliq" hosil qilib, ostki qatlamdagagi bo'yoqlar shaffof ustki qatlarni ostidan ko'rinish jarangdor, yorqin koloristik yechimga erishish imkonini beradi. Rangtasvirning har xil imkoniyatlarini sinab ko'rish rassom uchun juda foydali.

Mashqning I bosqichi: jismlarning konstruktiv tuzilishining boshlang'ich qalamchizgilarini chizib kompozitsiyadagi perspektivani aniqlab olamiz. Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish ishlarini bajaramiz.

II bosqich: Qog'oz yuzasini ho'llab chiqamiz, qurigandan keyin geometrik jismlarga tegmagan holda fonni mo'yqalam bilan yana bir bor ho'llaymiz. Bu safar fon qurib ulgurmasdan asosiy fondagi tus jihatlarini aniqlab, havorang va karmin rangida ranglar berishni boshlaymiz.

III bosqich: Kompozitsiyadagi umumiyligi rang-tuslarini aniqlab chiqamiz. ; naturadagi buyumlar va orqa fondagi yorug'-soyalarga umumiyligi katta tus va rang nisbatlarini berishni boshlaymiz.

IV bosqich: Umumiyligi ranglarni to'qlashtirib, shu bilan birga oq joylarini ochartirib borgan holda chuqur soyalar va mato burmalariga ishlov beramiz. Buyumlarning har biriga alohida va umumiyligi ko'rinish bilan nisbatlarini solishtirgan holda ularning hajmdorligiga ishlov beramiz. Naturadagi yorug'-soya ko'lamlarini aniqlab va kompozitsiyadagi fazoviy perspektivani hisobga olib rangda ishlov berishni davom ettiramiz.

Beshinchchi bosqich: Ranglavhani tugallashdagi yorug'-soya, rang-tus, shakl nisbatlarini o'zaro solishtirib umumlashtirishni boshlaymiz. Ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlab, barcha mayda bo'laklarni umumiyliga bo'ysundirish ishlarini bajaramiz.

### Xulosa:

Bu o'quv vazifasi b o'ladimi yoki ijodiy ishmi rangda tasvirlashni boshlashdan avval har qanday ishning kompozitsiya markazini aniqlab olish zarur ekanligini tushunib yetdingiz. Ushbu o'quv mashg'ulotimiz orqali siz tasvirning eng muhim qismi qaysi, tomashabin diqqatini kartinaning qaysi qismiga qaratish zarur?

Kompozitsiyangizda eng qiziqarli joyi qaerda? kabi savollarga javob olishga urinib ko'rdingiz. Ishni boshlashning boshlang'ich bosqichida bu muammolar yechimini topish, kompoziwianing asosiy g'oyaviy markazini aniqlab olish haqidagi ma'lumotlar bilan tanishdingiz. Kartinangizning qaysi qismiga ko'proq e'tibor berilishiga qarab qog'ozda kompozitsiya joylashishini taqsimlash uchun ufq chizig'ini baland yoki past darajada olish kerakligi haqida bilib oldingiz. Umuman olganda avvalgi mashg'ulotlarimizdan farqi bu mashg'ulotda biz akvarelning cheklanmagan ranglaridan foydalanib ishlash ko'nikmalariga ega bo'ldingiz.

katta yuzalar yaxlitligi va ranglar uyg'unligini nazorat qilib borish uchun rangtasvirning boshlang'ich bosqichlarida kompozitsiyaning yaxlit ko'rinishini ko'zdan qochirmaslik juda muhim ekanligi va rangtasvirni yakunlashda ham isni yengillashtirishini hisobga oling.

**Mustaqil ish uchun vazifa.** Ko'k tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish.

### **Nazorat savollari**

1. Rangtasvirda ob'ektga qaytib aks etib turgan rang nima deb ataladi?
2. Ranglar gammasi deb nimaga aytildi?
3. Natyurmort so`zining ma'nosi?
4. Narsaning asosiy rangi masalan gipstan ishlangan oq vazaning oqligi?
5. Ranglavha nima?
6. Kompozitsiyaning g'oyaviy markazi deb nimaga aytildi?
7. Ufq chizig'i deganda nimani tushunasiz?
8. Bir nechta ranlarning o'zaro uyg'unligi qanday ataladi?
9. SHakl deb nimaga aytildi?

**Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish.  
(Guash)**



Natyurmort qo'yilmasi

Rangli mato fonida kontrast rangli buyumlarilan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi. O'quv vazifalari: ma'lum muhitda katta yorug'-soya, rang-tus nisbatlarini idrok qilish. Guash texnikasida ishslashni o'rganish/ YOrug'lik, yarimsoya, soyadagi buyumning asl rangini bera olish; rang reflekslarini izlash.

Tabiiy yorug'lik (ustdan, yondan). A-2 formatdagi qog'oz. Material – guash.

### Tayanch iboralar

Masshtab, guash, sovuq rang, molbert, motiv, hosila ranglar.

### Reja

1.Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;

2.Ishni bitta rangda boshlash. Tus jihatlarini aniqlash;

3.Umumiylrang-tuslarini aniqlash; naturadagi umumiylkatta tus va rang nisbatlarini berish;

4.Buyumlarning hajmdorligiga ishlov berish, yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib ishlov berish;

5.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiylga bo'ysundirish.

Guash – fransuz tilidan olingenibora bo'lib, temperaga yaqin tasvirlash texnikasi ma'nosini bildiradi. Bu bo'yoq dastlab eron, Xitoy, Hindiston va asosan Yaponiya rangtasvirida o'ziningyuqori cho'qqisiga chiqdi. U IV- V asrlarda paydo bo'lib bizning davrimizda nafaqat qog'oz, balki ipak, fil suyagi, pergament, atlas va boshqa materiallar yuzasiga ham ishlanadi. Uni akvarel bilan ham, moybo'yoq bilan ham solishtirsa bo'ladi, chunki bu bo'yoqning akvarelga ham, moybo'yoqqa ham o'xshash jihatlari bor. U suvda eritiladi, moybo'yoqda ishlatiladigan mo'yqalamalarda xuddi mobo'yoqda ishlagandek qog'ozga rang

surtmalari qo'yish mumkin. Bo'yoq akvarelga o'xshab shaffof emas, yopish xususiyati bo'lganligi uchun rang surtmalarini qayta-qayta qo'yish mumkin. Guash texnikasida tuzatishlar kiritish, bo'yoqni ko'p qatlamda berish va oq bo'yoq rangini qo'shib ishlatish timkoniyatlari mavjud. U bilan ishlaganda shuni unutmaslik kerakki, guash qurigandan keyin rangi ancha ocharadi. Guash ranglari yog'li va shaffof emas, shuning uchun och ranglarni to'q ranglar ustidan qo'yish mumkin. Suyuq qilib ishlatilganda akvarelning xususiyatini beradi. U tez quriydi va qurigandan keyin xira baxmalsimon ko'rinish oladi. Bu bo'yoq texnikasi rangtasvir ishlashda akvarel bilan moybo'yoq o'rtasidagi o'tish bosqichi hisoblanadi.

Unda akvarelda ishslashdan farqi oq bo'yoq qo'shib ishlatishi hisoblanadi. Oq rangni qo'shganda esa juda nozik va yumshoq tuslar hosil qilish mumkin. Akvarel texnikasida boshlagandek boshlovchi rassom guashning ham cheklangan ranglaridan foydalanganliklari ma'qul. Unda ishlaganda bo'yoq qurib qolmasligi uchun har xil ishslash usullarini qo'llab rang surtmalarini tezkor su'ratda qo'yiladi, ish to'q tuslarda boshlanaib oq yoki och ranglarda tugatiladi. Bo'yoqni har xil suyuqlikda qo'yib qog'oz sirtida turli fakturalar, shu bilan birga jozibador kompozitsiyalar hosil qilinadi. Barcha tuzatishlar bo'yoq qurigandan keyin amalga oshiriladi.

Kompozitsiyadagi to'qlik, rang, faktura yoki masshtabni o'zgartirib qaramaqarshilik hosil qilish orqali holat yoki harakatni ifodalash mumkin. Juda och jism kuchli soya tushib turgan to'q jism oldiga joylashtirilsa kontrastlik darajasi oshadi. Rang yoki to'qlik darajasidan tashqari rangdor yuzada kulrang, sovuq tusli yuzada iliq ranglar berib ham kontrastlikni kuchaytirsa bo'ladi. Yana bo'yoq surtmasini har xil qalinlikda qo'yish, mo'yqalamni turlicha ishlatish yo'li bilan ham fakturadagi kontrastlikni yaratish mumkin.

Contrast creates a moment of detail or a dynamic that you can establish in a composition through a change of value, hue, texture, or scale. Contrast of value is heightened when an extremely light value is placed next to a very dark area, as with strong cast shadows. Besides a strong change in color or value, you can also express contrast through a neutral color juxtaposed with an intense color, saturated color next to a tint, or a cooler color next to a warmer one. Describing the changes in surface textures through brush handling (or via thickness of the paint itself) lets you achieve a contrast in texture.<sup>32</sup>

Bu faktorlardan o'z joyida qo'llash kartina va undagi obrazga nisbatan tomashabinning qiziqishini oshiradi. Rassomning hissiy sezgisi orqali kompozitsyaning asosiy qonun-qoidalariiga amal qilgan holda bu unsurlar va qoidalarni qanday tashkil etishni aniqlashiga yordam beradi. Kompozitsiyadagi bu qoidalarni qo'llashdagi ikkillanish yangi ijodiy eksperimentlar qilishga xalaqt beradi.

---

<sup>32</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 47



**I bosqich:** kompozitsiyani joylashtirib, uning qalamda umumiyo ko'rinishini chizib olamiz. Mashq uchun quruq qog'oz va iliq bo'yoqlarni tanladik.



**II bosqich:** natyurmordagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tuslarni aniqlab, katta yuzalarga ishvlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin-asta to'qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo'laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir-biriga uyg'unlashgan, iliq tusdagi kompozitsiya hosil bo'ladi.



**III bosqich:** kartinaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. SHu'la tushib turgan joylar uchun oq qog'ozda joy tashlab ketishni unutmang. Tezda qarama-qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog'lar ko'rinishlari sizni qo'shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi.



**IV bosqich:** umumlashtirish yakunlash ishlari. YUvib tashlash bilan oq joylarini ishlang. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring. Alovida bo'laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun

to'qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko'zdan panaroq joyga qo'ying. Ozroq muddat o'tgandan so'ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko'ra boshlaysiz va uni to'g'irlash mumkin bo'ladi.

### Xulosa:

Siz bu mashg'ulotimizda guash bo'yog'i, uning o'ziga xos xususiyatlari va unda ishslash texnikasi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldingiz.


YUqorida bajargan vazifamizda rangtasvirda kontrastlik darajasining ahamiyatini o'rganib, uni oshirish usullarini ko'rib chiqdik. Yana bo'yoq surtmasini har xil qalinlikda qo'yish va mo'yqalamni turlicha ishlatish yo'li bilan ham fakturadagi kontrastlikni yaratish mumkinligiga ishonch hosil qildik.


Yana kompozitsianing asosiy qonun-qoidalariga amal qilgan holda rangtasvir ishslash jarayonini qanday tashkil etish yo'llari, rassomning hissiy sezgisi imkoniyatlari haqida ham bilib oldik. Bu esa keyingi mashg'ulotlardagi kompozitsiya ishslash jarayonida yuzaga kelgan muammolarni yengil hal etishga yordam beradi.

### Mustaqil ish uchun vazifa.

Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini guashda ishslash texnikasida tasvirlashni o'rganishga oid mashqlar bajarish.

Olma tasvirini guashda ishslash bosqichlari.






### Nazorat savollari

1. Grafikada qanday vositalar qo'llaniladi?
2. Molbertni nimaga ishlatiladi?

3. Motiv deb nimaga aytildi?
4. Rangtasvirda muvozanat deb nimaga aytildi?
5. Asar yaratish maqsadida boshqacha usulni qo`llash, yangi yo`nalishni sinab ko`rish nima deb ataladi?
6. Lessirovka so`zi nimani anglatadi?
7. Qanday ranglar hosila ranglar deb ataladi?
8. Tasviriy san`atda simmetriya nima?
9. Fon ushin ishlataladigan gazlama matolar qanday ataladi?



### **Dekorativ fonda har xil buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri.**

Rangli mato fonida kontrast har xil buyumlarilan tuzilgan natyurmort qo'yilmasi.

O'quv vazifalari: ma'lum muhitda katta yorug'-soya, rang-tus nisbatlarini idrok qilish. Ranglarni yaxlit ko'rishni o'rganish. YOrug'lik, yarimsoya, soyadagi buyumning asl rangini bera olish; rang reflekslarini izlash.

Tabiiy yorug'lik (ustdan, yondan). A-2 formatdagi qog'oz. Material – akvarel, guash.

## **Tayanch iboralar**

Dekorativ fon, qarash nuqtasi, planshet, sovuq rang, mutanosiblik, chiziqli perspektiva, format.

### **Reja**

- 1.Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlarni qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;
- 2.Umumiylrang-tuslarini aniqlash;
- 3.Naturadagi umumiylkatta tus va rang nisbatlarini berish;
- 4.Buyumlarning yorug'-soya ko'lamlarini aniqlash va fazoviy perspektivani hisobga olib dekorativ usulda ishlov berish;
- 5.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiylga bo'ysundirish.

Atrofdagi boshqa ob'ektlarning buyum rangiga ta'siri yorug'lik manbaalarinikidan kam emas. Aynan o'shalar hajmni idrok qilishga yordam berib buyumda rangli reflekslarni hosil qiladi.

Masalan, sariq olma siyohrang matoda yotar ekan unda rangli refleks yaqqol ko'zga tashlanadi, ya'ni olmaning shaxsiy soyasi siyohrang tusda bo'ladi. Ma'lum buyumga atrofidagi ob'ektlardan aks etayotgan rangli refleks xuddi shuning o'zi hisoblanadi. Refleks rangi yonma-yon joylashgan buyumlarning rangiga bog'liq bo'ladi. SHuni unutmaslik kerakki refleksning tusi buyumning yarim soyasiga nisbatan sal to'qroq bo'ladi.

Buyum rangi yorug'lik nimadan tushib turishiga ham bog'liq. Quyosh nuri buyumni oqish holatda yoritadi, quyosh nurisiz ko'm-ko'k osmondan tushgan ko'kish rang tus beradi, alanga esa qizil-zarg'aldoq ko'rinish hosil qiladi. agar oq buyumga yuqoridagi nurlar har tomondan tushib tursa u uch xil rangli ko'rinishga ega bo'ladi.

Buyumning shartli rangini hisobga olish hajmni uch o'lchamlilikni ifodalash hamda tasvirlanayotgan kartina yaxlitligini yaratish uchun ham uchun juda muhim. YOrug'lik nuri ular yoritayotgan ob'ektlarga ta'siri yorug'lik manbai spektri va yorug'lik oqimining kuchiga bog'liq. Lekin shu bilan birgalikda fazoviy muhit va ob'ektda aks etayotgan atrofdagi buyumlarning fakturasi ham ta'sir etadi.

Ma'lum yorug'lik manbaalarining buyumning lokal rangiga ta'sir qonuniyatları mavjud. Masalan, quyosh yorug'ligi ta'sirida barcha buyumlar ochroq ko'rinish kasb etadi. ertalabki quyosh nuri buyumga iliq pushti rang bersa, kunduzgi nuri tillarang tus beradi, kechki nuri esa zarg'aldoq hattoki qizg'ish tus beradi. Bundan tashqari kunduzgi quyosh nuri ta'sirida buyumdan tushayotgan soyalar yetarli darajada aniq chegaralariga ega bo'lgan qoramitir tusli soyalar hosil qiladi.

To'lin oy yashilsimon-havorang tus beradi, sham yorug'ligi yoki boshqa ochiq olov buyumga zarg'aldoq tusni qo'shadi. Sun'iy yorug'lik ta'siri esa ancha murakkab. Ilgarigi eski lampalar och sariq tus bersa, zamonaviy lyuminessent lampalar uning optik xususiyatlariga bog'liq (ko'rinyayotgan spektr to'lqinlari uzun yoki qisqaligi) bo'ladi.

Buyumlarning lokal rangi osmonda yengil bulut qoplagan, yorug'lik yumshoq va bir tekis taralgan paytdagi tarqoq kunduzgi yorug'likda ko'proq o'z aksini topadi.

Rangtasvirni boshlashdan oldin kompozitsiyadagi tomashabin diqqatini tortadigan qarash nuqtasini aniqlab olish lozim. Kompozitsiyaning qaysi qismi muhim? Tomashabinning nigohi birinchi navbatda qaerga qaratiladi? Tomashabin diqqatini tortadigan kompozitsiya markazi mavjudmi? Avvalo o'zingizga shu kabi savollarni berib ko'ring. Bu sizga kompozitsion qarash nuqtasini topib olishingizga yordam beradi. Kompozitsiya qarash markazi bu – tomashabin diqqatini ko'proq jalg qiladigan kartina qismi hisoblanadi.<sup>33</sup>

Tasvirdagi kompozitsiya markazini topib olgandan so'ng tomashabinning ko'z qarashini (kartina bo'y lab tomosha qilish) ikki o'lchamli qog'oz yuzasida uch o'lchamli fazoviy chuqurlikka yo'naltirish vazifasi turibdi. Kartinaga kirish nuqtasi odatda qandaydir ranglar yoki chiziqlar yordamida diagonal qarama-qarshi burchakka yo'naltiruvchi element sifatida uning pastki qismida ko'proq ishlatiladi. Buning uchun natyurmortda asosiy obrazni ko'rsatib turuvchi mato burmalari, soya, bir qator mevalar bo'lishi mumkin. e'tibor bergen bo'lsangiz ko'proq mato burmalari, naqshlar yoki stol qirralari bu vazifani o'taydi. Diagonal yo'naltirishdan foydalanish qog'ozning pastki qismining turg'un bo'lishiga yordam beradi.

Uzoq muddat ishlanadigan rangtasvir ma'lum bosqichlarda bajariladi. Har qanday rangtasvirni ishslash bosqichlarining asosiy prinsipi umumiyl yaxlit ko'rinishlarni ishslashdan boshlanib, keyin mayda bo'laklarni ishslashga o'tiladi va yakunlash bosqichida barchasini umumlashtirish ishlari olib borilib vazifa tugatiladi.

### Natyurmort rangtasviri ishslashning bosqichlari.

Dekorativ fonda har xil buyumlardan tashkil topgan natyurmortni planshetga joylashtirishda hajmdor buyumlarga etiborni qaratishimiz lozim. Qo'yilmani dekorativ yo'naliishini tahlil etib issiq va sovuq ranglarni bir-biriga bog'lagan holda ishslash. Har xil idishlarning bir-biriga bo'lgan mutanosibligini aniqlash. Rang ohanglarini bir-biriga bog'lash. SHakl mutanosibligini farqlash. Turli xil davrlarga munosib idishlardan tashkil topgan natyurmort.

**I bosqich:** kompozitsiyani joylashtirib, uning qalamda umumiyl ko'rinishini chizib olamiz. Odatda rassomlar bunday ko'rinishdagi (framemaker) qurilmalarni o'zları yasab olishgan yoki bu ishning ustalariga buyurtma berib yasatishgan. Bunda kvadrat to'rlarni ramkaga ingichka sim yoki iplarni bir tekisda tartib bilan tortib chiqilgan va qurilmani voqeа joyi ko'rindigan holda qulay qilib joylashtirilgan. Bu holatda ko'rinishni qog'ozga joylashtirib olishda ancha yengillik tug'iladi, biroq shu bilan birgalikda rassomdan ish vaqtida qarash nuqtalari ko'rinish va qog'ozdagi tasvir bir xil holatda ko'rinishini yo'qotib qo'ymaslik uchun o'ta sabrlilikni ham talab qiladi.

**I bosqich** – Barcha buyumlar jamlanmasi va alohida buyumlar kompozisiyasini qog'oz yuzasida to'g'ri joylashtirish, umumiyl ko'rinishini qalamda ishslash. YUqoridagi mashg'ulotlarimizda natyurmortni boshlash ko'nikmalariga ega

<sup>33</sup> Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 55

bo'ldingiz. Rassom bu qonun-qoidalarga rioya qilishni o'zi uchun doimiy odatga atlantirib olishi kerak.



**II bosqich** – Asosiy shakl va fonning asosiy ranglarini aniqlash. **II bosqich:** natyurmordagi mevalar, idishlar hamda fondagi asosiy tuslarni aniqlab, katta yuzalarga ishlov beriladi. Ulardagi ranglar sekin-asta to'qlashtirib boriladi. Kartinadagi boshqa bo'laklarining rangini fon rangi yordamida tayyorlanib borilsa bir-biriga uyg'unlashgan, iliq tusdagi kompozitsiya hosil bo'ladi.





III bosqich – rangda hajmiga ishlov berish, rang–tus munosabatlarini topish.

**III bosqich:** kartinaning kompozitsion qurilishi. Mevalarning boy rangi hamda grafin va ryumkalarni keng rang surtmalarida berib boring. SHu’la tushib turgan joylar uchun oq qog’ozda joy tashlab ketishni unutmang. Tezda qarama-qarshi ranglar, yorqin tus va oq dog’lar ko’rinishlari sizni qo’shimcha ishlov berish, soya chetlarini yumshatish, yuvish ishlarini bajarishga undaydi.

**IV bosqich:** Ob’ektning barcha bo’laklaridagi yorug’–soyalarga ishlov berib, kompozisiya umumlashtiriladi va yakunlanadi. YUvib tashlash bilan oq joylarini ishlang. Mevalar, savatning rangdorligiga ishlov berib ranglarni yaxlitlashtirib boring. Alovida bo’laklarning qirralari yonidagi jismlardan ajratish uchun to’qlashtiring, kerakli joyini yumshatib aniqlashtirib boring. Ishni tugatishdan oldin uni ko’zdan panaroq joyga qo’ying. Ozroq muddat o’tgandan so’ng qaraganingizda undagi kamchiliklarni ko’ra boshlaysiz va uni to’g’irlash mumkin bo’ladi.





Rangtasvirni bajarish bosqichlari bo'yicha qat'iy mantiqqa asoslab olib borish ko'nikmalar talabalar tomonidan uzoq vaqt ishlash natijasida asta-sekin egallab boriladi. Uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortni bajarishda ranglar bilan shaklining hajmdor qurilishi, ularning fazoviy va masshtab jihatdan o'zaro bog'liqligini ko'rsatish vazifasi qo'yiladi. Talabaga kompozisiyadagi chiziqli perspektiva, fazoviy perspektiva, yorug'-soya, rang-tus, o'zaro uyg'unlik, qarama-qarshilik qonuniyatları haqida tushunchalar beriladi. Bu rangtasvirda tasvirning chiziqli konstruktiv qurilishi, yorug'-soya munosabatlarini to'g'ri bajarish bilan shaklni aniqlashtirish talab qilinadi. Ranglarning o'ta dag'alligi, rangning juda och bo'lib qolishi, shu bilan birga rangtasvirni o'ta qoraytirib yuborish, qog'ozni kir bo'lib ketishi, palapartish va qo'pol rang dog'lariga yo'l qo'ymaslik ham kerak. Tasvirdagi mayda bo'laklarni emas, katta-katta yuzalarni yaxlit ishslash bilan, qog'ozning butun yuzasi bo'ylab bosqichma-bosqich, rangtasvirning sifatli texnik bajarilishiga erishish talab qilinadi. YOrug'-soya va reflekslarga ishslashning mohiyati, tasvirni palapartish bo'yash emas, jism shaklining hajmli qurilishini muvafaqqiyatlari bajarishdan iborat.

### Xulosa:

YUqoridagi mashg'ulotimizda biz siz bilan yorug'lik manbaalari bilan birga natyurmort qo'yilmasi atrofidagi boshqa ob'ektlarning buyum rangiga ta'siri kam emasligining govohi bo'ldik. Aynan o'shalar hajmni idrok qilishga yordam berib buyumda rangli reflekslarni hosil qilishini amalda ko'rdik.

Hajmni uch o'lchamlilikda ifodalash hamda tasvirlanayotgan kartina yaxlitligini yaratish uchun ham buyumning lokal (asl) rangi va shartli rangini hisobga olishning muhimligi haqida bilib oldik. Naturadagi jismlarga fazoviy muhit va ob'ektida aks etayotgan atrofdagi buyumlarning fakturasi hamda yorug'lik nurining ta'sir etishini ranglarda ifodalay olish ko'nikmalariga ega bo'ldingiz.

Kunning har xil paytidagi quyosh nuri yorug'ligining va sun'iy yorug'likning naturaga qanday ta'sir etishi haqidagi ma'lumotga ega bo'ldingiz. Bu olgan bilimlaringiz hali plenerga chiqib rangtasvir ishlaganingizda ham sizga asqotadi.

## **Mustaqil ish uchun vazifa.**

Dekorativ fonda har xil buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasviri ishslashni o'rganishga oid mashqlar bajarish.

### **Nazorat savollari**

1. Faktura atamasi ta'rifi?
2. Rangtasvirda dastlabki rang berish nima deb ataladi?
3. YAshil rang qaysi bo'yoqlar aralashmasidan hosil bo'ladi?
4. Tasviriy san'at janrlari qaysi qatorda?
5. Surat tekisligi deb nimaga aytildi?
6. Tasviriy san'atning turlarini aytig.
7. Format atamasining ma'nosi nima?
8. Asl holiga, tabiiy ko`rinishga o`xshatib ishslash tasviriy san'atning qanday uslubiga kiradi?
9. Akvarel bo'yog'i qurigach, ochlashadimi yoki to'qlashadimi?
10. YUmshoq, mayin mo'yqalamlar nimalardan tayyorlanadi?

### **Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish (Hayvonot bog'ida)**

*Quyosh nuri ostidagi fazoviy bo'shliq fonida hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini ishslash. Bir-ikki seansli ranglavha (7-rasm).*

O'quv vazifalari: plener sharoitida akvarel rangtasvirida ishslash usuli va texnikalari imkoniyatlarini o'rganish; natyurmortda quyosh nuri va osmondan qaytgan reflekslarnii aniqlash.

Material – akvarel. A-2, A-3 formatdagi qog'oz.

### **Tayanch iboralar**

Plener, shaffof, yoritish manbai, qoralama, animalist rassom, tulum, konus, sirt xususiyatlari, etyudnik.

### **Reja**

- 1.Qog'oz sathida kompozitsion joylashtirish;
- 2.Umumiyl rang-tuslarini aniqlash;
- 3.Naturadagi umumiy katta tus va rang nisbatlarini berish;
- 4.Ranglavhani tugallashdagi umumlashtirish bosqichi; ranglavhadagi asosiy va ikkinchi darajali bo'laklarini aniqlash; barcha mayda bo'laklarni umumiyya bo'ysundirish.

Ochiq havoda (Plener) ishslash rangtasvirning koloristik imkoniyatlarini kengaytiradi. Quyosh nurining mo'lligi, ko'plab reflekslar, rang nisbatlarining aniqligi – bu hammasi rangtasvir qonun-qoidalarini chuqur o'rganish, badiiy didning rivojlanishi imkonini beradi.

Plenerdaa ishslash ustaxonada ishslashga nisbatan ancha ustunlik tomonlari bor. Ustaxonada yoritish sharoiti bir xil, ochiq havoda esa rang juda ko'plab jonli va o'zgaruvchan reflekslarga boy bo'lib faol yorug'lik muhitini yaratadigan quyosh nurlari bilan to'yingan bo'ladi. Natijada rangtasvirga o'ziga xos jozibadorlik baxsh

etadigan yorug'likning mo'llligi buyumlarning soya qismi va tushuvchi soyalariga rangdor va shaffof ko'rinish beradi. Bundan tashqari quyoshli kun, bulutli, kechki holatlaridagi turli yoritilishi tasvirlash uchun rang nisbatlari, koloritni o'rganishng juda keng imkoniyatlarini yaratib beradi. Sochilgan quyosh nurining o'ziga xosligi. O'tkir quyosh nuri ko'lami ranglarni kuchli yoritib unlarga kam to'yinganlik ko'rinishini beradi. SHu bilan asosiy yoritish manbaiga qo'shimcha osmondan tushgan reflekslar birlashadi. Murakkab qo'shaloq yoritilish natijasida iliq tuslar bilan yonma-yon sovuq tuslar qo'shilib buyum sirtiga o'ziga xos xususiyat baxsh etadi. SHuningdek shaxsiy va tushuvchi soyalardagi aniq aks etgan sovuq tuslar quyosh nuri bilan yoritilish natijasida paydo bo'ladi. Atrofdagi narsalardan tushayotgan yorug'lik va reflekslar buyum yuzasiga ta'sir qilishi natijasida hosil bo'ladigan bunday tuslar faqat rangtasvirga mansub yengil fazoviy shaffoflikni yaratadi. Bunday tuslarni tahlil qilib ranglarda ifodalash plenerda rangtasvir ishslashning asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Ochq havoda rangtasvir ishslash ob-havo muhiti va ranglavha ishlanayotgan kun vaqt bilan bog'liq. Bu sharoitlar o'zgarishi natijasida ranglavhadagi ranglarning koloristik tuzilishi ham o'zgaradi. Quyoshli kunda keskin soyalar rangtasvirni kontrastlarga boy qilsa, bulutlt kun yoki soyalarda aksincha buyumlar shakli yumshoq, yorug'lik sochilgan, rang esa to'yingan holda bo'ladi.


Plenerdag'i rangtasvir ba'zi qonun-qoidalarga rioya qilishni talab qiladi. Ochiq havoda ishlar ekan rassom palitrani kuchli yoritadigan osmondan tushadigan reflekslar va quyosh nurining mo'llligini hisobga olmog'i kerak. Bu bulutli kunga ham tegishli. Rangtasvir ishslashda to'g'ri tushayotgan quyosh nuridan saqlanish uchun soya joylarni tanlagan ma'qul. Ranglavhani qisqa muddatda tez bajarish kerak. Ba'zan juda qiziqarli hayvonlar va parrandalar ranglavhalarini bir seansda tugata olmay qolish mumkin. Uni keyingi kun yana davom ettirish mumkin, lekin buning uchun aynan o'shanday kun va o'sha vaqtda bajarish kerak bo'ladi.

### **Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish.**



34

<sup>34</sup> Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York. S.69



35

Hayotining so'ngi yilida Van Gog 850 dan ortiq rangtasvir asarlari va 1000 dan ortiq qoralama va qalamchizgilar ishladi. Boshqa rassomlar singari Van Gog ham tinimsiz o'z ustida ishladi. Rangtasvir ishlar moqchi bo'lgan har bir kishi Van Gogga o'xshab progressiv yutuqlar yo'lidagi mashaqqatli mehnat samarasiz bo'lmasligini o'ziga shior qilib olmog'i lozim. Akvarel texnikasini o'rghanish yanada qiyinroq hisoblanadi. Buning uchun ijodiy jarayonda zarur texnika, ko'nikma va malaka, sabr-toqat, juda ko'plab qoralama va ranglavhalar bajarish kerak bo'ladi.

Ayniqsa hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish mashg'ulotlarida bunday tezkor ranglavhalar ishlash juda foydali. Insoniyat qadimdan hayvonot olami va tabiat bilan chambar-chas bog'liq holda hayot kechirib keladi. SHuning uchun musavvirlar azaldan tabiat go'zalliklarini, hayvonot



<sup>35</sup> Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American Edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York. S.79

olamini jonli bo'yoqlarda tasvirlashga harakat qilganlar. Ana shunday rassomlarni animalist rassomlar deb ataydilar.

Hayvonot dunyosi beqiyos, turli-tumandir. Tabiatan plastik harakatlanuvchi jirafadan tortib, cheksiz erkin ranglarga ega bo'lgan kapalaklar, qushlar rassomlarga ilhom baxsh etadi va ularning shu janrda turli asarlar yaratishlariga turtki bo'ladi.

Qush va hayvonlar rasmini tasvirlash borasida har bir talabaning kerakli bilim va malakaga ega bo'lishi talab etiladi.

Qushlarning rasmini chizishni o'rganishda, avvalo, tulumiga qarab turli tomondan tasvirlashni mashq qilish maqsadga muvofiqdir. Buning uchun ularni sinchiklab kuzatish lozim. Keyin tulumlarini tez chizishni mashq qilish orqali jonli hayvon va qushlar rasmi tasvirlashga o'tiladi. Tirik qushlarning tasvirini ishslash juda qiyin. CHunki ular tinimsiz harakatda bo'ladi.

Birorta qush rasmini ishslashdan oldin uning boshiga nisbatan gavdasi, tumshug'i, dumining tuzilishini aniqlab olish kerak.

Qushlarning tuzilishini geometrik jismlarga taqqoslasak, tumshug'i konussimon, boshi sharga o'xshashini payqaymiz. Gavdasi esa tuxum shakliga o'xhab ketadi. Ana shu shakllarga o'xshatib qushning boshi, bo'yni, tumshug'i, gavdasini chizish kerak.

Albatta, har qaysi bo'lakning o'ziga xos tomonlarini hisobga olib, bir-biriga uzviy bog'lash lozim, aks holda qush boshqa bir qushga o'xhab qoladi (26-rasm).

Qush (turna) rasmini chizish uchun u avval sinchiklab kuzatiladi, turnaning gavdasiga nisbatan oyog'i, bo'yni anchagina uzun, tumshug'i ham uzun va uchlidir. Qog'ozga turnaning gavdasi o'rtasidan yo'nalishi bo'yicha qiya chiziq tortib, ana shu chiziqqqa uzunchoq tuxum shaklidagi gavdasi belgilanadi. Keyin bo'yini belgilovchi chiziq, oyoqlarning yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziq, so'ng dumining uzunligi belgilanadi. CHizish jarayonida qushning tumshug'i, boshi, oyog'i, qanoti, dumining o'lchamlari qayta-qayta solishtirilib aniqlanadi. Ish yorug'i va soyalarni asta-sekin tasvirlash bilan nihoyasiga yetkaziladi.

Hayvonlar rasmini chizishda ham qushlar rasmini chizishdagi tartibga rioya qilinadi. Ularning tasvirini chizish qushlarni chizishga qaraganda birmuncha qiyin. CHunki hayvonlarning tana va suyak tuzilishi murakkabdir. Suyaklarning tuzilishini o'rganish ham tasvirni to'g'ri chizishga yordam beradi.

Hayvonot olamini tasvirlash ham qiziqarli, ham mushkul. Doimo harakatda bo'lgan yirik hayvonlar. mittigina parrandalarning holatini kuzatib o'rganish va ularni tasvirlash talabalarga keyingi ijodiy ish jarayonida g'oyatda zarur. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning harakat, nisbat, ranglarning o'zaro bogliqligi kabi tasviriy san'atda muhim bo'lgan qonun-qoidalarni o'zlashtirib olishlarida katta ahamiyatga ega.<sup>36</sup>

Tez bajariladigan shu bilan birga g'oya mazmunini ochib beruvchi qoralama va ranglavhalar rangtasvirni o'rganish uchun bebaho o'rganish manbai hisoblanadi. Bu kichik eskizlar ba'zan katta asarlar yaratilishi uchun "g'oyaviy yadro" vazifasini o'taydi. YAxshi rangtasvir kompozitsiyasi bajarish uchun buyumdag'i chiziqlar, shakl,

<sup>36</sup> Abdirasilov S., Boymetov B., Tolipov N. TASVIRIY SAN'AT. Cho'lpon nomidagi nashriyot-m atbaa iiodiv uyi/ Toshkent - 2006. 43-45 betlar

rang, yuza va sirt xususiyatlariga (silliq, g'adir–budur, yaltiroq, yumshoq) diqqatni qaratish lozim.<sup>37</sup>

Umumlashtirish bosqichida naturaga yaxlitligicha qarash, hamma narsani birdaniga ko'rish ya'ni «tikilib qarash» kerak. Buyumlar guruxining barchasi tarqoq bo'lib tuyuladi, ammo shu paytda tus munosabatlarini, natura yaxlitligini tezroq tushunish mumkin. Navbatma–navbat naturaga ham, ranglavhaga ham yaxlit qarash kerak, shunda qaerda qanday xatoga yo'l qo'yilganligini ilg'ab olish mumkin. Butunligicha, yaxlitligicha ko'ra olish qobiliyati, ishni umumiyyadan xususiyga qarab va undan yana umumlashtirishga tomon boriladi. Ish jarayonida yaxlit ko'rish – rangtasvir ishlash mahoratining asosidir. Faqatgina shu malakaga ega bo'lган rassom, naturani obrazli ko'rinishini to'g'ri ifoda etishi, undagi asosiy va har bir bo'lakning o'z o'rnini topishini, ishning yakuniy darajasini hamda kompozitsiyaviy markazga bo'ysundirishni samarali bajara oladi.<sup>38</sup>

### *Guashda va akvarelda hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish.*



Akvarelda oftobda toblanib yotgan kuchuk ranglavhasini ishslash bosqichlari.<sup>39</sup>

<sup>37</sup> Paramon Edisionis, «Osnovo' jivopisi». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s-15

<sup>38</sup> Abdirasilov S., Tolipov N., Oripova N. Rangtasvir Toshkent-“O’zbekiston” -2006 82-бет

<sup>39</sup> Frontz , Lesl i e.

The watercolor course you've always wanted : guide to lessons for beginners and experienced artists / Alirri rights reserved. Published in the United States by Watson-Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 114-117.

[www.crownpublishing.com](http://www.crownpublishing.com)

[www.watsonguptill.com](http://www.watsonguptill.com)

## **Xulosa:**

Bu mashg'ulotimizning undan oldigi mashg'ulotlarimizga qaraganda keskin farq qilganini sezdingiz. O'zgaruvchan ochiq havoda ranglavha ishlash cheklangan yorug'lik sharoitida bajargan ishlarimizga qaraganda ancha farq qiladi. Bu mashqlar sizning ranglar palitrangizni boyitadi. Buning ustiga harakatchan qush va parandalar, tinib tinchimas uy hayvonlarining ranglavhalarini ishlash talabaga tez qaror qilish, tezkor rang surtmalari qo'yishga majbur etadi. Bu esa sizning ish su'ratingizning tezlashishiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Bajargan vazifalarimizdan yana bir xulosa shuki: rangtasvirda ishlashgda katta muvaffaqiyatlarga erishish tinimsiz mehnat, sabr-toqat va ko'plab eksperimentlar qilib ko'rish ekanligini ozgina bo'lsa-da tushunib qoldingiz. Bu davrda sizda kuzatuvchanlik, eslab qolish, rang-tus, yorug'-soyalarni tahlil qilish va o'zingizga ishonch paydo bo'ldi. Bundan tashqari amaliy ko'nikmalar va nazariy bilimlarni uyg'unlikda olib borish ham sizning ijodiy yuksalishingiz garovi ekanligini unutmang.

### **Mustaqil ish uchun vazifa.**

Guashda va akvarelda hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish.

### **Nazorat savollari**

1. Tabiat ko`rinishini ishlash qanday janr deb ataladi?
2. Kartinaga rassom tomonidan tanlangan tomashabinning nigohi yo'naltirilayotgan nuqta nima deb ataladi?
3. Asar yoki tasvirning oldindan bajarilgan xomaki tasviri nima deyiladi?
4. Naturani o`rganib chiqish uchun tezkor ishlanadigan rangtasvir nima deb ataladi?
5. Tasviriy san`atda hayvonlar, jonivorlarni ishlash qanday janr deyiladi?
6. Badiiy hususiyatlari tashqi muhitga bog'liq bo'limgan dastgohda ishlanadigan kichik asarlar qanday ataladi?
7. Guash texnikasi, texnologiyasida vazifalar ishlash uchun qanday ashyo va jihozlar zarur bo'ladi?
8. Tasvirdagi aniq bir mavzu yoki voqeа qanday ataladi?
9. Rassom uzoq vaqt kuzatib ishlash jarayonida bevosita tasvirlash uchun tanlagan voqelikdagi ob'ektlar nima deb ataladi?
10. Guash bo'yog'i asosan san'atning qaysi turida ko'proq qo'llaniladi?

### **AKVAREL ISHLARINI KO'RGAZMAGA TAYYORLASH (RAMKA BILAN BEZASH):**

**Akvarelda bajarilgan ishlarni badiiy bezatishning umumiy qonuniyatları, o'ziga xos xususiyatlari:**

**Paspurtuni tusi bo'yicha tanlash:** kartina tusi va ramka tusidan och-to'qligi jihatdan 2-3 baravar farqlanishi kerak;

#### **Paspurtuni rangi bo'yicha tanlashda:**

- a) kartina koloritini belgilovchi ranglardan biri bo'lishi,
- b) oq yoki kulrang; tuslar qatnashishi kerak.

1. **Ramka tanlash** quyidagi qoidalarga asoslanadi:

- a) **fakturna** – tabiiy material yoki unga o'xshash material,
- b) rang tarkibida quyidagi uch xil rang bo'lishi lozim:
  - to'q – qora yoki 90% li qora;
  - o'rtacha – kartina koloritini belgilovchi ranglardan biri;
  - och – kartina koloritini belgilovchi ranglardan biri.

**Bezatilgan ramkaning ob'ekt bilan uyg'unligi:**  
- qancha yorqin va bosiq bezatilgan bo'lsa, xromatik rangdagi ob'ektlar bilan shuncha kam uyg'unlashadi va axromatik rangdagi ob'ektlarga shuncha ko'proq to'g'ri keladi.









### ***Kartinalar uchun baget va ramkalar***

Kartinalarni bezatishda ramka va oynalardan foydalanishning afzal tomonlari:

- Oddiy mahsulotni san'at darajasiga aylantiradi;
- Binoning umumiy dizayniga o'z ta'sirini ko'rsatadi;
- Tasvirning o'ziga xosligiga urg'u beradi;
- Kompozitsiyaga e'tiborni jalb qiladi;
- 3 yoki 2 o'lchamli ko'rinishni yaratadi;
- Ishga tugallanganlik hissini beradi va h.k.

### ***Kartina uchun ramka tanlash tamoyillari***

- Interer bilan o'zaro uyg'unlik hosil qilishi kerak;
- Tasvirning o'ziga xosligiga urg'u berishi lozim;
- Binoning umumiy dizayniga mos bo'lishi;
- Devor rangiga emas, kartina rangiga qarab tanlanishi kerak;;
- Ramka va tasvir bir-birini to'ldirib turishi lozim.

### ***Ramkalardan foydalanishning o'ziga xos jihatlari***

- Ramka tuzilishi va kartina yaxlit kompozitsion uyg'unlikda bo'lishi kerak;
- Avangard usulidagi rangtasvirga hashamdar, shuningdek yaltiroq, ingichka, zamonaviy va rangdor ramka tavsiya qilinmaydi;
- uchun ramka o'lchamlari kartina eni bilan o'zaro muvofiqlikda bo'lishi kerak;
- ramka rangi kartinaning asosiy koloritidan farq qilishi kerak;
- ingichka nozik ramka katta o'lchamdagи kartinaga zamonaviylik tus bersa, enli bagetlar unga hashamdarlik baxsh etadi;
- enli ramkalar bilan qadimiy ishlar, oyna va h.k. larni bezash tavsiya qilinadi;
- ingichka baget bir qancha kartinalar guruhi bo'lganda foydalanilsa yaxshi bo'ladi;

- iliq tusdagi kartinalarni o'sha ranglarda bezatish maqsadga muvofiq bo'ladi;
  - yog'och ramkalar barcha turdag'i kompozitsiyalarga to'g'ri keladi;
  - mebel va kartina ramkasi bir xil bo'lmasligi lozim;
  - grafik ishlarga oyna va paspartu bilan ramkalar tanlanadi;
  - pastel va akvarel kompozitsiyalari uchun o'rta va ingichka qalinlikdagi ramkalar mos tushadi;
  - qalamtasvir ishlari uchun yog'och ramkalar ma'qul;
  - zamonaviy kartinalarni metall rangidagi ramkalar bilan bezatgan ma'qul;
    - ko'mir va tushda bajarilgan grafik ishlar qo'shimcha bezaksiz to'q ramkalarda yaxshi ko'rindi;
    - akvarel uchun bosiq rangli va och tusli bagetlar tanlagan ma'qul;
    - to'qilgan kartinalar uchun xira fakturali tasvir bilan uyg'unlikdagi ramkalar ishlataladi.

**Mavzu bo'yicha savollar.**


1. Ijodiy ishlarni badiiy bezashda qanday tamoyillar mavjud?
2. Ramka tanlash qanday qoidalarga asoslanadi?
3. Badiiy bezakda ranglar doirasidagi yonma-yon joylashgan, lekin to'yinganligi, yorqinligi bilan farq qiluvchi ranglarning o'zaro munasobatlariga asoslanadigan tamoyil nima deb aytildi?
4. Ranglar doirasidagi qarama-qarshi joylashgan va och-to'qligi jihatidan 2-3 tusga farq qiluvchi ranglardan foydalanish tamoyili nima deb ataladi?
5. Kartinalar uchun baget va ramkalar qanday ahamiyatga ega?
6. Kartina uchun ramka tanlash qanday tamoyillarga asoslanadi?

**Olingan bilimlarni sinab ko'rish uchun topshiriqlar.**

**1 - t o p s h i r i q .**

**Rangtasvir atamalari krossvordi**

**Mashq.** Rangtasvirda ishlataladigan atamalarni yozib bo'sh kataklarni to'ldiring.



Misol uchun variantlar: *tus, ritm, eskiz, siluet, yorug'-soya, qoralama,*


*muvozanat, kompozitsiya, perspektiva, mutanosiblik.*

## 2 - topshiriq.

### Krossvord 2. Rangtasvir

Berilgan so'z orqali qolganlarini aniqlang.

1. Oynaga shaffof ranglarda ishlangan tasvir.
2. Maxsus bo'yoqlarda ipak, paxta, jun va sintetik matolarga qo'lida rasmlar ishslash usuli.
3. San'atning har xil turlarida ichki bo'linishlarini anglatuvchi atama (fran. genre xil, tur), badiiy asarlarning mazmuni va shakli, badiiy obrazning kelib chiqish belgilariga ko'ra turlarga ajratadi.
4. Suvda eritiladigan shaffof bo'limgan bo'yoq.  
Rangli tosh bo'laklaridan bajarilgan tasvir.
5. Harakatsiz turg'un holat.  
Razbavitel, skipidarda suyultiriladigan rangtasvir uchun shaffof bo'limgan quyuq bo'yoq.
6. Po'latdan yasalgan kurakcha yoki pichoqcha shaklidagi ingichka plastina(italyancha metsichino); rangtasvir ishslashda qo'llaniladi.
7. Ho'l shkaturka ustidan rangtasvir.
8. Rangtasvirda ishlatiladigan yarim shaffof, suvda eritiladigan bo'yoq.
9. Bitta rangda bajarilgan (ko'proq qora, jigarrang) ranglardan foydalanib bajarilgan rangtasvirning bir turi.
10. Qalin, qattiq va juda pishiq qog'oz, qalin qog'ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u asosga tushiriladi (mato, devor, yog'och yoki metall tekislik).




### 3-topshiriq.

#### Krossword 3. Badiiy tasvirlash vositalari


Berilgan so'z orqali  
qolganlarini aniqlang.

1. Kartinaning rang yechimi.  
Ranglar mutanosibligi.
2. Qog'oz yuzasida fazoviy bo'shilqning tasviri.
3. Tabiat ko'rinishi.
4. Tasvirlanayotgan gavda, yuz, shakl bo'laklarini tomashabin e'tiborini jalb qilish maqsadida rangda, chiziqlarda va tuslash usuli bilan bo'rttirib ko'rsatish.



### 4-topshiriq.

#### Krossword 4. Grafika



Berilgan so'z orqali qolganlarini aniqlang.

1. CHizish uchun ishlataladigan qizil va jigarrang tusdagi qalamchalar .
2. YOg'och va linoleumga o'yib ishlanadaigan tasvir.
3. Kompozitsiyadagi turg'un holat.
4. Metallga o'yish, kislota bilan ishlov berish orqali chiziladigan surat.
5. Narsa yoki tasvir ikki qismining bir biriga aynan o'xshashligi, mutanosibligi.
6. Tasviriy sanatda: narsaning uzoqdagi qismlarini qisqartirib, kichraytirib tasvirlash.
7. Narsaning uch o'lchamda (fazoviy bo'lib) bo'rtib ko'rinishayotgan shakl-shamoyili.

## **5 - topshiriq.**


### **Krossvord 5.**

Bo'yiga:

1. Bo'yoq rangi; 2. Rassom tomonidan bajarilgan ko'rinish, chizgi, surat;
3. Akvarelda ishlataladigan qog'oz.

Eniga:

- a. Qattiq qog'oz; b. Suv bo'yoq; s. ranglar jilosi D.



## **6 - topshiriq.**


### **Krossvord 6.**

Bo'yiga:

- 1-Tasviriy san'at turi; 2-Faqat yorqinlik bilan tavsiflanadigan ranglar atamasi;  
3-Quyosh, olov, issiqlik taftini eslatuvchi ranglar aytilishi.

Eniga:

- a- Qattiq qog'oz; b- Suv bo'yoq; s- Akvarelda majud bo'lган yelim; d- Bo'yoq aralashtirish moslamasi.



## VII. GLOSSARIY

	O'zbekcha	Inglizcha	Izoh
1	Akvarel	Watercolors	– tayyorlashda suvda parchalanish hususiyatiga ega modda, masalan gummiarabik moddasidan foydalanilgan bo'yq turi. Odatda akvarel suv bilan qorilganda suv kabi tiniq holatga keladi va mo'yqalamda uzun dog`lar yordamida ishlanadi.
2	Oq bo'yoq (Belila)	White	– oq mineral bo'yoq. Odatda tarkibida kumush, temir, mis, titan kabi moddalar mavjud bo'ladi. Birinchi oq mineral bo'yoq – yog'li rassomlik san'ati uchun mo'ljallangan – qo'rg'oshin belilasi. U mustahkam, yaxshi quriydi va havo ta'siriga chidamli hossalarga ega. Qo'rg'oshin belilasining kamchiliklari ham bor: u zaharli, vaqt bilan vodorod sulfide ta'siridan rangi to'q va tiniqroq holatga keladi, yog'da sarg'ayadi.
3	Qog'oz	Paper	– tasviriy san`atda qog'oz ko`proq akvarel bilan ishslashda qo'llaniladi, bu yerda ortiqcha takrorlanishlardan qochib, faqat bir qancha mulohazalar bilan kifoyalanish mumkin.
4	Vatman	Whatman	– (angl. whatman) – qalin qattiq qog'oz. Juda sifatli, yuzasi ga`dir – budur, mustahkam va yaxshi moylangan qog'oz. Qog'oz nomi ingliz qog'oz korxonasi egasi J.Vatman
5	Grizayl	Grisaille	– (fran. Grisaille gris so'zidan olingan – kulrang). Bir rangli tasviriy san'at, bir rangli yozuv (monoxromiya), bitta rang yordamida ishlanadi, odatda kulrang yoki jigarranglardan foydalaniladi. Grizayl uslubi uskuna tasvirida, shuningdek interyerlarda ham keng qo'llaniladi. Grizayl klassitsizm san'atida relyef soya va nur tasviri yordamida yoritiladi.
6	SHu'la (blik )	Glare	– (nemis. – nigoh) soya va yorug`lik elementi. Buyumdag'i eng yorug` nur tushgan, asosan jilolanib va yaltirab turgan qismi. Odatda bu dog' yorqinligiga ko'rabyumning umumiyligi ko'rinishidan yaqqol farqlanib turadi.

7	Mo'yqalam	Brush	– dastgakka maxkamlangan bir xil dag'al junlar to'pi, tekislikka bo'yoq, yelim , lak surtish uchun qo'llaniladi. YUngli hayvonlar yungidan (olmaxon, suvsar) va hayvonlar junidan tayyorlanadi. Foydalanishda sintetik mo'yqalamlar juda qulay.
8	CHeklangan ranglar	limited floweres	–rangtasvir ishlashni o'rganishning boshlang`ich bosqichlarida qo'shimcha ranglarni tayyorlashni o'rganish uchun mavjud barcha ranglar naboridan foydalanilmay, kam sonli bo'yoq ranglaridan foydalaniladigan ikki yoki uch xil rang.
9	Torshon qog'oz	Paper torshon	–torshon atamasi (fr. juda g`adir–budur yuza) – yuzaning yirik va mayda jilvirliligi xususiyatini anglatadi. Zichligi yuqori, yorqin oq rangda, kislotasiz, uzoq muddat saqlanish Rangtasvirga o'ziga xos jozibalarlik yuzasi jilvirli akvarel, guash, tempera va akril bo'yoqlarida rangtasvir ishlash uchun qo'llaniladigan maxsus qog'oz turi.
10	Kompozitsiya	Song	(lot.composition – tuzish) – badiiy asarni uning mazmuni va xususiyatiga ko'ra tuzish. Kompozitsiya asarga o'ziga xoslik va butunlik baxsh etuvchi badiiy shaklning muhim elementi hisoblanadi.
11	Geometrik jismlar	Geometric bodies	– rangtasvirni o'rganishning boshlang`ich bosqichlarida natyurmort qo'yilmalari uchun o'quv jarayonida qo'llaniladigan to'g'ri shaklli (kub, shar, prizma, piramida, konus) gipsdan yasalgan jismlar to'plami. O'quv jihizi.
12	Konstruktiv tuzilish	Design	– tasviriy san'atda shaklning o`ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun barcha qismlari o`rtasidagi munosabat, o`zaro nisbatlarni qurish.
13	Perspektiva	Perspective	– (fran.perspective, lot.perspicio – aniq ko'raman), tekislikdagi katta tanalar tasviri, ularning o'z joy tuzilishi va joylashgan o'rni, shuningdek kuzatuvchidan uzoqligi yetkazib beriladi.
14	Obraz	Image	– san'atda butun borliq hodisalarini tasvirlash shakli, butun borliqni badiiy tasvirlash shakli. Tasviriy san'atda obraz fikrning aniq, yaqqol tasviri.

15	Buyum tekisligi	Plane subject	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog`oz yuzasi
16	Natyurmort	French inanimate nature	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog`oz yuzasi frantsuzcha—jonsiz tabiat.
17	Rangtasviri	Converted using different paints picture books	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog`oz yuzasi turli hil bo`yoqlar yordamida ishlanadigan surat, asarlar.
18	YArim soya	The penumbra	– yorug`lik va soya elementi; yorug`lik va chuqur soya orasidagi joyni egallovchi, predmet ustidagi yorug`lik va soya siyqallashishi.
19	YArim	Halftone	– predmetning yoritilgan bo`lagining kam rangli ikkita yonma—yon ranglari orasidan o’tuvchi rang. San’at asarlarida: badiiy asarni ifodalash vositasi.
20	Nisbat	Ratio	– bo’laklar o’lchami, bo’laklarning bir biriga va bir butunning o’lchamlariga mosligi. Tasviriy san’atda nisbatning ko’plab turlari mavjud. Rassom nisbatning barcha turlari bilan ishlaydi. Ular nafaqat shakl va predmetlarning tuzilishini, balki asarning kompozitsion tuzilishini ham belgilaydi.
21	Kolorit	Color	– (ital.colorito, lot.color—bo`yoq, rang) rasmdagi bo’yoqlar mutanosibligi, ularning o’zaro aloqasi, rang va uyg’unligiga ko’ra ranglarning mosligi. Iliq, sovuq va yorqin kolorit. Koloritning tashqi tasviri – asarda ranglarning yorqinligi va uyg’unligi.
22	Kontrast	Contrast	(fran. – keskin farq, qarama—qarshilik) – tasviriy san’atda keng tarqalgan badiiy uslub, qarama—qarshi sifatlarni taqqoslash va ularni kuchaytirishga qaratilgan.
23	Munosabat, nisbat	Attitude, proportion	– asar yaratishda foydalanilgan natura elementlarining o’zaro bog’liqligi. Masalan: rangtasvirda tus va rang munosabati, har xil yorqinlik nisbati. CHizmatasvirda o’cham va shakl nisbatlari. San’atda taqqoslash usuli bilan aniqlanadi.

			Tus va rang munosabatalari kontrast, o'tkir va engil nyuansli bo'lishi mumkin.
24	Qoralama	Sketch	fransuzcha – exguisse – nabrosok (qoralama) – ijodiy g ‘oyaning asar uchun bajarilgan tez bajarilgan chizgilari.
25	Eskiz	Outline	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog`oz yuzasi eskiz har xil usul (texnika)da bajarilishi mumkin. eskiz bir necha variantd a bajariladi va eng yaxshi deb topilgani asar uchun asos qilinib olinadi.
26	CHiziq	Sidebar	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog`oz yuzasi kontur, abris
27	SHakl	Form	(lotincha – forma – tashqi k o ‘rinish) 1) tashqi ko’rinish, qiyofa; 2) tasviriy san ‘atda forma deganda shaklning tashqi xususiyatiga aytildi. Tasviriy san ‘atda badiiy forma – bu kompozitsiya tuzilishi, vositalar birligi, hamjihatliliqi, usuli, badiiy ashyoda amalga oshirilganligi va badiiy g ‘oya mujassamligidir.
28	Dastlabki rang (podmalev ka)	First colour	–tasvir chizilayotgan sath, mato, polotno, qog`oz yuzasi ko’p qatlamlı moybo ‘yoqda ishlangan kartinaning eng avvalgi boshlang’ich bosqichi. Boshqa rangtasvir texnikasida ham podmalevka ishlatilishi mumkin. Podmalevka rangli yoki monoxramli (rangsiz, kulrang), bir tusli, yupqa rangli qatlamda yoki nisbatan quyuq bo’yoqda bajarilishi mumkin.
29	Faktura	Invoice, texture	(lotincha – factura– ishlov berish) 1) ashyo (material) ning xarakter xususiyati, naturada buyumning sirti va uning san ‘at asaridagi tasviri (masalan, kartinada yoki naturada shisha ko’zaning yaltiroq sirti, yuzasi); 2) materialning ishlov berilganlik xususiyati, materialning xarakterli sifati (masalan, nafis tasviriy asar fakturasi – bu mezon (iz), b o’yoq qatlamining xususiyati. U silliq, g ‘adir–budir, relefli va shu kabi k o ‘rinishda b o ‘lishi mumkin, haykaltaroshlikda – ishlov berilgan tosh, yog’och va boshqalaming yuzasidir)
30	Alla prima	Alla prima	(lot– birinchi urinishdan) tasviriy san`atdagи rassomlik usuli, mohiyati shundaki, ishlanadigan tasvir hech bir yordamchi chizmalarsiz ishlanadi.

31	Soya–yorug`	CHiaroscuro	– yorug` va to`q ranglar aralashmasi, buyumning hajmi va formasini chiqarishda katta ahamiyatga ega. Uning asosini: Soya va yorug`, yarim yorug`, reflex, shu'li tashkil etadi. Soya va yorug` kompozitsion tuzilish va asar mazmunini ta'riflash vositalardan biri hisoblanadi.
32	Axromatik ranglar	Achromatic colors	– axromatik ranglar –faqt yorqinlik bilan tavsiflanadi. YOrqinlik bo'yicha farqlar ba'zi ranglarning ochroq, ba'zilarining esa to'qroqligidadir.
33	Xromatik ranglar	CHromatic colors	– Oq, kulrang va qora ranglardan tashqari - qizil, to`q sariq, sariq, yashil, havo rang (yoki zangori, moviy), ko'k, binafsha (fiolet) ranglar va barcha ularning oraliq rang tuslari xromatik ranglar hisoblanadi.
34	Rang	Color	– rang tasvirning eng asosiy ish anjomlaridan biri hisoblanadi. Atrof muhitning rang – barang holda aks ettirilishi, naturaning muhim jihatlari ko`rsatilishida ranglar jilosi asosiy o`rinni egallaydi.
35	Rang kontrasti	Color contrast	– bir–biridan faqat tus jihatidan ajralib turadigan ranglarning birga qo`llanilishi. Ranglarning sovuq issiqligi kartina elementlarining ajralib turishida ta'sir ko`rsatadi.
36	Palitra	Palette	– (fran.palette) 1. Bo'yoqlarni aralashtirish va joylashtirish uchun ishlatalidigan katta bo'limgan yupqa yog'och taxtacha; 2. Rassom yoki rangtasvirasarları uchun ushbu rasmga xos bo'lgan ranglar mutanosibligi, ranglar xususiyati, majmuasi, jilosi.
37	Fazoviy planlar, perspektiva	Intensity cuing, airborne prospect	1) naturalarga qaraganimizda fazoga joylashgan buyumlar shartli ravishda maydonlarga bolinadi 2) kartina bo'sh lig'idagi tasvirning har xil darajadagi uzoqlashuvi. Odatda bir necha planlar farqlanadi: birinchi, ikkinchi, uchinchi yoki oldingi, o'rta, uzoq planlari. Ularning soni har xil b o 'ishi tasvirlayotgan obyektga, ijodiy g'oyaga bog'liq; 3) modelirovkada, fazoda har xil joylashgan shakl qismalarini shakl planlari deb yuritiladi
38	Tasvir	Item image	– belgilangan obyektni tasvirlovchi buyum, obraz, rasm. Tasviriy san'atda yaratilayotgan asarlar (rasmda, kompozitsiyada va b.) haqiqiy dunyoning subyektiv tasviri hisoblanadi.

39	Tasviriy san'at	Art	<p>– badiiy ijodning bir turi, badiiy obrazlarni tekislik va makonda namoyon etadi. Bu tushunchalar tasviriy san'at, grafika va me'morchilik, shuningdek arxitekturaning har xil turlarini birlashtiradi.</p>
40	Obraz	Image	<p>– san'atda butun borliqdagi hodisalar, voqeliklarni badiiy tasvirlash shakli. Tasviriy san'atda obraz - fikrning aniq, yaqqol tasviri.</p>
41	Karton	Cardboard	<p>–fran.carton, ital.cartone, carta – qog'oz.</p> <p>1. Qalin, qattiq va juda pishiq qog'oz, oddiy qog'ozdan qalin. Qog'ozga tushirilgan rasm, eskiz, keyin u o'zakka tushiriladi (mato, devor, yog'och yoki metal tekislik).</p>
42	YOrug`lik	Light	<p>– tasviriy san`atda soya yorug` elementi. Naturada bo`lgani kabi, tasvirda ham bu atama eng yorug` qismlarini ko`rsatib berishda qo`llaniladi.</p>
43	Muvozana t		<p>–o'quv natyurmorti yoki kompozitsiya, tasvirining qismlari, ranglar, o'lcham, shaklning o'zaro mos kelishi, sath og`irligi mutanosibligi.</p>
44	Ritm	Rhythm	<p>–asar kompozitsiyasi tuzilishi xususiyatlaridan biri, kompozitsiya qismining ( buyum, shakl, naqsh bo'laklari, rang va h.k...) bir tekisda navbat bilan qaytarilishi.</p>
45	Modelirov ka	Modeling	<p>– (ital.–davolamoq) – badiiy amaliyotda: u yoki bu yorug'likda relyef, tasvirlanayotgan predmet shaklini yetkazib berish. Rasmda modelirovka rang (nur va soya) yordamida amalga oshiriladi, o'z navbatida shakllarning muntazam o'zgarishi ham hisobga olinadi. Tasviriy san'atda shakl ranglar bilan shakllantiriladi, chunku bu yerda ranglarning barcha taraflari o'zaro bog'langan. Haykaltaroshlikda modelirovkada yasash jarayoni va uch o'lchamli shakllarni ishlash tushuniladi.</p>
46	Bo'yoq	Paint	<p>– rang bo'yash vositalari tarkibining umumiyl nomi, maishiy sohada foydalanishga mo'ljallangan, predmetlarga surtilganda yoki bo'ktirilganda u yoki bu rangni beradi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra pigmentlar va ularidan tayyorlangan bo'yoqlar mineral (noorganik tuzlar yoki metal oksidlari) va organik (o'simlik va hayvonlarning birlashishi).</p>

47	Rang surtmasi	Pap	– mo'yqalam tortib bo'yoq berish – asosga (mato, karton va boshqalar) tushirilgan bo'yoqli mo'yqalam izi. Mazok bilan ishlash texnikasi turli va u muallifning shaxsiy harakati, oldiga qo'ygan vazifalari, u ishlayotgan material hususiyatlariga bog'liq.
48	Xomaki reja	Sketch	– rassom tomonidan tez bajarilgan, katta bo'lмаган о'lчамдаги рәсомлік, графика ва ھайкаларошлық сан'ати асары.
49	Kompozit siya tekisligi		– kompozitsiyadagi buyumlar joylashgan tekislik
50	Siluet	Silhouette	–XVII asr frantsuz arbobi nomidan kelib chiqqan. Kishi, hayvon, qush, narsalarning soyaga o'xshatib bir rangda ishlangan tasviri. Tasvir sidirg`a rangdagi qog`ozni kesib ishlab, boshqa rangdagi qog`oz yoki materialga yopishtirilishi ham mumkin. Grafika texnikasining bu turiqadimdan Xitoyda, Yaponiya va boshqa sharq mamlakatlarida, asrdan boshlab esa Yevropada rivojlangan. Keng ma'noda narsa, bino turi shakllarining xarakterli ko'rinishidir.
51	Sovuq ranglar	Cool Flowerses	–qor, muz va sovuqlik taftini eslatuvchi ko'k, havorang va siyohrang tusli ranglar ko'lami
52	Iliq ranglar	Warm flowerses	–quyosh, olov, issiqlik taftini eslatuvchi sariq, qizil va zarg`aldoq tusli ranglar ko'lami
53	YUvish	Blur	– muntazam suvdan foydalangan holda mo'yqalam bilan ishlash texnikasi, qiyin va tasviriy san'at effektlariga boy tush, akvarel va boshqalarda ishlangan rasmlarga ega bo'lish uchun qo'llaniladi.
54	Refleks	Reflex	– grafikada kamdam–kam, tasviriy san'atda: o'rab turgan obyektlardan biror–bir predmetga rang va nurning tushgan aksi. Bir butun qismlarining qiyin o'zaro aloqasi.
55	Ufq CHizig'I	Line of the horizon	–nigoh qarashi va uning izidan taasurotimiz paydo bo'ladigan, ko'pincha rassomning tasvirlanayotgan ko'rinishga qarash uchun tanlagan nuqtasi, ya'ni kartina tashqarisidagi qarash nuqtasiga bog`liq bo'ladi. Tomashabinning ko'z qarashi darajasida yotuvchi chiziq. – bu gorizont chizig`i deyiladi.

56	G'oyaviy markaz	Centre to ideas	– kompozitsiyaning asosiy mazmunini aks ettiradigan qismi
57	Uslug	Style	– muallifning ijod matabida rassomlikning aniq bir yo`nalishiga xarakterli obrazli tizimi qat'iy birligi va tasvirlash usuli. Atama turli ma'nolarda qo'llaniladi, ko'pinch keng ma'noda qo'llaniladi.
58	SHakl	Form	– tashqi ko`rinish. Tasviriy san`atda forma hajmni, konstruksiyanı hamda mutanosiblikni anglatadi.
59	Gamma	Gamma	– ranglar jilosi, ko`proq amaliy san`atda qo`llaniladigan bir nechta ranlarning o'zaro uyg'unligi. Issiq, sovuq, yorqin va boshqa xillarga ajratiladi.
60	Grafika	Graphics	<p>– (grek.graphike, grapho, yozaman, chizaman)</p> <p>1) Tasviriy san'at turi bo'lib, asosiy tasviriy vositalar: qog'ozga tushirilgan chiziqlar, shtrixlar, dog' va nuqtalar bilan rasm chiziladi. Grafika ikki turga bo'linadi: tasviriy (rasm), muallif tomonidan chizilgan rasm va nashr qilingan: o'yma naqsh, toshbosma.</p> <p>2) Asosi shunday rasmdan iborat bo'lган nashr qilingan badiiy tasvirlar (o'yma naqsh, toshbosma). Ranglar grafikada yordamchi vazifasini bajaradi.</p>
61	O'zgarish	CHanging	– bo'yoq qatlamidagi o'zgarish, shu sababli rasm yuzasining bir qismiga jilo berilmaydi, bo'yoqlar o'z yorqinligi va jarangini yo'qotadi.
62	Molbert	Easel	– (nem.malbrett – rassomlik san'ati uchun tokcha) – rassomlik san'ati uchun taxta yoki metal uskuna, turli balandlikda va turli nishablikda mato, karton yoki taxta bilan romlar qotiriladi.
63	Motiv	Motive	<p>– 1) rassom tomonidan tasvir uchun tanlangan natura obyekti, kamdan–kam manzara. Motiv – bog'liqlik, rasm yoki etyudning tasvir yoki rang holatini aniqlaydi.</p> <p>2) bezak san'atida – ko'p marota takrorlanishi mumkin bo'lган ornament kompozitsiyasining asosiy elementi.</p>
64	Muvozana t	Balance	– o'quv natyurmorti yoki kompozitsiya, tasvirining qismlari, ranglar, o'lcham, shaklning o'zaro mos kelishi, sath og'irligi mutanosibligi.

65	Ijodiy eksperiment	Creative experiment	– (lot. – eksperimetum – tajriba, qo`llab ko`rish) ijodiy jarayonda kartina yaratish maqsadida izlanish, tadqiqot qilish, yangi usullarni qo`llash, sinab ko`rish.
66	Faktura	Texture	– (lot. Facture – qayta ko`rib chiqish, qurish) – badiiy asarni his qilish hossalri, butun borliqning haqqoniy tasviri vositasi sifatida qo`llanilgan.
67	Format	Format	– tasvir ishlanadigan yassi tekislik. Bo`yi va eni hisoblab chiqilgan, tasvir ishlashga moslangan bo`ladi. Format tanlash bajariladigan ishning umumiyligi ko`rinishi va kayfiyatdan kelib chiqiladi. Rasm formati doim kompozitsiyaga mos kelishi kerak.
68	Realizm	Realism	– san`atda: butun borliqning obyektiv tasviri. Ko`pgina san`at yo`nalishi va oqimlariga hos bo`lgan haqiqatga moyillikning namoyon bo`lishi. Ular aniq yoki noaniq namoyon bo`ladi, yoki umuman mavjud bo`lmaydi.
69	Manzara	Landscape	– tasviriy san`at janri, uning asosini yovvoyi yoki odam tasvirlagan tabiat tasviri hisoblanadi. Joylarning, arxitektura inshootlarining, dengiz va boshqalarning haqiqiy yoki hayoliy ko`rinishi. Boshqa janrlarning portret foni sifatida ham qo`llanishi mumkin.
70	Fon	Background	– (frantsuzcha - fond - tag, chuqurlik kismi) - naturada va tasviriy san`atda - shakllar ortida joylashgan muhit, tasvirda orqa plan. Tasviriy san`atda fon tasvirli yoki tasvirsiz bulishi mumkin.
71	Dekorativ rangtasvir	Decorative painting	– intererni bezash va qo`shimcha dizayn baxsh etish maqsadida yaratiladigan asar.
72	Qarash nuqtasi	Watchpoint	– rassom tomonidan tanlangan kartinaga tomashabinning nigohi yo`naltirilayotgan nuqta.
73	CHiziqli perspektiva	linear prospect	– kuzatuvchi ko`z qarashidan masofa oshib, uzoqlashgan sayin ob`ektlar o`lchamining kichrayib borishi.
74	Guash	Gouache	– (fran. Guache, ital. guazzo suv bo`yog`i). 1. Tiniq bo`lmanan bo`yoq, suvda yelim (gummiarabik yoki dekstrin) va belil moddasini aralashmasi. Akvarelning bir turi sifatida paydo bo`lgan. Guashli bo`yoq rasm yuzasida qalin qatlama hosil qiladi. Belil bo`lganligi sababli, guashda chizilgan rasm qurish jarayonida ocharadi va baxmalga o`xshash mayin rangga aylanadi. Guash –

			qoplovchi, korpus bo'yog'I, ya'ni to'q ranglarni och ranglar bilan qoplash hususiyatiga ega va aksincha.
75	Eskiz	Sketch	– (frans. esquisse) – rassom ishlamoqchi bo`lgan asari yoki tasvirning oldindan qilingan taxminiy ishi.
76	Ranglavha	Etude	– (frans. etude – o`rganib chiqish) naturani o`rganib chiqish uchun ishlanadigan tasvir. Odatda katta san`at asari yoki haykal yasash uchun qo`llaniladi.
77	Animalizm	Animal	– (lot-jonivor, hayvonot) tasviriy san`atda hayvonlar, jonivorlarni ishslash.
78	Kuchli yorug`	Luminosity	– tasviriy san`atda rangning yorug`lik bilan yanada ko`proq boyitilishi; oldidagi boshqa buyumlarning rangidan ajratib olishi; grafikada esa bir–biriga qo`shti turgan predmet tonlaring bir–biridan ajralib chiqishi.
79	Qiyofa	Silhouette quite flat.	– naturada qomatning yoki predmetning umumiyligi ko`rinishi. San`at asarlarida: qomat deb ortiqcha detallar, ortiqcha hajmsiz turgan predmet yoki naturaga aytildi.
80	Simmetriya	Symmetry	– predmet yoki kompozitsiya asarining shunday qurilishiki, bir xil turdag'i qismlarning bir–biriga nisbatan parallel joylashishi, unda ixtiyoriy obyektning markaziyligi o`qidan bir xil uzoqlikdagi masofada joylashgan holati.
81	Dastgohli rang tasvir	Easel painting	– nomi tasvir yaratiladigan dastgohdan kelib chiqqan. Dastgohli rang tasvir doimo o`z mazmuniga ega bo`ladi. Ularning badiiy hususiyatlari tashqi muhitga bog`liq emas.
82	Syujet	Story	– tasvirdagi aniq bir mavzu yoki voqeanning ko`rsatib berilishi. Bitta mavzu bir necha marotaba qaytarilishi mumkin. Syujet tasviriy san`at janrlaridan maishiy, tarixiy va botal janrlarida ko`p uchraydi.
83	Mavzu	Topic	– (grek) – rassom rasmida o`z fikrini ifodalashi uchun zarur bo`lgan mavjud voqeliklar doirasi.
84	Asosiy rang	Main floweres	– rangtasvirda boshqa ranglarni aralashtirib tayyorlab bo`lmaydigan, aksincha ular yordamida boshqa barcha ranglarni tayyorlash mumkin bo`lgan ranglar.
85	Natura	Nature	– rassom uzoq vaqt kuzatib ishslash jarayonida bevosita tasvirlash uchun tanlagan voqelikdagi ob'ektlar.
86	Kuzatish	Framing	-tabiatda ko`rinishni tanlash, tasvirni asosga (qog'oz,

	moslamasi	mat	karton, mato va h.k.) joylashtirish va kompozitsiya uchun tik, yotiq yoki kvadrat holatdagi formatlar tanlashga kartondan yasalgan maxsus ko`rish moslamasi juda qulay asbob hisoblanadi. eng oddiy kuzatish moslamasi sifatida qo`l barmoqlaridan ham foydalanishingiz mumkin.
--	-----------	-----	---

### **Topshiriq va testlar javoblari**

#### **2-topshiriq (krossvord №2) javoblari:**

1. Vitraj. 2. Batik. 3. Janr. 4. Guash. 5. Statik. 6. Mastixin. 7. Freska. 8. Akvarel. 9. Grizayl. 10. Karton

#### **3-topshiriq (krossvord №3) javoblari:**

1. Kolorit. 2. Perspektiva. 3. Manzara. 4. Aksent.

#### **4-topshiriq (krossvord №4) javoblari:**

1. Sangina. 2. Gravyura. 3. Statik. 4. Ofort. 5. Simmetriya. 6. Rakurs. 7. Hajm.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

### **1. Asosiy adabiyotlar:**

1. Suzanne Brooker The elements of landscape oil painting : techniques for rendering sky, terrain, trees, and water. Published in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. 2015. s 664
2. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir: Toshkent–“O’zbekiston” –2006/ 136 bet.
3. R.Xalilov Akvarel Izdatestvo “Navruz”. T– 2013

### **2.Qo’shimcha adabiyotlar**


1. . Mirziyoev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yaku4nlari va 2017 yil istiqbollariga bag’ishlangan majlisidagi O’zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi//Xalq so’zi gazetasি. 2017 yil16 yanvar, №11.
2. Aggy Boshoff. Oil-painting Workshop. First American edition, 2006 Published in the United States by DK Publishing, 375 Hudson Street, New York, New York,
3. Barrington Barber. Advanced DRAWING SKILLS a course in artistic excellence. The Publishing House, Bennetts Close, Cippenham, Slough, Berkshire SL1 5AP, england.2003/s-136
4. Paramon edisionis, «Curso Completo de Dibujo y Pintura Artistica». SA, Barselona, Ispaniya 1992: s–127
5. Tolipov N., Abdirasilov S. , Oripova N. Rangtasvir (1–qism). Toshkent., 2002. TDPU
6. Frontz , Lesl i e. The watercolor course you’ve always wanted : guide to 10 lessons for beginners and experienced artists / All rights reserved. Published in the United States by Watson–Guptill Publications, an imprint of the Crown Publishing Group, a division of Penguin Random House LLC, New York. Copyright © 2015 s. 69–76.
7. Abdirasilov S.,Tolipov N. “Rangtasvir” O’quv qo’llanma, Toshkent , 2005. "Bilim"
8. Sultanov X. “Rangtasvir” (grizaylda ishlash). Metodik qo’llanma. T.– 2014. 114–b.
9. Burchik A.I. “Osnovi akvarelnoy jivopisi”. Uchebnoe posobie, Grodno, 2014.
10. Gilmanova N.V. Rangtasvirda yorug’lik va rang. O’quv qo’llanma, Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent -2012.

## ILOVA



Travis Price 2006  
digitalcraftsman.com

Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort



SHakli oddiy uy-ro'zg'or buyumlaridan tuzilgan natyurmort









Andijon “San’at maktabi” o’qituvchisi Murodjon Djumashev ishlaridan namunalar














G'ofurov Behruz. RRK talabasi









Demo By CHien CHung Wei







Maya 14






**CHET EL RASSOMLARI IJODIDAN NAMUNALAR (S. Andriyaka)**











CHien CHung Wei (Xitoy)



SHin Jong Sik (Koreya)







Gillian Marklew — Still Life with Sage, 2012 (668×1202)

## MUNDARIJA

Kirish	4
AKVAREL RANGTASVIRI TARIXI HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT	6
RANGTASVIR ISHLASHNING NAZARIY ASOSLARI	11
Rangtasvirda qalamtasvirning ahamiyati	12
YOrug'likning rangni idrok etishga ta'siri	12
Rangning asosiy xususiyatlari	14
Ranglarni aralashtirish	17
Iliq va sovuq ranglar	19
Kontrastlar	20
SHaklni rangda ifodalash	23
AKVAREL RANGTASVIRI UCHUN KERAKLI ASHYOLAR	24
Akvarel bo'yoqlari	25
Qog'oz	28
Rangtasvir uchun mo'yqalamlar va kerakli anjomlar	33
Ish joyini tashkil qilish	38
AKVAREL RANGTASVIRI TEXNIKASI	41
Quruq qog'ozga rangtasvir ishlash	42
Ho'l qog'ozga rangtasvir ishlash	44
Aralash texnikada ishlash	48
AKVAREL RANGTASVIRINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51
NATURADAN RANGTASVIR ISHLASH METODIKASI	53
Natyurmort rangtasviri	53
Rangtasvir haqida tushuncha. Xolis fonda 2-3 geometrik jismdan tuzilgan sodda natyurmort ishlash (Grizaylda)	57
Gipsli geometrik jismlardan tuzilgan natyurmort rangtasvirini cheklangan ranglarda bajarish	65
Xolis fonda oddiy shakldagi uy-ro'zg'or buyumlardan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish	72
Qisqa muddatda uy-ro'zg'or buyumlaridan tashkil topgan natyurmortning rangtasvirini bajarish	79
Kontrast fonda turli shaklli va har xil fakturalii buyumlardan tuzilgan natyurmortning rangtasvirini bajarish	85
Kontrast rangli jismlardan tashkil topgan mavzuli natyurmort ishlash	89
Ko'k tusli ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasvirini bajarish	95
Sovuq ranglardan tashkil topgan natyurmort rangtasviri (Guash)	99
Dekorativ fonda har xil buyumlardan tashkil topgan natyurmort rangtasviri	105
Hayvonlar va parrandalarning ranglavhalarini bajarish (Hayvonot bog'ida)	111
AKVAREL ISHLARNI KO'RGAZMAGA TAYYORLASH (RAMKA BILAN BEZASH)	116
Olingen bilimlarni sinab ko'rish uchun topshiriqlar	122
Glossariy	125
Foydalanilgan adabiyotlar	136
Ilova	137
Mundarija	159

## OGLAVLENIE

VVEDENIE	4
KRATKIY Istoricheskiy obzor akvarel'noy jivopisi	6
OSNOVI TEORII JIVOPISI	11
Rol' risunka v jivopisi	12
Vozdeystviya osvesheniya na vospriyatie tsveta	12
Osnovnie svoystva tsveta	14
Smeshivanie tsvetov	17
Teplie i xolodnie tsveta	19
Kontrasti	20
Virajenie formi tsvetom	23
Neobxodimie materiali dlya akverel'noy jivopisi	24
Akvarel'nie kraski	25
Bumaga	28
Kisti i neobxodimie instrumenti dlya jivopisi	33
Organizatsiya rabochego mesto	38
TEXNIKA AKVAREL'NOY JIVOPISI	41
Jivopis' po suxoy bumage	42
Jivopis' po siroy bumage	44
Smeshannaya texnika	48
OSOBENNOSTI AKVAREL'NOY JIVOPISI	51
METODIKA RABOTI JIVOPISI S NATURI	53
Jivopis' natyurmorta	53
Ponyatie o jivopisi. Vipolnenie prostogo natyurmorta sostavleniix iz 2-3 geometricheskix predmetov v neytral'nom fone. (Grizayl')	57
Vipolnenie jivopisi natyurmorta sostavleniix iz gipsovix geometricheskix tel s ogranicennimi tsvetami (Akvarel')	65
Vipolnenie natyurmorta sostavleniix iz prostix po forme predmetov bita v neytral'nom fone	72
Kratkovremenniy jivopis' natyurmorta sostavleniix iz predmetov domashnego obixoda	79
Vipolnenie natyurmorta sostavleniix iz raznix po forme i po fakture predmetov	85
Vipolnenie tematicheskogo natyurmorta iz predmetov protivopolojnimi tsvetami	89
Vipolnenie jivopisi natyurmorta s sinimi ottenkami	95
Vipolnenie natyurmorta s xolodnimi tsvetami (Guash')	99
Natyurmort v dekorativnom fone sostavleniy iz raznix predmetov	105
Vipolnenie etyudi jivotniix i ptits (v zooparke)	111
Prigotovlenie akvarel'nix rabot na prosmotr (oformlenie bagetom)	116
Zadaniya dlya proverki znaniy	122
Glossariy	125
Ispol'zovannaya literatura	136
Prilojenie	137
Soderjanie	160

## TABLE OF CONTENTS

<b>INTRODUCTION</b>	4
<b>A BRIEF HISTORICAL OVERVIEW OF WATERCOLOR PAINTING</b>	6
<b>FUNDAMENTALS OF THE THEORY OF PAINTING</b>	11
The role of drawing in painting	12
The impact of lighting on the perception of color	12
Basic color properties	14
Mixing of colors	17
Warm and cold colors	19
Contrasts	20
Expression of color	23
<b>NECESSARY MATERIALS FOR THE WATER-COLOUR PAINTING</b>	24
Watercolours	25
Paper	28
Brushes and necessary instruments for painting	33
Organization of the workplace	38
<b>TECHNOLOGY OF WATERCOLOR PAINTING</b>	41
Painting according to dry paper	42
Painting according to crude paper	44
The mixed technique	48
<b>FEATURES OF WATER COLOUR PAINTING</b>	51
<b>METHOD OF WORK OF PAINTING FROM NATURE</b>	53
Painting still life	53
The Notion about painting. Performing the simple still life formed from 2-3 geometric subjects in neutral background. (Grizayli)	57
Execution painting still life formed from gypsum geometric subject with limited colour	65
Performing the still life formed from simple on form subject home everyday life in neutral background	72
SHort painting of the still life formed from subject of the home everyday life	
79	
Performing the still life formed from different on form and on invoice subject	85
Performing the thematic still life from subject opposite colour	89
Performance of still life painting with blue shades	95
Performing the still life with cool colour (Gouach)	99
Still life in a decorative background composed with different objects.	105
Execution etudes animal and birds (in zoo)	111
<b>PREPARATION OF WATERCOLOR WORKS FOR VIEWS (BAGUETTE DESIGN)</b>	116
Tasks for testing knowledge	122
Glossary	125
Refrences	136
Attachment	147
Content	161